



MAKTAB TA'LIMI
Muammolar, izlanishlar, yechimlar

UO'K 373.3/5
ISSN: 3060-4788

A.AVLONIIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIIY INSTITUTI
ILMIY-NAZARIY VA O'QUV USLUBIIY JURNAL

MAKTAB TA'LIMI

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

Sentyabr, 4/2025



A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni

MAKTAB TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ

SCHOOL EDUCATION:

PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

2025-yil,
4-son

Toshkent – 2025



Maktabgacha
va maktab
ta'limi vazirligi

Bosh muharrir

ISMAILOV Abduvali Abdumalikovich

Bosh muharrir o'rinbosari

RAJABOV Sherzod Umurzoqovich

Tahrir hay'ati:

YULDASHEV Maksudjon Abdullayevich

RADJABOV Sardor Baxtiyorovich

IBRAIMOV Xolboy Ibragimovich

PIOTR Fokich Borovski

GUNDA Tire

KOVALEVA Galina Sergeyevna

IBRAGIMOV A'lamjon Amrilloevich

ERGASHEVA Malohat Tursunovna

XAKIMOVA Dildora Mashrabjonovna

JUMANAZAROV Sirojiddin Salaydinovich

URINBAYEVA Dilbar Bazarovna

IBRAGIMOV Abdumalik Gapparovich

ALKAROV Elyor Maxmudovich

BADALOVA Maqsuda Umarovna

BOTIROV Hamid Hakimovich

OTAMURODOV G'olibjon Ro'zimurodovich

XURRAMOV Isroil Abdurashidovich

BABAYEVA Nargiza Muzaffarovna

Mas'ul kotib:

DAMINOVA Shoxista Kabulovna

Adabiy muharrir:

MIRZOXIDOVA Laylo Baxtiyorovna

Tarjimon:

ABDULLAYEVA Maxprat Nurmatovna



ABDULLA AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI

MAKTAB TA'LIMI:

MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali

ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:

ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
научно-теоретический
и учебно-методический журнал

Scientific-theoretical and

educational-methodical journal

SCHOOL EDUCATION:


PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

UO'K 373.3/.5

ISSN: 3060-4788

Muassis:

Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat milliy instituti



**“Har bir muallimning
saodati, davlatning tinchi
va rohati yoshlarning yaxshi
tarbiyasiga bog'liqdir”.**

MUNDARIJA

CONTEKST

Ta'lim menejmenti va boshqaruv

- 5** Xalmonov Umid Ochilovich.
Innovatsion boshqaruv texnologiyalari
asosida ta'lim menejmentining
samaradorligini oshirish
- 10** Usmonova Aziza To'liq qizi.
Maktabda o'quvchilarni mustaqil hayotga
tayyorlashda ota-onalar bilan
hamkorlik samaradorligini oshirish

Maktab ta'limini tashkil etish

- 17** Fazliddin Shamsiddin o'g'li Abduraimov.
Sifatli ta'lim asosida o'quvchilar
motivatsiyasini oshirish usullari va
bunda o'quv jarayonini tashkil etish
metodikasining o'zni

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

- 25** Nasrullayeva Fatima Azatovna.
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ
yondashuv metodikasidan
foydalanishning nazariy va amaliy
ahamiyati hamda dolzarbligi
- 31** Yusufjonova Nazokat Nig'madjon qizi.
Epik asarlarni o'qitishda sun'iy intellekt
vositalaridan foydalanish metodikasi

- 38** Rashidova Sanobar Zokirovna.
Tabiiy fanlarni steam yondashuvi asosida
o'qitishning afzalliklari

- 46** Yaxyayev Dilmurod Karimovich.
Alfa avlod uchun jismoniy tarbiya fanini
o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar

- 53** Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi.
Maktab ta'limi tizimida ingliz tilini
o'qitishning hozirgi holati

- 59** Xasanova Nigora Nizomovna.
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar –
yangi usullar, innovatsiyalar va ularni
tatbiq etish

Xalqaro tadqiqotlar

- 68** Urazova Nasiba Urazbayevna.
Boshlang'ich ta'limda timss talablariga
mos topshiriqlarni yaratish va ulardan
samarali foydalanish texnologiyasi

Umumiy pedagogika, pedagogika tarixi va ta'lim

- 82** Daminova Go'zal Vaydulla qizi.
Maktab ta'limi va uzluksiz ta'lim: milliy
islohotlar va xalqaro tajribalar

- 88** Isaqova Muhayyo Abduvayitovna.
Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda
sokratik metoddan foydalanish

TA'LIM ISLOHOTI AMALDA



INNOVATSION BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TA'LIM MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xalmonov Umid Ochilovich,

*O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi*
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17301549>

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimida menejment samaradorligini oshirishning innovatsion boshqaruv texnologiyalari asosidagi metodologik yondashuvlari tahlil qilinadi. Jahon va milliy tajribalar solishtirilib, raqamli transformatsiya, liderlik modeli hamda tizimli boshqaruv yondashuvlari asosida samaradorlik indikatorlari ishlab chiqiladi. Natijada, ta'lim menejmentida strategik qarorlar qabul qilish, sifat nazoratini kuchaytirish va korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim menejmenti, innovatsion boshqaruv texnologiyalari, samaradorlik, raqamli transformatsiya, tizimli yondashuv.

Повышение эффективности управления образованием на основе инновационных управленческих технологий

Халмонов Умид Очилович,
главный специалист Республиканского
научно-методического центра развития
образования Республики Узбекистан

Аннотация: В статье проанализированы методологические подходы на основе инновационных технологий управления для повышения эффективности управления в системе образования. На основе сравнения мирового и национального опыта будут разработаны показатели эффективности на основе цифровой трансформации, моделей лидерства и подходов

к системному управлению. В результате предложены механизмы принятия стратегических решений, усиления контроля качества и развития культуры корпоративного управления в сфере управления образованием.

Ключевые слова: Туправление образованием, инновационные технологии управления, эффективность, цифровая трансформация, системный подход.

Improving the efficiency of education management through innovative management technologies

Khalmanov Umid Ochilovich,
Chief Specialist of the Republican Scientific
and Methodological Center for Education
Development of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The article analyzes methodological approaches to enhancing management efficiency in the education system by applying innovative management technologies. Performance indicators are developed through a comparison of global and national experiences, focusing on digital transformation, leadership models and systematic management approaches. The article proposes mechanisms to support strategic decision-making, strengthen quality control and foster a culture of corporate governance in education management.

Keywords: Education management, innovative management technologies, efficiency, digital transformation, systematic approach.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini samarali boshqarish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aйлandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni [1] va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ta'lim sohasida boshqaruv sifatini oshirish, zamonaviy menejment tamoyillarini tatbiq etish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni talab etmoqda.

Ta'lim menejmenti – bu nafaqat ma'muriy boshqaruv, balki strategik rivojlanish, resurslarni samarali taqsimlash, inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim sifatini doimiy monitoring qilib borish jarayonidir. Shu bois, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini ta'lim tizimiga integratsiya qilish ta'lim ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirish, xalqaro mezonlarga mos raqobatbardosh muhit yaratish hamda ta'lim sifatini oshirishning kafolatli omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan, innovatsion boshqaruv texnologiyalari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

XXI asrda ta'lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi strategik ahamiyatga ega. Boshqaruv samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish, sifat monitoringi va strategik qarorlar qabul qilishni takomillashtiradi.

Mazkur maqola ta'lim menejmenti samaradorligini oshirishda innovatsion boshqaruv texnologiyalarining o'rnini, milliy va xalqaro tajribalar tahlili hamda amaliy takliflarni ishlab chiqishga bag'ishlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbariyati tomonidan ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish va xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimi

mini yaratish bo'yicha bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda boshqa muassasalar tomonidan ishlab chiqilayotgan strategiyalar, dasturlar va milliy konsepsiyalar ushbu jarayonni tizimli tarzda yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda. Bu islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, shubhasiz, boshqaruv tizimining sifatiga bog'liq. Ya'ni, faqatgina yangi dasturlarni qabul qilish emas, balki ularni samarali boshqarish, amalga oshirish va natijalarni monitoring qilish bo'yicha aniq mexanizmlar zarur.

Bugun ta'lim muassasalari rahbarlari strategik fikrlaydigan, raqamli texnologiyalarni boshqaruvga joriy eta oladigan, jamoa bilan ishlash madaniyatiga ega va muammolarni ijodiy hal qila oladigan, menejerlik salohiyatiga ega shaxslar bo'lishi kerak. Shuningdek, zamonaviy boshqaruvda muhim omillardan biri bu – ochiqlik, javobgarlik va natijadorlik tamoyillaridir. Aynan, shu tamoyillar asosida ishlaydigan ta'lim tashkilotlarida islohotlar real samara berishi, o'quvchilar bilim sifati oshishi va jamoatchilik ishonchi kuchayishi mumkin[2].

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion boshqaruv texnologiyalarini qo'llash, masalan, loyiha boshqaruvi, raqamli monitoring tizimlari, sun'iy intellekt asosida tahlil, Agile va Lean metodlari ta'lim muassasalarida samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, Finlyandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi ilg'or ta'lim tizimiga ega mamlakatlarda menejment samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida raqamli boshqaruv, liderlik va jamoaviy qaror qabul qilish madaniyati muhim o'rin tutmoqda.

Boshqaruv tamoyillari, o'z navbatida, nafaqat iqtisodiyot, balki ta'lim sohasida ham innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Birinchi navbatda, boshqaruv tamoyillari to'g'risida jahon miqyosida

keng tarqalgan fikrlarni ko'rib chiqish zarur.

Menejment nazariyasida bir necha paradigmalarni shakllangan bo'lib, ular ta'lim sohasida boshqaruv samaradorligini oshirishda metodologik asos vazifasini bajaradi. Klassik paradigma asoschilari A.Fayol [3] va F.Teylor boshqaruvni ma'muriy va ilmiy asoslarda tashkil etishni ilgari surgan bo'lib, boshqaruvda intizom, mehnat taqsimoti va nazorat tamoyillarini asosiy omil sifatida ko'rsatgan.

Tizimli yondashuv XX asrning o'rtalaridan boshlab rivojlanib, tashkilotni o'zaro bog'langan elementlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv ta'lim muassasalarini ham tashqi muhit bilan uzviy aloqada bo'lgan ochiq tizim sifatida ko'rishga imkon beradi [4].

Kompetensiyaviy paradigma esa rahbarlarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga urg'u beradi. Zamonaviy ta'lim menejmentida rahbarning liderlik qobiliyati, strategik fikrlashi, innovatsion texnologiyalarni joriy qila olish ko'nikmalari samaradorlikni belgilovchi asosiy mezonlardan hisoblanadi.

Ko'zlangan maqsadlarga erishishda ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish. Pedagogik xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, strategik reja asosida faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo'nalishida asosan boshqaruvning ikki xil turini nazarda tutadi: strategik boshqaruv va konyunkturaviy boshqaruv.

Strategik boshqaruv – bu ta'lim muassasasining strategik maqsadi yo'nalishida muassasa imkoniyatlarini pedagogik xodimlarning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihalar asosida boshqarishdir. Strategik boshqaruv odatda, mazkur tizimni boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Konyunkturaviy boshqaruv – ma'lum bir davrda muassasaning iqtisodiy holatini tavsiflovchi belgilar majmuasi bilan bog'lik bo'ladi.

Ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirib borishda, eng avvalo, ko'zlangan maqsadlarga erishishda faoliyatning strategik rejasini tuzish va mazkur reja asosida muassasaning istiqbol maqsadi va imkoniyatlarini xodimlar manfaati bilan uyg'unlashtirish, ta'lim muassasasining faoliyatini zamonaviy o'zgarishlarga moslashtirib borish, ta'lim innovatsiyalarini joriy etishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usullarini boshqaruv jarayoniga tatbiq etish zarur.

Ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar muhim metodologik asoslardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ularning qo'llanishi nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga, balki mavjud resurslardan oqilona foydalanishga, strategik qarorlar qabul qilish jarayonini takomillashtirishga hamda sifat monitoringini kuchaytirishga xizmat qiladi. Innovatsion boshqaruv texnologiyalari orasida **loyiha boshqaruvi, Agile metodologiyasi, Lean yondashuvi, Design Thinking** kabi metodlar alohida ahamiyat kasb etib, ular ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va boshqaruv samaradorligini oshirishda dolzarb yondashuvlar sifatida ko'rilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida loyiha boshqaruvi metodlari 2020-yildan boshlab keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ta'lim sohasida innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy qilish, xususan, loyihaviy boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish belgilangan[5].

Agile metodologiyasi ayniqsa so'nggi yillarda yurtimizda masofaviy ta'lim platformalarini joriy etishda sinovdan o'tkazilmoqda. Jumladan, **my.edu.uz** va **kundalik.com** tizimlarining rivojlanishida qisqa sikllar orqali yangilanish kiritish, foydalanuvchi (pedagog va ota-onalar) fikr-mulohazalarini inobatga olish

ushbu metodologiya tamoyillariga mos tarzda olib borilgan. Shu bilan birga, Toshkentdagi bir qator nodavlat oliy ta'lim muassasalari ham dars jadvallarini moslashuvchan boshqarishda Agile metodlarini joriy qilmoqda.

Lean yondashuvi ham mamlakat ta'lim tizimida bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Xususan, maktablarda byurokratik hujjatlar sonini kamaytirish, o'qituvchilarning ortiqcha ma'muriy yukini qisqartirish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Bu Lean tamoyillariga yaqin yondashuv bo'lib, "keraksiz ishlarni kamaytirish hamda natijaga e'tibor qaratish" falsafasiga asoslanadi.

Design Thinking metodologiyasi yurtimizdagi ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanish dasturlarida qo'llanilmoqda. Masalan, Ta'limni rivojlantirish ilmiy-metodik markazi tomonidan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, pedagog kadrlarning kasbiy rivojlantirishiga ko'maklashish, ularni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlarining navbatdagi bosqichiga samarali tayyorgarlik ko'rish yuzasidan "Metodik marafon" tadbirlari doirasida treninglar tashkil etildi. Bu orqali o'qituvchilar dars jarayonini loyihalashda o'quvchi ehtiyojini markazga qo'ygan holda, kreativ metodlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Ta'lim menejmentida samaradorlik ko'rsatkichlari – bu ta'lim tizimida qabul qilingan boshqaruv qarorlari, resurslardan foydalanish va o'quv jarayonining qanchalik natijador ekanligini o'lchovchi mezonlardir. Oddiy qilib aytganda, bu – "ta'lim sifati yaxshilanyaptimi yoki yo'qmi?", degan savolga javob beradigan indikatorlar majmuasi.

Ta'lim sifatini baholashning xalqaro ko'rsatkichlari (PISA, PIRLS, TIMSS):

PISA (Programme for International Student Assessment) – 15 yoshli o'quvchilarning

matematika, o'qish va tabiiy fanlardan amaliy bilim va ko'nikmalarini baholaydi. O'zbekiston 2022-yilda ilk bor ishtirok etdi. OECD ma'lumotlariga ko'ra, o'quvchilarning natijalari OECD o'rtachasidan ancha past bo'lgan, masalan, o'qish savodxonligida faqat 14 % o'quvchi minimal darajaga erishgan[6].

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholaydi. O'zbekiston 2021-yilda ishtirok etdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalari xalqaro reytinglarda o'rtacha darajaga yaqin, biroq o'qish tezligi va matnni tahlil qilish bo'yicha zaifliklar mavjud[7].

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasini baholaydi. O'zbekiston 2023-yilda qatnashdi. 4-sinf va 8-sinf o'quvchilari 166 ta maktabdan tanlab olindi, natijalar ta'lim menejmentida STEM sohasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi[8].

Ta'lim jarayonida boshqaruv samaradorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi, chunki samarali boshqaruv natijasida resurslardan oqilona foydalanish, strategik qarorlarni sifatli qabul qilish, o'quv jarayonida samaradorlikni oshirish, sifat monitoringini kuchaytirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Innovatsion boshqaruv texnologiyalari o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim tizimida moslashuvchanlik, ijodkorlik va resurslarni tejashni ta'minlaydi.

OECD TALIS (2020) tadqiqotlariga ko'ra, innovatsion metodlarni qo'llayotgan maktab rahbarlarida ta'lim sifati 20-25% yuqori natijani ko'rsatmoqda [9].

2023-yilda UNICEF va UNICEF Global Innovation Centre hamkorligida "Eduten" – sun'iy intellektga asoslangan matematika platformasi pilot loyihasi amalga oshirildi. Bu loyiha doirasida Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi maktablarda 527 nafar o'quvchi ikki yillikdan so'ng mashg'ulotlar Weekda bir

marta Edutendan foydalangan holda o'tkazildi. Platforma milliy o'quv dasturiga integratsiya qilingan holda intellektual ta'lim tizimi sifatida joriy etildi[10].

Innovatsion boshqaruv texnologiyalari nafaqat ta'lim jarayonini optimallashtirish, balki boshqaruv mexanizmlarini samarali tashkil etishda ham muhim omil hisoblanadi.

Shu bois, ta'lim menejmentida samaradorlikni oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Raqamli infratuzilmani kuchaytirish ya'ni barcha ta'lim muassasalarida barqaror internet, zamonaviy kompyuter va planshetlar bilan ta'minlash.

Pedagog va rahbarlar uchun malaka oshirish, bunda raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish, innovatsion boshqaruv metodlarini amalda qo'llash bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish.

Milliy monitoring tizimini yaratish – innovatsion texnologiyalarining samaradorligini baholash uchun xalqaro indikatorlarga asoslangan elektron monitoring tizimini yo'lga qo'yish.

Xalqaro tajribalar orqali Singapur, Finlyandiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimidagi ilg'or

boshqaruv modellarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish.

Ta'lim muassasalari qoshida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga ixtisoslashgan metodik va ilmiy markazlarni rivojlantirish orqali "Innovatsion boshqaruv markazlari"ni tashkil etish.

Ta'lim menejmenti sifatida samaradorlikni oshirish innovatsion boshqaruv texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular ta'lim sifatini oshirish, xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda asosiy omil hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan raqamli transformatsiya siyosati shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion boshqaruv metodlarini keng joriy etish kelajakdagi ta'lim taraqqiyotining poydevoridir.

Maqola natijalari ta'lim menejmentida samaradorlikni oshirish uchun innovatsion boshqaruv texnologiyalari zarurligini ko'rsatadi. Tizimli yondashuv asosida raqamli transformatsiya, liderlik va sifat nazoratini uyg'unlashtirish orqali ta'lim tizimida natijadorlikka erishish mumkin. Amaliy takliflar O'zbekiston ta'lim tizimini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son; 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son) <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Islamova D.D., Madrahimov B.S. "Ta'lim menejmentida samarali boshqaruv tamoyillari: zamonaviy yondashuvlar va amaliyot", Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar. 2025-yil, 3-son.
3. Fayol H. General and Industrial Management. – London: Pitman Publishing, 1949.
4. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 1968.
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y., 06/20/6079/1349-son; <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
6. PISA 2022 Results (Volume I and II) – Country Notes: Uzbekistan. https://www.oecd.org/en/publications/pisa-2022-results-volume-i-and-ii-country-notes_ed6fbcc5-en/uzbekistan_2bb94bf1-en.html
7. A.Ismailov, F.Kholmirezayev, K.Karimberdiyev. Uzbekistan PIRLS – 2021 Encyclopedia. <https://pirls2021.org/wp-content/uploads/2022/11/Uzbekistan.pdf>
8. https://www.iea.nl/studies/iea/timss/timss2023?utm_source=chatgpt.com
9. OECD TALIS. (2020). Teachers and School Leaders as Valued Professionals. OECD Publishing.
10. UNICEF Uzbekistan. (2023). Eduten platformasini tatbiq etish tajribasi. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/stories/raqamli-texnologiyalar-yordamida-oqitish-ozbekiston-talim-tizimida-innovatsion-yondashuv>

MAKTABDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Usmonova Aziza To'liq qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17294511>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-onalarning farzand tarbiyasidagi o'rni, ularni ijtimoiy munosabatlarga va mustaqil hayotga tayyorlashdagi roli hamda maktab bilan samarali hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bolalarda XXI asr ko'nikmalarini – ya'ni tanqidiy fikrlash, ijtimoiy-kommunikativ salohiyat va raqamli savodxonlikni shakllantirishda oila-maktab hamkorligining o'rni alohida ta'kidlangan. Maqolada ota-onalar uchun trening-seminarlar, resurs markazlari va raqamli platformalarni joriy etish bo'yicha amaliy takliflar keltirilgan. Shu bilan birga, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish mexanizmlari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ota-ona, tarbiya, maktab bilan hamkorlik, mustaqil hayot, XXI asr ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, faol ota-onalar, kurslar, resurs markazi, raqamli platforma.

**Повышение эффективности сотрудничества
со родителями в подготовке учеников
к самостоятельной жизни в школе**

Усмонова Азиза Тулкиновна,
старший преподаватель национального
института педагогического
мастерства имени А.Авлоний
azizausmonova2019@gmail.com
tel: +998909971685

Аннотация: В статье рассматривается роль родителей в воспитании детей, их участие

в подготовке к социальной жизни и самостоятельности, а также значение эффективного сотрудничества с образовательными учреждениями. Особое внимание уделено формированию у обучающихся навыков XXI века – критического мышления, цифровой грамотности, коммуникативной компетенции и умения решать проблемы. Представлены практические предложения по организации курсов для родителей, созданию ресурсных центров, родительских клубов и внедрению цифровых платформ. Также анализируются механизмы повышения педагогической культуры родителей.

Ключевые слова: родители, воспитание, сотрудничество со школой, самостоятельная жизнь, навыки XXI века, критическое мышление, цифровая грамотность, активные родители, курсы, ресурсный центр, цифровая платформа.

**Improving the effectiveness of cooperation with
parents in preparing students for independent
life at school**

Aziza Tulkin kizi Usmonova,
Senior Lecturer at the A.Avloniy national institute
of pedagogical excellence
azizausmonova2019@gmail.com
tel: +998909971685

Abstract: This article studies the role of parents in child development, particularly their contribu-

tion to preparing children for social integration, independent life, and collaboration with schools. It highlights the development of schoolchildren's XXIst-century skills – such as critical thinking, problem-solving, digital literacy, and social communication skills – through effective school-family partnerships. The article proposes practical recommendations including training courses for parents,

the creation of resource centers and parent clubs, and the implementation of digital platforms. Mechanisms for improving parents' pedagogical culture are also discussed.

Keywords: parents, upbringing, school collaboration, independent life, XXIst-century skills, critical thinking, digital literacy, active parents, training courses, resource center, digital platform.

Bugungi kunda ijtimoiy hayot sur'atlari rivojlanib borishi, ta'limning xalqaro standartlarga muvofiq rivojlanishini talab qilmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, mamlakat mehnat bozorida sifatli kadrlarni tayyorlashga qaratilgan talablarga ta'sir ko'rsatmoqda. O'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni kelajakdagi kadrlar sifatida shakllantirish uchun, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati oshib bormoqda. Mazkur sharoitda, umumta'lim maktablarining faoliyati, o'quvchilarning ijodiy va mustahkam bilimlarini, shunga muvofiq ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. XXI asr ko'nikmalarining shakllanishi, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va innovatsion yondashuvlar, shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kabi ijobiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bular, o'quvchilarni zamonaviy mehnat bozorining talablariga muvofiq tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tatbiq etilayotgan islohotlar va ta'lim strategiyalari, shunday holatda, maktablarning faoliyatida muhim o'zgarishlarni amalga oshirishda xizmat qilishi kerak. "Kelgusi avlod kelajakda hatto, bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarda ishlaydi. O'quvchilarga nimani o'ylashi emas, qanday o'ylashni o'rgatishga ularni tayyorlash ta'limning oldida turgan bugungi kun talabidir. Shu sababli, ta'lim tizimlari o'quvchilarning o'z bilimlarini qo'llash zarurligiga tobora ko'proq e'tibor qaratayotgani sababli, XXI asr ko'nikmalariga e'tibor kuchaydi. Ta'limda o'quvchi-

larda XXI asr ko'nikmalarining shakllanganligi nisbatan kam baholangan. Hozirda biz buni baholashga qay darajada erishayapmiz? Javobi oddiy: biz bunga deyarli erishmayapmiz. XXI asr ko'nikmalari nima? Ular XXI asrda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim hayotiy ko'nikmalardir. XXI asr ko'nikmalari bilimlar iqtisodiyotida eng ko'plab talab qilinadigan ko'nikmalardir"[1].



1-rasm. XXI asr ko'nikmalari.

Muallif tomonidan mazkur ko'nikmalar quyidagi 1-rasm orqali izohlanar ekan, bunda maktab o'quvchilari egallashlari va baholanishlari mumkin bo'lgan darajadagi ko'nikalar kiri-

tilgan. Maktabdan keyingi professional ta'lim bosqichlarida mazkur ko'nikmalarni rivojlantirish talablari qo'yila boradi. Shuningdek, muallif mazkur ko'nikmalarni baholash tartibi (formativ, summativ baholash), uning Blum taksonomiyasi asosida baholashga qaratilgan topshiriqlar orqali amalga oshirilish taklifini kiritgan.

O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda, maktabning o'ziga xos hamkorlik faoliyati muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalari, mahalliy va xalqaro ta'lim tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan turli anjuman va loyihalarda maktab o'quvchilarining ishtirokini rag'batlantirish, umumta'lim maktablarining tashabbusini kuchaytirish zarur. Bugungi kunda, maktab o'quvchilarining maktabdan tashqari faolligini namoyon etadigan bunday jarayonlar, ko'p hollarda, umumta'lim maktablari tomonidan emas, balki pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu esa, jamoatchilikning umumta'lim maktablariga bo'lgan talablarini sustlashishiga olib keladi. Umumta'lim maktablarining jamoatchilik talablariga mos ishlashining samaradorligi, ularning jamoatchilik oldidagi mavqeyi va imijini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, maktab rahbari va pedagoglarning imijini shakllantirish, ta'lim xizmatlari ko'rsatish samaradorligi, raqobatdoshligi va ta'lim muhiti sog'lomligiga erishishda muhim mexanizmlarni tashkil etadi. Bular, umumta'lim maktabi imijini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, maktabning ijtimoiy hayotdagi maqomini mustahkamlashda xizmat qiladi[4].

XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish – bu faqat bilim egallash emas, balki shaxsning mustaqil hayotga tayyorgarligi, ijtimoiy adaptatsiyasi va doimiy o'zgarib boruvchi muhitda samarali faoliyat yuritish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ushbu jarayon har bir insonning shaxsiy o'sishi, ijtimoiy faolligi va mas'uliyat

hissini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ayni vaqtda maktab tizimi nafaqat o'quvchilarga akademik bilim berishni, balki ularni hayotda mustaqil ravishda harakat qilishga tayyorlashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Maktabda bu jarayonda maktab bilan birga ota-onalarning roli va ular bilan hamkorlikni tashkil qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ota-onalar farzandlarining mustaqil hayotga tayyorgarligida asosiy tarbiyachilar bo'lib, ularning vazifalarini aniq belgilash va maktab bilan samarali hamkorlik o'rnatish lozim.

“Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki, uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona – san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir”[3]. O'quvchilar oiladagi tarbiyaviy muhit orqali mustaqil hayotga ham tayyorlana boradilar, ularda ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish ko'nikmalari, shaxs sifatida shakllanish jarayonida oila muhitining ta'siri kuchli. “Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy jihatlar singdiriladi”[3].

Ba'zi mutaxassislarining fikricha, “ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy usuli bu jazolash hisoblanadi, biroq, onda-sonda rag'batlantirish usulidan foydalanilganda ham ma'naviy rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, munosabatdagi bunday noxushlik ota-ona ko'zlagan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirmaydi va past samara beradi. Buning oqibati natijasida, oila a'zolari o'rtasida mehr-oqibat hissi nisbatan pasayadi. Ushbu paydo bo'lgan salbiy nuqtayi nazar ota-onaga qo'llaniladi.

Farzandlarda ota-onaga yaqinlik mehr-muhabbat hissi bir oz bo'lsada kamayadi, keyinchalik bu tuyg'u uzoqlashishi "begonalashish" tomoniga o'sib o'tadi. Oilaviy turmush munosabati ichida "liberal" (murosasozlik) toifasi ham ko'zga tashlanib turadi. Oila davrasida ota yoki onaning murosasoz, ko'ngilchan bo'lishlik tashqi ko'rinishidan iliq ruhiy iqlimini o'ziga aks ettirganday bo'lib tuyulsa-da, aslida unda hamjihatlik, o'zaro tushunish yetishmaydi. Murosazlik tasirida farzandlar fe'l-atvorida munofiqlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Ota-ona obro'si oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi. Buyuk allomalarning mulohazalariga ko'ra, tarbiyada hazilga yo'l qo'yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adovat, tirnoq orasidan kir izlashga aylanib ketmasligi kerak. Shu boisdan, muayyan pedagogik-ruhiyat qonun-qoidalariga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya tamoyillari, usullari, vositalari bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi. Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning iltimos, maslahat, ishontirishi, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, rag'batlantirish singari qator usullaridan o'z o'rnida va me'yorida foydalanilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bulmaydi"[2].

Umumta'lim maktablarida bugun maktab sinf rahbarlari va ota-onalar o'rtasida o'zaro hamkorlik ishlari turli ko'rinishda aks etmoqda. Namunali hamkorlikda olib borilayotgan ishlar bilan birga o'zaro kelishmovchilik holatlari ham tez-tez uchrab turibdi. Bunday holatlarning aksari o'quvchilarning xulq-atvoridagi nomunosib hatti-harakatlar, ta'lim olishga nisbatan mas'uliyatsizlik, o'quv darslaridan qoniqmaslik kabi bo'lsa, ota-onalarning bunday holatda javobgarligi ikki baravar yuqori bo'lishi lozim. Ammo, ba'zi ota-onalar tomonidan sinf rahbar-

larga nisbatan qo'pol va nohaq munosabatlar bo'layotgani keng jamoatchilikning muhokama mavzusiga aylanmoqda. Bu holatda o'qituvchining sha'ni muhokama markazida bo'layotgani achinarli holat. Bu mamlakatimiz ta'lim tizimining ertangi mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, maktab sinf rahbarlari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik mezonlarini ifodalovchi, zaruriy qonuniy chora-tadbirlar kiritilgan dastur tuzilishi lozim. To'g'ri, aslida ham huquqiy va axloqiy munosabatlar ifodalanagan hujjatlar mavjud, ammo, bir tizimga keltirilgan, aniq huquqiy munosabatlar ifodalangan dastur mavjud emas. Bunday dasturining yaratilishi va huquqiy hujjat sifatida tasdiqlanishi sinf rahbar va o'quvchi, ota-ona hamkorligidagi barcha faoliyat ko'rinishlarini o'zida ifoda etishi, o'qituvchining turli noqulay vaziyatlarga tushishidan, vazifasi doirasida muammolarga uchraganda o'z-o'zini himoya qila olishiga asos bo'la oladi[5]. "Maktab muhiti ham ota-onalar ta'sirida shakllanadi. Yevropa va Osiyoning ko'p davlatlarida o'qituvchilarni sinf rahbari etib tayinlashadi. Ular sinfni yildan-yilga boshqarib boradilar. Sinf rahbarlari o'z sinfidagi o'quvchilar uchun javobgarlikni ma'lum darajada bo'yinlariga oladilar va nafaqat o'quvchilar, balki ularning ota-onalari bilan ham yaqindan aloqa o'rnatadilar. Osiyoda ham, Yevropada ham o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi axborot almashinish, odatda, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Bu nafaqat ota-onalarni jalb qilishning yaxshi usuli, balki, ehtimol, undan ham muhimi, ota-onalar uchun o'qituvchilarga to'g'ri keladigan shaklda hisob berish usulidir"[6].

Shunday ekan, ota-onalarning farzandini mustaqil hayotga tayyorlashda bir qator muhim vazifalari bor, bunda ota-onalarning mas'ullikni his qilishlari muhim va dolzarb masaladir. Ayni davrda ota-onalarning farzandga yondashuvlari murakkab kechayotganini ko'p kuza-tish mumkin. Bunda atrof-dagi axborot ko'lami

ta'sirlarning kengligi, mafkuraviy immunitetga ega bo'lishning zarurati yuqoriligi seziladi. Axborot asrida ota-onalarning bolani shaxs sifatida shakllantirishdagi mas'ulligi yanada ortadi. Ta'sir psixologiyasiga ega bo'lish talabi ortadi. Ota-onalarning tarbiyaviy faoliyati bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishida muhim pedagogik va psixo-sotsiologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonda turli xil yondashuvlar – xususan, gumanistik, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar qo'llaniladi. Mazkur yondashuvlar bolalarda ijtimoiy kompetensiyalar, faol fuqarolik pozitsiyasi, mustaqil fikrlash va shaxsiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida ayrim tarbiyaviy yondashuvlarga misollar keltirib o'tamiz.

Mas'uliyatni tarbiyalash. O'quvchilarda mas'uliyatni tarbiyalash hayotiy ko'nikmalar ichida muhim o'rin tutadi. Farzandning o'z harakatlari uchun mas'uliyatni anglashini shakllantirish – mustaqillikning muhim asosidir. Ota-onalar bolalarini qarorlar qabul qilishda, xatolardan saboq olishda qo'llab-quvvatlashi kerak. Bu ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi;

Mehnat va intizomni o'rgatish. Kundalik vazifalarni bajarishda intizom va samarali vaqt boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim. Ota-onalar farzandlarini uy ishlariga jalb qilish, ularga vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarishga o'rgatishlari lozim;

Muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish. “Ota-ona farzandlarining savoliga javob berishi uchun ozgina vaqt ajratsa ham bolalarning ehtiyojini qondiradi, ham ularga kerakli e'tiborni ko'rsatgan bo'ladi. Siz bugun e'tiborsiz qoldigan bola, ertaga ulg'ayib siz kabi bee'tibor va loqayd inson bo'ladi”[7]. Muloqot va muammolarni hal qilish

ko'nikmalarini shakllantirishda oilada ochiq va samimiy muloqot muhitini yaratish zarur. Ota-onalar farzandlariga o'z his-tuyg'ulari va fikrlarini erkin ifodalashga, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga o'rgatishi kerak;

Hayotga zarur ko'nikmalarni shakllantirish. Mustaqil hayotda kerakli bo'lgan ko'nikmalar – pulni boshqarish, uy ishlarini bajarish, qo'l mehnati va boshqalarni ota-onalar farzandlariga bosqichma-bosqich o'rgatishi lozim;

Ruhiy qo'llab-quvvatlash. O'quvchilar mustaqillikka intilayotganda turli qiyinchiliklarga duch keladi. Bu paytda ota-onalar ruhiy yordam ko'rsatishlari, farzandlarning o'z-o'zini qadrlashini oshirishlari kerak.

Maktab va ota-onalar o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo amaliyotda ayrim ota-onalarning maktab hayotidan uzoqlashishi, pedagogik jamoa bilan tizimli va maqsadli aloqalar o'rnatishda qiyinchiliklar mavjudligi kuzatilmoqda. Bu kabi muammolar natijasida ota-onalarning bola tarbiyasi faoliyatida muayyan murakkabliklar vujudga keladi va bu holat farzandning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishda bir necha qadamlar belgilanadi:

ma'lumot almashishda faol bo'lish, maktab va ota-onalar o'rtasida muntazam uchrashuvlar, seminarlar va treninglar tashkil etish zarur. Bu uchrashuvlar orqali o'quvchilarning rivojlanish jarayonlari va ularning mustaqillik darajasi haqida axborot almashiladi;

maslahatlar va psixologik yordam ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish, ota-onalar uchun pedagoglar va psixologlar bilan maslahatlashish imkoniyatini yaratish muhim. Bu ularga farzand tarbiyasidagi muammolarni hal qilishda yordam beradi;

hayotga tayyorgarlik kurslari tashkil qilish, maktabda hayotga zarur ko'nikmalarni

o'rgatuvchi maxsus kurslar tashkil etish va ota-onalarni ham bu jarayonga jalb qilish lozim. Bu ota-onalarga farzandlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

hamkorlikda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, maktab va oila birgalikda ijtimoiy, madaniy va amaliyotga yo'naltirilgan loyihalar uyushtirishlari mumkin. Masalan, ko'ngillilik ishlari, madaniy tadbirlar yoki oilaviy uy ishlari.

ma'naviy va axloqiy tarbiya yo'nalishida ishlash, oila va maktabda bir xil ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashni muvofiq-lashtirish orqali o'quvchilarning mustahkam ma'naviy asosga ega bo'lishi ta'minlanadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy fikrlar va kuza-tuvlar asosida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. "Mustaqil hayotga tayyorgarlik" mav-zusida ota-onalar uchun kurslar tashkil etish. Ota-onalarning pedagogik va psixologik bilimlarini mustahkamlash, shuningdek, far-zandlarini mustaqil hayotga tayyorlash bo'y-cha zarur amaliy ko'nikmalarni berish maq-sadida maxsus kurslar tashkil etish zarur. Bu kurslar:

- onlayn va oflayn formatlarda o'tkazilishi mumkin;
- turli yoshdagi bolalar uchun tarbiya usul-lari bilan tanishtiradi;
- qiyin vaziyatlarda bolalarga qanday yor-dam berish kerakligini o'rgatadi;
- ta'lim muassasalari, mahalliy hokimiyat organlari va nodavlat, notijorat tashkilotlar hamkorligida tashkil etilishi mumkin.

2. Maktab qoshida ota-onalar uchun resurs-maslahat markazi tashkil etish. Maktab-larda ota-onalar uchun maxsus metodik-resurs markazlarini tashkil etish:

- tarbiya, ta'lim, bola psixologiyasiga oid adabiyotlar bilan ta'minlash;
- psixolog, ijtimoiy pedagog va maslahat-chilar xizmatini yo'lga qo'yish;

- maqsadli maslahat va seminarlar o'tka-zishni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Bunday markazlar ota-onalarning farzand tarbiyasidagi o'rnini mustahkamlaydi, ularni bilim bilan qurollantiradi va pedagoglar bilan hamkorlikni kuchaytiradi.

3. "Ota-onalar ko'pincha farzandlari uchun namuna bo'lib xizmat qilishlari kerak. Bola bundan saboq olishi uchun halollik, bag'ri-kenglik, tadbirkorlik, har bir ishni puxta qilish, boshqalarga hurmat kabi ijobiy qadriyatlarni namoyish etish juda muhim"[8]. Ota-onalar-ning o'z farzandlariga namuna bo'lishlarida maktabda "Faol ota-onalar klubi"ni tashkil etish. Maktab va ota-onalar o'rtasidagi aloqa-larni mustahkamlash, ota-onalarni maktab hayotiga jalb qilish maqsadida "Faol ota-ona-lar klubi"ni tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu klub:

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suh-batlari va seminarlar o'tkazadi;
- ota-onalar tajriba almashadigan maydon sifatida xizmat qiladi;
- bolalar uchun namunaviy faoliyat ko'r-satadigan ota-onalarni rag'batlantiradi.

4. Uy sharoitida farzandning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish. Far-zandning rivojlanishida oila muhitining o'rni beqiyos. Shunga ko'ra, uydagi tarbiya jarayo-nida bolaning:

- uy ishlarida qatnashishi;
- mustaqil qaror qabul qilishi;
- moliyaviy savodxonlik, vaqtni boshqarish, shaxsiy gigiyena kabi hayotiy ko'nikmalarni o'rganishiga imkon yaratish;
- uy vazifalariga ongli yondashuvni shakl-lantirish bo'yicha ota-onalarga tavsiyalar tayyorlash kerak.

5. Tarbiya va psixologiya bo'yicha mun-tazam seminar va treninglar o'tkazish. Ota-onalarning farzand psixologiyasi, yosh davr xususiyatlari, stress holatlarini yengish usullari,

jinoyatchilikning oldini olish va axloqiy tarbiya kabi mavzularda bilim olishi uchun muntazam ravishda:

- pedagog va psixologlar ishtirokida ochiq darslar, amaliy mashg'ulotlar tashkil etish;
- ijtimoiy tarmoqlarda video-ma'ruzalar, webinarlar uyushtirish;
- turli uslubiy qo'llanmalar tarqatish;

Bu kabi tadbirlar ota-onalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

6. Ota-ona va maktab o'rtasidagi aloqalarni raqamlashtirish – onlayn platformalar va mobil ilovalar yaratish. Bugungi raqamli davrda maktab va ota-onalar o'rtasida samarali aloqalarni ta'minlash maqsadida:

- maktabning rasmiy veb-sayti orqali individual kundalik, xabarlar, uy vazifalari va maslahatlar uzatish;

• maxsus mobil ilovalar orqali ota-onalarga farzandining ta'lim jarayoni haqida ma'lumot taqdim etish;

- savol-javob, maslahat va fikr almashish funksiyalari orqali muloqotni kuchaytirish mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabda o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda ota-onalarning roli juda katta. Ular farzandlarining shaxsiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida asosiy tarbiyachi hisoblanadi. Shu sababli, maktab va oila o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Ota-onalarning vazifalarini aniqlash va ular bilan muntazam muloqot qilish orqali o'quvchilarning mustaqillik darajasini oshirish mumkin. Bu esa, kelajakda ularning hayotda muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev F.R. O'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarining shakllanganligini baholash//Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2023. №1.
2. Ishanova M. Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – Andijon: 2019. 91-94-b.
3. Shoumarov G'.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A.va b. Oila psixologiyasi. – Toshkent: "Sharq" 2011. 52-53-b.
4. Usmonova A. Umumta'lim maktablari imijini shakllantirishda o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash masalalari//Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio'. – Nekis: 2024. 87-b.
5. Usmonova A. Umumta'lim maktablari imijini shakllantirish mexanizmlarini shakllantirish mexanizmlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Ulug' so'z", 2023. 98-99-b.
6. Andreas Shlyayxer. "Jahon miqyosidagi ta'lim: XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak?" – Toshkent: "Zamin Nashr", 2022. 122-b.
7. TilavovA. "Bolalarga gap uqtirish san'ati". – Toshkent: "Sano-standard", 2018. 9-b.
8. Mahkamova Z., Quronov M., Abduramanov X. – Toshkent: "Mahalla va oila", 2024. 37-b.

SIFATLI TA'LIM ASOSIDA O'QUVCHILAR MOTIVATSIYASINI OSHIRISH USULLARI VA BUNDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH METODIKASINING O'RNI

Fazliddin Shamsiddin o'g'li Abduraimov,

*Termiz shahridagi Prezident maktabi,
tarix va tarbiya fanlari o'qituvchisi, magistr
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17231492>*

Annotatsiya: Maqolada muallif tomonidan umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishga to'siq bo'layotgan ba'zi muammolar keltirilgan bo'lib, ularning yechimlari bo'yicha takliflar hamda umumiy o'rta ta'limda sifatli bilim olishni tashkil etishda o'quvchilarning shaxsiy motivatsiyasini oshirish, shu bilan birga, dars jarayoni va metodikasini o'zgartirish bo'yicha mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, maqoladan pedagogda o'z fanini mukammal bilishidan tashqari bola psixologiyasi bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi, bolaning psixologik holati, qiziqishlari va qobiliyatidan kelib chiqib yondashish maqsadga muvofiqligi, baholash tizimidagi o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati, darsliklar yuzasidan mashq daftarlarini yaratish, bir sinfda me'yoridan ortiq o'quvchilar sonining ta'lim-tarbiya sifatiga ta'siri, kitob o'qish texnikasini rivojlantirib borish va nutq madaniyatini shakllantirish kabi muhim jarayonlar borasida fikr, mulohaza va takliflar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: psixologik bilim, trening, rag'batlantirish, baholash, hayotiy zaruriyat, ko'nikma, monitoring, zamonaviy axborot, notiqlik, kasb tanlash.

Методы повышения мотивации учащихся к получению качественного образования в школе и роль методологии в учебном процессе

Фазлиддин Шамсиддин угли Абдураимов,
учитель истории, магистр,
Президентская школа в г. Термез,

Аннотация: В статье автором приведены некоторые проблемы, препятствующие повышению качества общего среднего образования, а также предложены пути их решения. Выдвинуты соображения относительно организации качественного обучения в общем среднем образовании, в частности, о повышении личной мотивации учащихся, параллельно с изменением процесса и методики преподавания.

Кроме того, в статье затронуты важные аспекты, касающиеся необходимости наличия у педагога, помимо прекрасного знания своего предмета, навыков работы с детской психологией. Подчеркивается целесообразность подхода, исходящего из психологического состояния, интересов и способностей ребенка. Также рассматриваются такие вопросы, как изменения в системе оценивания, значение информационных технологий в образовании, создание рабочих тетрадей к учебникам, влияние превышения нормы наполняемости класса на качество обучения и воспитания, постоянное развитие техники чтения и формирование культуры речи. По всем этим процессам представлены мысли, соображения и предложения.

Ключевые слова: психологические знания, тренинг, мотивация, оценивание, жизненная необходимость, навык, мониторинг, современная информация, ораторское искусство, выбор профессии.

Methods of increasing students' motivation through quality education and the role of teaching methodology in organizing the learning process

Fazliddin Shamsiddin o'g'li Abduraimov,
history teacher, master's degree holder
Presidential school in Termez

Abstract: *In the article, the author highlights certain problems that hinder the improvement of the quality of general secondary education and presents proposals for their solutions. The paper also puts forward reflections on enhancing students' personal motivation in acquiring quality knowledge, as well as on the necessity of reforming the teaching*

process and methodology. Furthermore, the article emphasizes that, in addition to mastering their subject, teachers should possess skills in working with child psychology. It argues for the importance of taking into account students' psychological state, interests, and abilities; discusses changes in the assessment system; the significance of information technologies in education; the development of exercise books to accompany textbooks; the impact of overcrowded classrooms on the quality of education; the need to foster reading techniques; and the cultivation of speech culture.

Keywords: *psychological knowledge, training, motivation, assessment, vital necessity, skill, monitoring, modern information, oratory, career choice.*

Maktablarda sifatli bilim olishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish juda muhim, chunki bu jarayon o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga bevosita ta'sir qiladi. Motivatsiya o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantiradi va ularni o'qish jarayonida yanada faol va mas'uliyatli qilishga yordam beradi. Quyidagi sabablarga ko'ra, motivatsiyani oshirish ahamiyatlidir:

- Bilimga va o'quv materiallariga bo'lgan qiziqishni oshirishda yordam beradi. O'quvchi qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan darslar orqali o'qishga mehr qo'yadi. Qiziqish paydo bo'lgach, o'qish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

- O'quvchilarni o'z maqsadlariga erishishga undaydi. Motivatsiya o'quvchilarga o'z maqsadlariga erishish uchun ishlashga turtki beradi.

- O'qish jarayonining davomiyligini ta'minlaydi. Motivatsiya bo'lmasa, o'quvchilar o'qishdan tezda zerikishi mumkin. U o'quvchini qat'iyat bilan bilim olishga undaydi.

- Jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantiradi. Motivatsiyaga ega o'quvchilar ko'pincha o'z jamoalari bilan hamkorlikda ishlashga tayyor bo'ladilar. Bu, o'z navbatida, jamoaviy

ish va hamkorlik ruhini rivojlantiradi, bu esa ijtimoiy ko'nikmalarni oshiradi va o'quvchilarning o'zaro yordam ko'rsatishlarini kuchaytiradi.

- Qiyinchiliklarga qarshi turishga yordam beradi. O'quvchilar o'quv jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarga, imtihonlar va muvaffaqiyatsizliklarga motivatsiyalangan holda qarshi turishlari osonroq bo'ladi. Motivatsiya o'quvchini turli bosimlardan chiqish uchun kerakli quvvat bilan ta'minlaydi[1].

Demak, motivatsiya o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini faollashtiradi va ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarga muvaffaqiyatli natijalarga erishishda yordam beradi.

Dars jarayonida o'quvchilarning psixologik holati, qiziqishlari va qobiliyatini inobatga olish

Dars jarayonida o'quvchilar bilan ishlashda ularning psixologik holati, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olmaslik bir qancha salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Jumladan: ularni darslarga nisbatan qiziqish va motivatsiyani yo'qotishiga olib keladi. Ular darslarni

zerikarli yoki foydasiz deb hisoblashi mumkin. Har bir o'quvchining o'ziga xos psixologik holati, xususiyatlari va o'rganish usuli bor. Agar bu omillar inobatga olinmasa, o'quvchilar o'zlarini e'tiborsiz qolgan his qilishlari, ular o'rtasidagi qobiliyatlar farqi dars jarayonida muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Agar har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos dars usullari qo'llanmasa, ba'zi o'quvchilar orqada qolishi, ba'zilar esa ortiqcha bosim ostida qolishi mumkin. Psixologik holatni inobatga olmaslik, o'quvchilarda ortiqcha stress, kayfiyat pasayishi yoki hatto o'qishdan chekinish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu ularning umumiy ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi.

Shu boisdan, dars jarayonida o'quvchilarning psixologik holati, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olish ularning o'qish motivatsiyasini oshiradi, ruhiy salomatligini yaxshilaydi va o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlaydi[2].

Takliflarimiz: umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning pedagogik-psixologik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish va buning uchun o'quvchi bilan ishlashning samarali yo'llarini targ'ib etuvchi muntazam treninglar olib borish kerak. Respublikada yagona Pedagogik-psixologik Markaz tashkil etib, ushbu Markazga eng tajribali mahalliy va xorijiy pedagog, psixolog va metodistlarni trener sifatida jalb qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Umumta'lim maktablarida kunlik baholashning majburiyligi, o'quvchilarning xolis monitoringini yuritish, choraklar oralig'ida va yil yakunida rag'batlantirish mexanizmini tashkil etish

Umumta'lim maktablarida kunlik baholashning majburiyligi, o'quvchilar monitoringi xolis yuritilmasligi va choraklar oralig'ida hamda yil

yakunida rag'batlantirish mexanizmining mavjud emasligi bir qancha salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin:

Kunlik baholashning salbiy tomoni: o'quvchi mavzu mohiyatiga emas, balki e'tiborini baho olishga qaratadi. Bu esa mavzuni yaxshi o'zlashtirish imkonini susaytiradi.

O'qish samaradorligining pasayishi: xolis monitoringning yo'qligi o'quvchilarning haqiqiy darajasi va ehtiyojlarini aniqlashda qiyinchiliklarga olib keladi. O'qituvchi o'quvchilarning individual qobiliyatlarini va zaif tomonlarini bilmasdan, umumiy baholar asosida xulosa chiqara oladi. Bu esa ta'lim sifatini pasaytiradi.

Rag'batlantirishning yetishmasligi: chorak yoki yil yakunida rag'batlantirish mexanizmi yo'qligi o'quvchilarga o'z mehnatlari va yutuqlarini qayd etishda, mukofotlashda o'z vaqtida rag'bat berilmasligiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini va jiddiy yondashuvini sustlashishiga olib keladi.

O'qituvchilar uchun qiyinchiliklar: xolis monitoring va kunlik baholash tizimi o'qituvchilarga o'quvchilarni yaxshiroq tushunish, ularning o'zgarishlarini kuzatish va kerakli yordamni ko'rsatish imkonini beradi[3].

Shu sababli, ta'lim tizimida davriy xolis monitoring va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish o'quvchilarning motivatsiyasi, bilim darajasi va ta'lim sifatini yaxshilashga katta yordam beradi.

Takliflarimiz: o'qituvchi sinfga kirar ekan, u, avvalo, o'quvchilarni baholashni emas, balki ularga sifatli ta'lim berishni rejalashtirishi, o'quvchilar esa kitobni baho olish uchun emas, balki hayotiy zarurat uchun o'qishi kerak. Agar biz majburiy kunlik baholashdan voz kechsak, o'qituvchining vaqtini tejagan, darsni to'g'ri tasarruf etishida yordam bergan bo'lamiz. O'quvchilarning baholari sinf jurnalida faqatgina oraliq va yakuniy nazoratlarda aks etishi

maqsadga muvofiq. O'quvchilarning har bir fandan real monitoringini har chorakda yuritishda, inson omilini maksimal darajada qisqartirib, elektron tizimdan foydalanishimiz lozim. Monitoring natijalariga qarab, ularni ma'lum kasb-hunarga yo'naltirishimiz ham mumkin. Xolis natijalardan kelib chiqqan holda, o'quvchilar uchun choraklik va yillik stipendiyalar joriy qilish ham jarayonni sifatli davom etishida yordam beradi.

Shu o'rinda tizimda yaqin yillarda joriy etila boshlangan yangicha baholash jarayonlarini ham e'tirof etish darkor. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi maktablarning baholash tizimi umumta'lim maktablariga ham shiddat bilan kirib bormoqda va bu tizim o'zini oqlashi uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Umumta'lim maktablarining internet va zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalari bilan yetarlicha ta'minlanishi

Umumta'lim maktablarini internet va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan yetarlicha ta'minlash bugun davlat siyosatining muhim qismi hioblanadi va hukumatimiz bu borada katta amaliy ishlarni olib bormoqda. Albatta, zamonaviy axbarot texnologiyalarisiz bugun sifatli ta'lim jarayonini tasavvur qilolmaymiz. Internet va AKT ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Agar bu texnologiyalar yetarli darajada ta'minlanmasa, o'quvchilar yangi bilim va ma'lumotlarga erishishda cheklangan bo'lishadi, bu esa ta'lim sifatini pasaytiradi. Bugungi kunda zamonaviy ish joylari ko'pincha texnologiyalarni chuqur bilishni talab qiladi. Agar o'quvchilar bu texnologiyalar bilan ta'minlanmasa, ular kelajakdagi kasbiy hayotga tayyorlanishda orqada qolishlari mumkin. Internet va AKT orqali o'quvchilar ko'plab onlayn resurslardan, videodarsliklardan, ilmiy

maqolalardan va boshqa o'quv materiallaridan foydalanishlari mumkin. Bularning yetishmasligi o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini cheklaydi[4].

Zamonaviy texnologiyalar o'qituvchilarga ta'limni turli xil usullar bilan o'tkazish, interaktiv mashqlar, testlar va ko'plab boshqa metodlarni qo'llash imkonini beradi. Agar bu texnologiyalar mavjud bo'lmasa, o'qituvchilar eski usullar bilan ishlashga majbur bo'lishadi va bu darslarning samaradorligini kamaytiradi. Internet va AKT yordamida o'quvchilar dunyo bo'ylab ilmiy yangiliklar, ijtimoiy masalalardan xabardor bo'lishadi.

Umuman olganda, internet va AKTning ta'lim tizimida yetarlicha ta'minlanmasligi o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini cheklaydi va zamonaviy ta'lim talablarini amalga oshirish imkonini yo'qqa chiqaradi.

Taklifimiz: hukumatimizning bu boradagi ishlarini yangi bosqichga olib chiqish kerak. Umumta'lim muassasalari uchun vazirlik tasarrufida maktablarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash bo'yicha alohida jamg'armasini tashkil qilish kerak va bu jamg'arma mablag'larining manbasini davlat byudjeti, homiylik mablag'lari va chet el investitsiyalari tashkil etishi lozim.

Umumta'lim maktablarida darsliklarning mavzulashtirilgan amaliy mashg'ulot daftarlarining bo'lishi va ular orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash

Umumta'lim maktablarida ayrim darsliklardan (masalan, tarix, tarbiya va hokazo) maxsus mavzulashtirilgan amaliy mashg'ulot daftarlari mavjud emas. Yodlashga yo'naltirilgan test to'plamlari esa bolaning mantiqiy fikr yuritishi uchun imkoniyat yaratmaydi.

Mavzulashtirilgan amaliy mashg'ulot daftarlarining bo'lishi-bu maktab darsliklari bilan birga o'quvchilarga beriladigan amaliy mashg'ulotlar uchun maxsus daftarlar bo'lib,

ularning har birida dars mavzusiga muvofiq amaliy topshiriqlar, mashqlar yoki loyihalar joylashtirilgan bo'ladi. Bu daftarlar o'quvchilarga nazariy bilimlarni amalda qo'llash va mantiqiy, tanqidiy fikrlashiga sabab bo'ladi.

Mavzulashtirilgan amaliy mashg'ulot daftarlari orqali nazariy bilimlarni mustahkamlash-amaliy mashg'ulot daftarlaridagi topshiriqlar va mashqlar yordamida o'quvchilar nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtiradi, tushunchalarni yaxshiroq o'zlashtiradi va o'rgangan mavzularni hayotiy vaziyatlarga bog'lash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Darslik bilan birga amaliy mashg'ulotlar uchun alohida daftarlar mavjud bo'lsa, ular o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlashga yordam beradi.

Bu kabi mashq daftarlarining yo'qligi o'quvchilarning o'z fikrlarini shakllantirishda va yangi yechimlar topishda cheklanishiga olib keladi. Darslar faqat nazariy bilimlar bilan cheklansa, ta'lim o'quvchilar uchun zerikarli bo'lishi mumkin. Amaliy mashq daftarlari darsni qiziqarli va hayotiy qiladi, natijada o'quvchilar o'rganishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolishadi. Agar mavzulashtirilgan amaliy mashg'ulot daftarlari bo'lmasa, o'qituvchining o'quvchilarga bilimlarni amaliy o'zlashtirish va mustahkamlashlarida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin[5].

Umuman olganda, mavzulashtirilgan amaliy mashg'ulot daftarlari yo'qligi, o'quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo'llay olish imkoniyatlarini cheklaydi va ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Taklifimiz: respublika miqyosida fanlar va sinflar kesimida "Eng yaxshi amaliy mashg'ulot daftari" tanlovini tashkil etish va saralab olingan eng yaxshi ishlarni umumlashtirgan holda yagona amaliy-o'quv majmuasini yaratish. Yaratilgan amaliy mashg'ulot daftarlarini joylarga yetkazishda va nashr etishda davlat va nodavlat matbuot tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim.

Sinflarda o'quvchilar sonining haddan tashqari ko'pligi

O'quvchilar sonining me'yordan ko'p bo'lishi natijasida o'qituvchi har bir o'quvchiga alohida e'tibor qaratish va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu o'quvchilarni o'z darajasida o'qitilishi va qo'llab-quvvatlanishini qiyinlashtiradi. O'quvchi sonining me'yordan ortiq bo'lishi darsni to'g'ri va samarali boshqarishda qiyinchiliklar tug'diradi. O'quvchilar darsga to'liq diqqat qaratmasliklari yoki bir-biriga e'tibor bermasliklari mumkin, bu esa ta'lim sifatini kamaytiradi. Sinfda ko'plab o'quvchilar bo'lsa, tartibni saqlash va darsni tizimli ravishda o'tkazish qiyinlashadi. Ba'zi o'quvchilar diqqatini yo'qotib, boshqa o'quvchilarni ham chalg'itishi mumkin. Haddan tashqari ko'p o'quvchi mavjud bo'lsa, ba'zi o'quvchilar o'zlarini e'tiborsiz va qiyinchiliklarga duchor bo'lgan his qilishlari mumkin. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarni o'zlariga bo'lgan ishonchini yo'qotishga va o'qishga bo'lgan qiziqishni susaytirishga olib kelishi mumkin. O'qituvchilar uchun ko'p o'quvchi bilan ishlash jismoniy va ruhiy jihatdan og'ir bo'lishi mumkin. Bu esa o'qituvchilarning charchashiga va darslarni samarali o'tkazishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Umuman olganda, sinflarda o'quvchilar sonining haddan tashqari ko'pligi o'qitish jarayonini murakkablashtiradi, dars samaradorligini pasaytiradi va o'quvchilarning ta'lim olishdagi imkoniyatlarini cheklaydi.

Taklifimiz: har bir sinfnin 20 nafar o'quvchidan ortmasligini ta'minlash va buning uchun maktab hududida qo'shimcha o'quv binolarini qurish kerak deb hisoblaymiz.

Kitob o'qish texnikasi va savodxonligining muntazam nazorat qilinishi

Kitob o'qish texnikasi va savodxonlik bo'laning har bir fan mohiyatini chuqur tushunish hamda tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanti-

radi. Pedagogik tajribamiz davomida shunga guvoh bo'lmog'damizki, ko'plab o'quvchilarda matnni to'g'ri o'qiy olmaslik, imlolarining farqiga bormaslik va jumlar tuzilishini anglamaslik holatlari kuzatilmoqda. Buning natijasida, o'quvchilar matnli mashq va topshiriqlarni tushunishda qiynalmoqdalar.

Kitob o'qish texnikasi va savodxonligini nazorat qilish o'quvchilarga o'qish malakalarini tahlil qilish va rivojlantirish imkonini beradi. Agar bu jarayon muntazam nazorat qilinmasa, o'quvchilar o'qish qobiliyatlarini vaqtida yaxshilay olmasligi mumkin. O'qish texnikasining past darajasi va savodxonlikning zaifligi o'quvchilarga matnni to'liq va to'g'ri tushunishda qiyinchiliklar keltiradi. Bu esa, o'qigan materiallarni amaliyotda qo'llay olishga to'sqinlik qiladi.

Agar o'quvchilarning savodxonligi muntazam ravishda tekshirilmasa, ular o'zlarining o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishda orqada qolishlari mumkin. Bu esa kelajakda akademik va professional muvaffaqiyatlarga ta'sir qiladi. Nazorat qilishning yo'qligi o'quvchilarning o'zgarishlari va o'qishdagi muvaffaqiyatlarini to'g'ri baholashni qiyinlashtiradi. Kitob o'qish texnikasining zaifligi o'quvchilarning o'qish tezligini, to'g'ri talaffuz va ifodalash qobiliyatlarini kamaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, o'qish samaradorligini pasaytiradi[6].

Shu sababli, kitob o'qish texnikasi va savodxonlikni muntazam nazorat qilish o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirishda, ularning bilim darajasini oshirishda va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Taklifimiz: tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktablarda past o'zlashtiruvchi aksariyat o'quvchilarda kitob o'qish texnikasi va savodxonligi yetarli darajada emas. Matnni to'g'ri va ifodali o'qiy olmagan o'quvchi uni ko'r-ko'rona yodlaydi, ammo mohiyatiga tushunmaydi. Buni

bartaraf etish uchun har chorak yakunida kitob o'qish texnikasi va savodxonligi haftaligini joriy etish lozim.

Dars jarayoni markazida o'quvchining faol bo'lishi va notiqlik madaniyatining shakllanishi

Dars jarayoni markazida o'quvchining faol bo'lishi deganda o'quvchilarning dars davomida faqat passiv tinglovchi yoki ko'rsatmalarni bajaruvchi bo'lib qolmasdan, balki darsning asosiy subyekti sifatida faol qatnashishi tushuniladi.

Bu holatda o'quvchi:

- Bilim olish jarayonida faollik ko'rsatadi;
- Mustaqil fikrlaydi, savollar beradi, muammolarni hal qiladi;
- O'z fikrini bayon etadi, boshqalar bilan muloqotda bo'ladi;
- Amaliy mashg'ulotlarda, guruh yoki juftliklarda faol ishtirok etadi;
- O'z o'rganish jarayonini boshqaradi va unga mas'uliyat bilan yondashadi.

Shunday qilib, o'quvchi darsning faqat obyekti emas, balki subyekti hisoblanadi.

Bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxshilaydi.

Keling, dars jarayoni markazida o'quvchining faol bo'lishi borasida aniq misollar keltiramiz.

1. Mustaqil fikrlash va savol berish.

Misol: O'qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi, keyin o'quvchilarga savol beradi:

“Siz bu mavzu haqida qanday fikrdasiz?”,
“Buni hayotda qanday qo'llash mumkin?”

Faol o'quvchi: Bu savollarga o'z fikrini bildiradi, qo'shimcha savollar beradi, mavzuni chuqurroq tushunishga harakat qiladi.

2. Guruh yoki juftlikdagi ishlarda ishtirok etish.

Misol: O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, dars mavzusiga oid muammoni muhokama qiladilar yoki loyiha ustida ishlaydilar.

Faol o'quvchi: O'z fikrini guruhga taqdim etadi, boshqalarni tinglaydi, qaror qabul qilishda faol qatnashadi.

3. O'z o'rganish jarayonini boshqarish.

Misol: O'quvchi o'z o'qish maqsadini belgilaydi, darsdan keyin o'zini baholaydi, qo'shimcha materiallar bilan mustaqil ishlaydi.

Faol o'quvchi: O'zi uchun kerakli savollarni aniqlaydi, bilimlarini mustahkamlaydi, qayerda yordam kerakligini tushunadi.

4. O'z fikrini bayon etish va muhokama qilish.

Misol: Dars oxirida o'quvchilardan mavzu bo'yicha o'z fikrini yozma yoki og'zaki ifoda etish talab qilinadi.

Faol o'quvchi: Matnga oid o'z fikrini aniq va mantiqan bayon etadi, boshqa fikrlarni tinglab, ularga munosabat bildiradi.

Nima uchun bu muhim?

- *Bilim mustahkamlanadi*: Faol qatnashish orqali o'quvchi mavzuni yaxshiroq tushunadi;

- *Tanqidiy fikrlash rivojlantiriladi*: Savol berish va muhokama qilish orqali fikrlash ko'nikmalari oshadi;

- *Motivatsiya oshadi*: O'z fikri eshitilgan o'quvchi o'qishga qiziqishi oshadi;

- *Ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi*: Guruh ishlari va muhokamalar orqali muloqot va hamkorlik qobiliyatlari rivojlanadi.

Demak, o'quvchilarda jamoa bilan ishlash, o'z fikrini mustaqil ravishda ifodalash, bahs-munozaralarda chiniqish ko'nikmalarini shakllantirish sifatli ta'lim-tarbiya muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega.

Kasb-hunarga yo'naltirishda psixologik yondashuv

Har bir darsni o'quvchi tanlagan kasb-hunarga bog'lab tushuntirish, o'quv yili davomida kamida 2 marotaba kasb-hunarga qiziq-tiruvchi mutaxassis va psixologlar tomonidan treninglar tashkillashtirish, hududlardagi mehnat va bandlik munosabatlari bo'limlari

tomonidan bitiruvchi sinf o'quvchilarini ehtiyoj yuqori bo'lgan sohalar bilan tanishtirish, yirik korxona, tashkilot va fabrikalarga ekskursiyalar uyushtirish o'quvchilarda fanlarga nisbatan kuchli qiziqish uyg'otadi[7].

Bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishda psixologik yondashuv yordamida insonning ichki qiziqishlari, qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va iste'dodlari aniqlanadi. Bu esa, unga mos keladigan kasb-hunar tanlashda asos bo'ladi. To'g'ri yo'naltirilgan kadr o'z ishiga qiziqish bildiradi, motivatsiyasi yuqori bo'ladi va o'z kasbida muvaffaqiyatga erishish ehtimoli oshadi. Kasb-hunar tanlashda psixologik yondashuv insonning ruhiy holati, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlariga mos kelishini ta'minlaydi. Bu stress va charchoqlarning oldini oladi. Psixologik yondashuv yordamida shaxs o'zini yaxshiroq tushunadi, o'z imkoniyatlarini baholaydi va shaxsiy rivojlanish uchun yo'l topadi. Psixologik yondashuv kasb-hunar tanlashda jamiyat va bozor talablarini ham inobatga oladi, bu esa, ish topish imkoniyatini oshiradi[8].

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunarga yo'naltirishda psixologik yondashuv shaxsning individual xususiyatlari va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olib, uning samarali va muvaffaqiyatli ish faoliyatini ta'minlashda juda muhimdir.

Maktablarda o'quvchilarning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirish, ta'limning samaradorligini yaxshilashning muhim shartlaridan biridir. O'quvchilarni ta'lim jarayoniga faollik bilan jalb etish va ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, o'qituvchidan nafaqat pedagogik ko'nikmalarni, balki innovatsion yondashuvlarni ham talab qiladi. Shuning uchun, o'quv jarayonida va metodikasida quyidagi o'zgarishlarni amalga oshirish zarur:

- Interaktiv va innovatsion metodlarni qo'llash: zamonaviy ta'lim metodikalaridan, masalan, muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish, interaktiv mashg'ulotlar, sinfdagi guruh ishlari kabi usullardan foydalanish o'quv-

chilarni faollashtiradi va ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- Shaxsiy yondashuv: o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, har birining o'qishga bo'lgan motivatsiyasini tushunish va unga mos yondashuvni ishlab chiqish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

- O'qitishning maqsadga yo'naltirilganligi: o'quvchilarga o'qishning maqsad va ahamiyatini tushuntirib, ular o'quv jarayonining qanday foydali natijalar keltirishini anglashlariga yordam berish kerak. Bu o'quvchilarda o'zini-o'zi boshqarish va o'rganishga bo'lgan mas'uliyatni rivojlantiradi.

- Ta'limdagi hissiy aspektni rivojlantirish: o'quvchilarni o'qishga bo'lgan ijobiy hissiy munosabat bilan jalb qilish, ularni qiziqtirgan va ular uchun muhim bo'lgan materiallar orqali o'qitish motivatsiya yaratishda muhim rol o'ynaydi.

- Tegishli rag'batlantirish tizimini yaratish: O'quvchilarda motivatsiyani oshirishda rag'batlantirish (ham moddiy, ham ma'naviy) tizimi ham muhim o'rin tutadi. Ularning kichik yutuqlarini qadrlash va muvaffaqiyatlarining davomiyligini ta'minlash motivatsiyani mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Artikova M., Xodjayev B., Sattorov Sh. va boshq. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (ijtimoiy-gumanitar fanlar). Metodik qo'llanma. Respublika ta'lim markazi. – Toshkent: 2021. – 148-b.
2. V.S. Monahov "Pedagogika asoslari" – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1981-y.
3. M.M. Zokirov "Umumiy pedagogika" – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993-y.
4. Shapovalova T.V. "Pedagogik kommunikatsiya va motivatsiya".
5. Thomas J.W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. Autodesk Foundation.
6. S.S. Akhmedov "Ta'lim psixologiyasi" – Toshkent: Sharq, 2005-y.
7. www.ziynet.uz.
8. www.edu.uz.

TEKNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUV METODIKASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI

Nasrullayeva Fatima Azatovna,

*A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Ijtimoiy va amaliy fanlar metodikasi kafedrası dotsenti,
v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17085068>

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuv metodikasidan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil etilgan. Integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning fanlararo tafakkurini rivojlantirish, kasbiy yo'naltirilganlikni shakllantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada integrativ metodikaning ta'lim samaradorligiga ta'siri, amaliyotda qo'llashda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar yoritilgan. Texnologiya fanining STEAM tamoyillari asosida boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirilgan holda o'qitilishi orqali zamonaviy ta'lim mazmunini boyitish masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya fani, integrativ yondashuv, fanlararo bog'liqlik, zamonaviy ta'lim, STEAM, kompetensiya, loyiha asosida ta'lim, muhandislik tafakkuri, kasbiy yo'naltirish, metodika.

**Преимущества и актуальность
использования интегративного подхода
в обучении предмету “технология”:
теоретические и практические аспекты**

Насруллаева Фатима Азатовна,
и.о.доцента Национальный института педагогического мастерства имени А. Авлони, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

Аннотация: в данной статье проанализированы теоретические основы и практические возможности использования интегративного подхода в преподавании предмета “Технология”. Интегративный подход рассматривается как важный методический инструмент в развитии междисциплинарного мышления учащихся, формировании профессиональной направленности, а также умений решать проблемные ситуации. В статье освещено влияние интегративной методики на эффективность обучения, обозначены существующие проблемы в её применении на практике и предложены пути их решения. Особое внимание уделено вопросам обогащения содержания современного образования посредством преподавания технологии в увязке с другими предметами на основе принципов STEAM.

Ключевые слова: технология, интегративный подход, междисциплинарные связи, современное образование, STEAM, компетенция, обучение на основе проектов, инженерное мышление, профессиональная ориентация, методика.

**Theoretical and practical significance of using
an integrative approach in teaching technology**

Nasrullayeva Fatima Azatovna,
interim associate professor of National institute of pedagogical excellence named after A.Avloni, doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD)

Abstract: *this article analyzes the theoretical foundations and practical applications of using an integrative approach in teaching Technology. The integrative approach is recognized as an important methodological tool for fostering interdisciplinary thinking, career orientation, and problem-solving skills of students. The article highlights the impact of this methodology on educational effectiveness, discusses challenges faced during the practical im-*

plementation, and offers recommendations for overcoming these problems. Special emphasis is placed on enriching modern educational content through the integration of Technology with other disciplines based on STEAM principles.

Keywords: *technology, integrative approach, interdisciplinary connections, modern education, STEAM, competence, project-based learning, engineering thinking, career orientation, technique.*

Bugungi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot va raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimidan kutilayotgan asosiy natijalardan biri – yosh avlodni hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, kreativ fikrlaydigan, kasbiy va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashdir. Xususan, umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan texnologiya fani ushbu maqsadlarga erishishda muhim o'rin tutadi. Chunki mazkur fan o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, muhandislik va texnologik tafakkurni shakllantirish, kasbiy yo'naltirishni erta boshlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Texnologiya fanining boshqa tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlar bilan uzviy aloqasi uni integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qitishni taqozo etadi. Integrativ yondashuv metodikasi hozirgi zamon pedagogikasining ilg'or yo'nalishlaridan biri bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini yaxlit tizimga keltirish, fanlararo aloqadorlikni ochib berish, ko'p funksiyali kompetensiyalarni shakllantirish orqali ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Texnologiya fanini matematika, fizika, biologiya, informatika, ekologiya kabi boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'qitish orqali o'quvchilar muayyan konsepsiyalarni chuqurroq anglaydi, bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rganadi. Afsuski, amaliyotda texnologiya fanini o'qitishda integratsiyalashgan o'qitish yondashuvlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi, o'quv

dasturlarining bir-biri bilan uzviyligini ta'minlashdagi muammolar, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasida farqlar mavjudligi ushbu yo'nalishda tizimli yondashuvni taqozo etmoqda. Shu sababli, texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuv metodikasining nazariy asoslarini chuqur tadqiq etish, amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni pedagogik amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuv metodikasi bilan foydalanishning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati va zamonaviy ta'lim talablaridagi o'zgarishlarni tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda integrativ yondashuv muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini o'qitishda bu yondashuvdan foydalanish nafaqat o'quvchilarning amaliy bilimlarini mustahkamlashga, balki ularning fanning boshqa yo'nalishlari bilan o'zaro bog'liqligini tushunishiga xizmat qiladi. Integratsiya pedagogikada fanlararo bog'liqlikni ta'minlash, nazariy bilimlarni real hayotga tatbiq etish va ko'p funksiyali kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda [1].

Texnologiya fani mohiyatan amaliy yo'nalishga ega bo'lganligi bois, uni o'qitishda nazariya bilan amaliyotni uyg'unlashtirish zarurati alohida dolzarb hisoblanadi. Integrativ yondashuv metodikasi ta'lim jarayonini

kontekstual asosda qurish, o'quvchilarni real muammolarni hal qilishga yo'naltirish, kasbiy yo'naltirishni erta bosqichda amalga oshirishga imkon yaratadi. Integratsiyalashgan darslar orqali texnologiya fani matematika, fizika, biologiya, kimyo kabi tabiiy fanlar bilan, shuningdek, axborot texnologiyalari, iqtisod va ekologiya bilan uzviy bog'lanadi. Bunday integratsiya esa o'quvchilar tafakkurini ko'p qirrali rivojlantirish, ularni kreativ va innovatsion fikrlashga undash imkonini beradi [2].

Bugungi globallashuv davrida texnologik savodxonlik har bir fuqaroning asosiy kompetensiyasiga aylanishi lozim. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "XXI asr kompetensiyalari" modelida ham texnologik tafakkur, muammoli vaziyatni tahlil qilish va amaliy yechim topish ko'nikmalari asosiy element sifatida belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, texnologiya fanini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirib o'qitish, ayniqsa, o'quvchilarning loyihalash, konstruksiyalash, muhandislik fikrlashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Integrativ metodika asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar bilimlarni izchil tizimlashtiradi, o'zaro bog'liq hodisalarni chuqurroq anglaydi va mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadi[3].

Amaliy jihatdan qaralganda, integrativ yondashuv asosidagi texnologiya darslari turli loyihaviy faoliyatlar orqali o'quvchilarda mustaqillik, jamoada ishlash, mas'uliyat va natijaga yo'naltirilganlik fazilatlarini shakllantiradi. Misol uchun, "Smart uy" loyihasini ishlab chiqish orqali o'quvchilar elektr zanjirlarini loyihalash, energiya samaradorligini tahlil qilish, dasturlash asoslari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa, birgina loyiha orqali ular fizika, informatika va texnologiya fanlarida olgan bilimlarini birlashtirib, real hayotga tatbiq etadi. Bunday yondashuv bugungi mehnat bozorining talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qila-

di. Integratsiyalashgan metodika asosida o'qitish o'quv jarayonining motivatsion jihatlarini kuchaytiradi. O'quvchilarni an'anaviy dars shakllaridan farqli ravishda muammo asosida o'qitish, loyiha asosida o'rganish yoki tadqiqot asosida yondashish orqali faollashtirish mumkin. Ushbu yondashuvlar esa, o'z navbatida, texnologiya fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi va fanlararo fikrlashni shakllantiradi.

Nazariy jihatdan qaralganda, integrativ yondashuv V.A.Slastyonin, V.V.Krayevskiy, I.F.Isayev, N.B.Istomina kabi pedagogika nazariyotchilari tomonidan asoslab berilgan bo'lib, ularning fikricha, ta'limdagi integratsiya o'quvchilarning bilimlarini tizimlashtirish va ularni dunyoni yaxlit idrok etishga yo'naltirishga xizmat qiladi. Kognitiv psixologiyada ham bilimlar orasidagi aloqadorlikni anglash ongning faoliyatini kuchaytirishi, mustahkam xotira shakllanishiga yordam berishi ta'kidlangan.

Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuv metodikasidan foydalanish ta'limning zamonaviy talablariga to'liq javob beradi. Bu metodika o'quvchilarda kasbiy yo'naltirilganlikni, amaliy ko'nikmalarni, fanlararo tafakkurni va kreativ fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish, zamonaviy integratsiyalashgan o'quv modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo'lib qolmoqda [4].

Texnologiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitishda pedagogning roli va tayyorgarlik darajasi hal qiluvchi omillardan biridir. O'qituvchi nafaqat o'z fanidan, balki integratsiya qilinadigan boshqa yo'nalishlar – fizika, matematika, biologiya, axborot texnologiyalari, ekologiya va iqtisodiy bilimlardan ham yetarli darajada xabardor bo'lishi zarur. Pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish


tizimida fanlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodik modullar, treninglar va amaliy mashg'ulotlarni joriy etish dolzarb hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadi-ki, texnologiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitishda qator uslubiy muammolar mavjud: o'quv dasturlarining bir-biriga uyg'unlashtirilmaganligi, fanning o'quv-metodik ta'minotida integrativ yondashuvga asoslangan dars ishlanmalarining yetishmasligi, fanlararo loyihaviy faoliyatni baholash mezonlarining noaniqligi kabilar bunday yondashuvning keng joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, aksariyat o'quv muassasalarida texnologik jihozlar, zamonaviy uskunalar, robototexnika va mechatronika kabi yo'nalishlar uchun zarur moddiy-texnika bazaning yetarli emasligi

ham integratsiyalashgan ta'limga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[5]. Bu muammolarning yechimi sifatida:

Birinchidan, texnologiya fanining amaldagi o'quv dasturini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish, unda STEAM tamoyillari asosida integratsiyalashgan mazmunni shakllantirish muhimdir.

Ikkinchidan, maktablar va kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'zaro hamkorligiga asoslangan, real ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni o'rgatishga yo'naltirilgan o'quv loyihalarini ishlab chiqish zarur.

Uchinchidan, o'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar va fanlararo integratsiya metodikalariga tayyorlash maqsadida oliy pedagogik ta'lim muassasalarining o'quv rejalari va



1-rasm. An'anaviy yondashuv va integrativ yondashuvning farqlari

fan dasturlarini innovatsion mazmunda boyitish lozim.

Integrativ yondashuv, shuningdek, milliy qadriyatlar va xalq hunarmandchiligi unsurlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda madaniy-estetik qarashlarni shakllantirishda ham muhim vosita bo'la oladi. Masalan, an'anaviy kashtachilik, yog'och o'ymakorligi yoki kulolchilik elementlarini 3D modellash, CAD dasturlarida loyihalash, raqamli printerlardan foydalanish holda qayta tiklash orqali o'quvchilar o'z milliy merosini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'un holda angelaydi. Bu esa o'z navbatida, texnologiya fanining madaniy-tarbiyaviy funksiyasini kengaytiradi. 1-rasmda an'anaviy yondashuv va integrativ yondashuvning farqlari tahlil qilingan.

An'anaviy yondashuvda ta'lim ko'proq nazariy bilim berishga qaratilgan bo'lib, o'quvchi passiv rolni bajaradi. Integrativ yondashuv esa zamonaviy ta'lim tamoyillariga mos holda, o'quvchini markazga qo'yadi va uni faol fikrlash, tahlil qilish, real muammolarni hal etishga jalb etadi. Bu farqlar ayniqsa, texnologiya fanida juda yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki texnologiya – o'z mohiyatiga ko'ra, amaliyotga yo'naltirilgan fan bo'lib, integratsiya imkoniyatlari kengdir.

Integrativ yondashuvning metodologik asosi

Integrativ yondashuv – bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini fanlararo bog'liqlik asosida, yaxlit va uzviy tizimda shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Uning metodologik asosi quyidagi nazariy konsepsiyalarga tayangan:

1. *Konstruktivizm nazariyasi* – bu nazariyaga ko'ra, bilim o'quvchi tomonidan faol ravishda quriladi, tayyor shaklda berilmaydi. Integratsiyalashgan o'qitish orqali o'quvchilar mustaqil fikrlaydi, turli fanlar o'rtasidagi

bog'liqlikni o'zi angelaydi va real hayotiy muammolar yechimiga yo'naltiriladi.

2. Fanlararo integratsiya prinsipi – ushbu yondashuv fanlar o'rtasidagi mazmuniy va funksional bog'liqlikni ochib berishga asoslanadi. Maqsad – o'quvchilar bilimini sun'iy ravishda bo'lib emas, balki yaxlit ko'rinishda shakllantirish.

3. *STEAM yondashuvi* – integrativ ta'lim metodikasi zamonaviy STEAM konsepsiyalariga tayanadi. Bu yondashuv texnologiya fanini boshqa tabiiy va gumanitar fanlar bilan uyg'unlashtirib, o'quvchida muhandislik tafakkuri, kreativ yondashuv va loyihaviy fikrlashni rivojlantiradi.

4. *Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim* – integrativ yondashuv bilimdan ko'ra ko'nikma va malakani ustuvor qiladi. Bu metodika o'quvchini mustaqil fikrlaydigan, jamoada ishlay oladigan, hayotiy vaziyatlarga moslasha oladigan shaxs sifatida shakllantirishni ko'zlaydi.

5. *Amaliy yo'naltirilganlik va kontekstual o'qitish* – metodologik jihatdan, integrativ yondashuv o'quv materialini real hayotiy kontekstda o'rgatishni taqozo qiladi. Bu esa o'quvchini faqat bilim emas, balki faoliyatga tayyorlaydi.

Integrativ yondashuvning metodologik asosi – fanlararo bog'liqlik, konstruktiv yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta'lim va real hayotga yo'naltirilganlikdir. Bu yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy talablari bilan to'liq mos keladi va texnologiya fanini o'qitishda ayniqsa samarali hisoblanadi.

Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuv metodikasidan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim pedagogik strategiyalaridan biri hisoblanadi. Integratsiyalashgan yondashuv, bir tomondan, o'quvchilar bilimining tizimlilik va funksionalligini ta'minlasa, boshqa tomondan, ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi, kasbiy yo'naltirilganlikni shakllantiradi va fanlararo tafakkurni

rivojlantiradi. Bunday yondashuv texnologiya fanining nafaqat mustaqil, balki boshqa tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlar bilan uzviy aloqada o'qitilishini ta'minlaydi, bu esa o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Olib borilgan nazariy tahlillar va mavjud amaliy holatlar shuni ko'rsatadiki, texnologiya fanini integrativ asosda o'qitish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- O'quvchilarda kompleks fikrlash va muammoli vaziyatlarni yechish ko'nikmalari shakllanadi;
- Fanlararo bog'liqlik asosida o'rganilgan bilimlar mustahkam va hayotga yaqin bo'ladi;
- Kasbga yo'naltirish, mehnatga layoqatlilik, jamoada ishlash, loyiha asosida faoliyat yuritish ko'nikmalari rivojlanadi;
- Ta'limning mazmuni modernizatsiyalashadi, o'quv jarayoni esa qiziqarli va interaktiv tus oladi.

Biroq, bu yondashuvni amaliyotga samarali joriy etish uchun bir qator shart-sharoitlarni ta'minlash zarur: o'quv dasturlarini integratsiyalashgan mazmunda qayta ishlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, zarur

moddiy-texnik baza bilan ta'minlash va fanlararo loyihaviy faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish shular jumlasidandir. Texnologiya fanini integrativ metodika asosida o'qitish bugungi ta'lim islohotlari kontekstida nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan talab etilayotgan yo'nalish bo'lib, ushbu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish hamda tajribalarni umumlashtirish zamonaviy ta'lim taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib qoladi. Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuv metodikasidan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda, shuningdek, o'quvchilarning kasbiy yo'naltirilganligini mustahkamlashda kuchli vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yondashuv pedagogik amaliyotda nafaqat ta'limning mazmuniy boyishini, balki o'quvchilarning fikrlash madaniyati, axborotni qayta ishlash ko'nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati va ijtimoiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini ham oshiradi. Shunday ekan, texnologiya fanining mazmuni, o'qitish metodikasi va baholash tizimlarini integratsiya asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Baratov F.S., Abdullayeva B.S. Integrativ yondashuv va ta'lim jarayonida fanlararo bog'likni qo'llashning pedagogik asoslari. Educational Research in Universal Sciences 2(11 SPECIAL), 443-447. 2023. erus.uz
2. Milara I.S., Orduna M.C. Possibilities and challenges of STEAM pedagogies. 2024.
3. Raxmatullayeva G.V. Fanlararo integratsiya modellari va ularning ta'limdagi roli. Konferensiya materiallari: 2025. Zenodo. DOI: 10.5281/zenodo.15848725 zenodo.org
4. Xolmuratova G.A. Tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy integratsiya usullardan foydalanish. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 2024, 30(2), 115-117.
5. Mirzamaxmudova N.T. Fanlararo integratsiya asosida loyihalash metodi va uni takomillashtirish uslubiyati. FIJESH, 12(1). farspublishers.org
6. Egamqulova I.S. Bolalarda kreativlikni shakllantirishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati. Educational Research in Universal Sciences. 2023, 2(8). 81-83. erus.uz

EPIK ASARLARNI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Yusuffjonova Nazokat Nig'madjon qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17183777>

Annotatsiya: Maqolada epik asarlarni o'qitishda sun'iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanishning tizimli metodikasi taklif etiladi. Taklif etilayotgan yondashuv loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) tamoyillariga tayangan holda to'rtta bosqichni qamrab oladi: tayyorgarlik, badiiy matn bilan tanishish, asar tahliliga kirishish va baholash. Mazkur o'qitish usuli epik matnni chuqur idrok etish, dalillash, integratsiya asosida jamoaviy o'rganish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: epik asar, sun'iy intellekt, adabiy ta'lim, loyihaga asoslangan ta'lim (PBL), adaptiv baholash, kreativ fikrlash, metodik platforma.

**Методика использования инструментов
искусственного интеллекта в обучении
эпическим произведениям**

Юсуфжанова Назокат Нигмаджоновна,
докторант (DSc) Ташкентского
государственного университета узбекского
языка и литературы имени Алишера Навои

Аннотация: В статье предлагается систематическая методика применения инструментов искусственного интеллекта (ИИ) при обучении эпическим произведениям. Предлагаемый подход, опирающийся на принципы обучения, основанного на проектной деятельности (PBL), охватывает четыре этапа: подготовка, знакомство с художественным текстом,

переход к анализу произведения и оценивание. Данный способ обучения ориентирован на глубокое понимание эпического текста, аргументацию, коллективное обучение на основе интеграции и развитие творческого мышления.

Ключевые слова: эпическое произведение, искусственный интеллект, литературное образование, обучение на основе проектов (PBL), адаптивное оценивание, креативное мышление, методическая платформа.

**Methods for integrating artificial intelligence
tools in teaching epic literature**

Yusuffjonova Nazokat Nigmadjon qizi,
Doctoral student (DSc), Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature
named after Alisher Navoi

Abstract: This article presents a systematic approach to integrating artificial intelligence (AI) tools in teaching epic literature. The proposed method follows stages based on the principles of Project Based Learning (PBL): preparation, introduction of the literary text, textual analysis, and assessment. This teaching technique aims to enhance deep comprehension of epic texts, promote evidence-based argumentation, facilitate collaborative learning, and foster creative thinking.

Keywords: epic literature, artificial intelligence, literary education, Project Based Learning (PBL), adaptive assessment, creative thinking, methodological platform.

Loyiha asosida o'qitish (Project Based Learning – PBL) metodikasi o'quvchilar bilimini hayotiy vaziyatlarda qo'llashga, mustaqil izlanishga va ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan yondashuvdir. Bu metod an'anaviy faktlarni yod olishdan ko'ra, bilimlarni qo'llash va o'zlashtirishga urg'u beradi. Loyihaviy o'qitish dastlab amerikalik pedagog William Heard Kilpatrick tomonidan XX asr boshlarida ilgari surilgan bo'lib, bu yondashuv "Markazda – o'quvchi!" tamoyilini ilgari suradi [4]. Ya'ni PBL jarayonida o'quvchilar muammoli vazifalarni jamoada bajarib, yangi bilim va ko'nikmalarni tajriba orqali egallaydilar. Bunday hamkorlikdagi ijodiy faoliyat o'quvchilarda yangi narsalarni o'rganishga ijobiy munosabat uyg'otib, ularning tadqiqotchilik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Buck Institute for Education tadqiqotlari¹ PBL (Loyihaga asoslangan ta'lim)ni faqat mavzuni o'zlashtirish vositasi sifatida emas, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladigan strategiya sifatida tushuntiradi: *"Loyihaga asoslangan ta'lim – bu sinfda o'quvchilarni hayotiy muammolar va vazifalarni mustaqil izlanish orqali o'rganishga jalb etadigan dinamik o'qitish usuli bo'lib, bunda ular chuqur bilimga ega bo'ladilar. PBLning eng muhim yutug'i o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchining oshishi va o'qishga ijobiy munosabatning kuchayishidir"*[3].

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) yondashuvini epik asarlarni o'qitishda qo'llash o'quvchilarning asar mazmunini chuqur o'zlashtirishiga va voqealarni tanqidiy mushohada qilishiga zamin yaratadi. Bu jarayonda konstruktivizm nazariyasi nuqtayi nazaridan o'quvchilar epik asarlar mazmunini o'zlari "kashf etib", loyiha davomida mustaqil xulosa

va umumlashmalar chiqarishadi. Bu esa, ular-da tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Xususan, umumta'lim maktablarining 5-sinf "Adabiyot" darsligiga kiritilgan "Uch og'a-ini botirlar" ertagi, 6-sinfda o'qish uchun tavsiya qilingan Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasi, 7-sinfda berilgan Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasi kabi nasriy asarlar bilan tanishgandan so'ng "Asardan sahnagacha" deb nomlangan loyiha ishi berilishi mumkin. Kichik guruhlariga loyihani variativ tarzda bajarishlariga imkon berish maqsadga muvofiq, shunda o'quvchilar qiziqishiga qarab topshiriqni tanlaydilar. Xususan, "Mini spektakl yaratish" (asar motivlari asosida kichik sahna ko'rinishi tayyorlash), "Grafik roman (komiks) yaratish" (asar syujeti va qahramonlarini zamonaviy komiks tarzida tasvirlash), "Tarixiy blog yaratish" (asar voqealari bo'lib o'tgan davr va joylarni, syujetni blog formatida qayta hikoya qilish) kabi loyiha ishlari o'quvchilarni bir asar tahliliga turli tomonlarda yondashuv asosida kirishish imkonini beradi va taqdimot jarayonida bir-birlarining ishlarini qiziqish bilan tinglaydilar.


Epik asarlar bilan ishlashda raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt generatorlari asardagi voqealar rivoji, obrazlar tizimi, kompozitsiya va badiiy tasvir vositalarini qisqa muddatda aniqlab, izchil tahlil qiladi. ChatGPT, Claude, AI kabi til modellari badiiy matndagi asosiy muammo va ziddiyatlarni ajratib ko'rsatadi. Bu o'quvchilar uchun asarni yaxlit anglash va voqealarni tushunish jarayonini yengillashtiradi. LanguageTool va Grammarly epik asarning til xususiyatlarini tahlil qilishga, badiiy vositalarning matndagi vazifasini aniqlashga yordam beradi. Perplexity AI qahramonlar xarakteri va ular orasidagi munosabatlarni o'rganish, IBM Watson NLU yoki MonkeyLearn dasturlari hissiyot tahlili (sentiment analysis) orqali qahramonlardagi kayfiyat foizlarini ko'rish mumkin. Olingan natijalar guruhlariga

¹ Buck Institute for Education (BIE) hozirgi nomi PBLWorks – bu xalqaro miqyosda tan olingan, faqatgina Loyihaga asoslangan ta'lim (Project Based Learning, PBL) metodikasini rivojlantirishga ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot va metodik markazdir. – URL: <https://www.pblworks.org/research>

loyiha topshirig'ini to'g'ri yo'nalishda amalga oshirishlariga asos bo'ladi.

O'quvchilar tadqiqot va tahlildan olgan bilimlariga tayangan holda ijodiy mahsulot yaratishga kirishadi. Agar loyiha "Komiks yaratish" bo'lsa, maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan, asar syujetini bosqichma-bosqich tasvirlash asosida vizual hikoya qilish imkoniyatini

metlar mavjud. Bu o'quvchilarga chizish yoki grafik dizayn bo'yicha maxsus ko'nikmalarga ega bo'lmasdan ham sifatli komiks yaratish imkonini beradi. Shuningdek, personajlarning harakatlari, yuz ifodalarini o'zgartirish, kiyim-kechak va muhit elementlarini asar davri yoki joyiga moslash mumkinligi asar kontekstini to'g'ri aks ettirishga yordam beradi.



1-rasm. StoryboardThat platformasi interfeysi

beruvchi **StoryboardThat** platformasi niho-yatda samarali (1-rasm). Platformada o'quvchilar asar syujet chizig'idagi har bir asosiy voqealarni kadr sifatida joylashtirib, komiks yoki hikoya sahifasini yaratadilar. Bu esa mazmunni qayta ishlash va asosiy g'oyani ajratib olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL)dagi muhim jihat hamkorlikdir. StoryboardThat platformasida ishlashda guruhning har bir a'zosi uchun aniq vazifalarni belgilash mumkin: biri syujet sahnalarini tanlaydi, boshqasi dialoglarni yozadi, yana biri visual dizayn bilan shug'ullanadi. Bu jarayon o'quvchilarni nafaqat tahlilga, balki rejalashtirish, o'zaro muloqot va mas'uliyatni bo'lishishga o'rgatadi.

Platforma juda sodda interfeysga ega bo'lib, unda tayyor shablonlar, fon va pred-

Mazkur platformada yaratilgan komikslar onlayn saqlanadi va ulardan PDF yoki bosma holatda ham foydalanish mumkin. Bu o'quvchilar ishini sinf oldida, maktab tadbirlarida namoyish qilish uchun qulay bo'lib, ijodiy mehnatining natijasini vizual shaklda ko'rish qoniqish va zavq hissini beradi.

Loyiha mahsulotini namoyish etish – PBL-ning muhim bosqichi [2]. Barcha guruhlar o'z ishlarini himoya qilish jarayonida auditoriya savollariga javob berishadi. Bu esa ularning asar bo'yicha tushunchalarini yanada mustahkamlaydi va tanqidiy yondashuvni shakllantiradi. Loyiha tugagach, guruhlar o'z faoliyatlarini tahlil qilishadi: jamoaviy ish qanday kechdi, hamma teng qatnashdimi, maqsadga erishildimi, nimalar yaxshi chiqmadi, agar qaytadan boshlashsa nimalarni boshqacha qilish-

gan bo'lar edi va hokazo. Taqdimot yakunida o'qituvchi har bir loyiha bo'yicha to'xtalib, takomillashtirish mumkin bo'lgan tomonlarini aytib o'tadi. Shuningdek, o'quvchilar tayyorlagan ijodiy ishlardan maktabda ko'rgazma tashkil qilish yoki komikslar, blog postlari devoriy gazeta shaklida ilinishi ham mumkin.

da ijodiy tafakkur va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiyot fani o'quvchini matn ustida ishlash, badiiy tahlil qilish, voqealar ketma-ketligini tushunish va obrazlarni talqin qilishga o'rgatsa, IT sohasi shu bilimlarni amaliy mahsulotga aylantirish imkoniyatini beradi (1-jadval).

1-jadval

“Asar voqealari asosida komiks yaratish” loyiha ishini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati

№	She'riy to'plam tayyorlashda foydalaniladigan sun'iy intellekt vositalari	Sun'iy intellekt vositalarining imkoniyatlari	Baholash mezonlari	Kutilayotgan natija
1	ChatGPT Claude.AI LanguageTool Grammarly Perplexity AI IBM Watson NLU MonkeyLearn	Murakkab voqealarni tahlil qilib, komiks uchun muhim dramatik nuqtalarni aniqlashga yordam beradi.	Asarning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash, syujet va qahramonlar xarakterlar tavsifini tahlil qila olish; - tanlangan dramatik sahnalar asardagi asosiy g'oya va konfliktlarni to'liq aks ettirishi.	O'quvchilar epik asarlarni o'qishda passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanganliklari bois obrazlar, syujet tafsilotlari va motivni chuqurroq anglab yetadilar.
2	StoryboardThat DALL-E Midjourney	Tayyor shablonlar asosida komiks sahnalari yaratish, fon va personajlarni moslashtirish, matnli bulut va dialoglar qo'shish; - tasvir va fonlarni matn tavsifi asosida yaratish, sahnalarni badiiy boyitish	- Syujetning to'liqligi va sahnalar ketma-ketligining asar voqealariga mosligi; - asarni ijodiy va mantiqiy qayta ifodalash sifati, yangilik elementi va original yondashuv; - raqamli vositalar orqali loyihani boyitish darajasi – vizual materiallar sifati, AI yordamidan o'rinli foydalanganlik va texnik sayqallanganlik.	- Asar syujetini to'liq tushunish va voqealar ketma-ketligini aniq aks ettirish malakasi rivojlanadi. - mavjud matndan yangi, original va ijodiy yondashuv asosida komiks sahnalarini yaratish ko'nikmasini egallaydilar. - raqamli dizayn va AI vositalaridan o'rinli foydalanish, vizual materiallarni texnik jihatdan sifatli tayyorlash tajribasi oshadi.

PBL mohiyatan integratsiyani talab qiladi. Shu ma'noda Adabiyot va IT yo'nalishlarini birlashtirib loyiha ishi berish o'quv jarayonida juda samarali yondashuv hisoblanadi, chunki bu ikki soha o'quvchilarda bir vaqtning o'zi-

Berilgan topshiriq asosida o'quvchilar epik yoki lirik asarni o'rganib, undan qisqa sahna ssenariylarini yaratadi, keyin ularni StoryboardThat yoki DALL-E kabi vositalarda komiks yoki illyustratsiyaga aylantiradi, Boomy yoki

Beethoven orqali fon musiqasi qo'shadi, yakunda esa FlippingBook yoki Kotobee Author yordamida interaktiv elektron kitob shaklida taqdim etadi.

Mazkur sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish fantastik asarlarni o'rganishga oid loyiha ishlarini tashkil etishda ham samarali. Sababi bu janr bolalarning tasavvurini kengaytirish, kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Amerikalik pedagog Carl Anderson izlanishlari shuni ko'rsatadiki, bolalar fantastik asarlar o'qiganida yoki yozganida o'z hayotiy muammolarini ramziy shaklda hal etishga intilishadi, shu tariqa ijod terapiyasi effekti yuzaga keladi. U o'zining "Teaching Fantasy Writing" asarida buni quyidagicha tushuntiradi: *"Fantaziya yozish orqali o'quvchilar "parakosm" – ya'ni tasavvuriy dunyo yarata-dilar, bu jarayon ularni o'zining ichki dunyosi bilan ishlashga, hissiyotlarini tashqariga chiqarishiga va shaxsiy muammolarni ramziy tarzda ifodalashga yo'naltiradi"* [1]. PBL metodikasi esa bu jarayonni amaliy loyiha ishiga aylantirib, o'quvchini asarni qayta ishlash, yangi shaklda yaratish va taqdim etish jarayoniga jalb qiladi. Deylik, 6-sinf o'quvchilari Hojiakbar Shayxovning "Birinchii sinov" yoxud Rey Bredberining "Bir kunlik yoz" ilmiy-fantastik hikoyalari bilan tanishib chiqishdi. O'qituvchi imiy-fantastik hikoyalarga xos adabiy-nazariy tushunchalar haqida ma'lumot berganidan so'ng kichik guruhlariga bo'lingan jamoalarga original fantastik hikoya yozish va uni ko'rgazmali shaklda taqdim etish uchun bir nechta mavzularni loyiha ishi sifatida tavsiya qilishi mumkin: "Kelajak maktabi", "Sehrli ashyo topib olgan bola", "Beshinchi fasl", "Suv ostidagi shahar". Quyidagi sun'iy intellekt va raqamli vositalar fantastik loyihani yaratishda qimmatli yordamchi bo'lishi mumkin: fantastik hikoyalar syujeti uchun g'oyalar berishda EduAide.ai dasturi, matn tavsifidan 3D obyektlarni yaratishda Spline AI (2-rasm).




Agar loyiha so'ngida yaratilgan hikoyalar kitobcha ko'rinishida bo'lsa, "Fantastik kitoblar yarmarkasi"ni tashkil etish, agar maket ko'rinishida bo'lsa, "Kreativ maketlar galereyasi" ko'rgazmasini o'tkazish mumkin. Bunday taqdimot bolalarda g'urur va mas'uliyat hissini uyg'otadi, chunki ular o'z mualliflik mahsulotini namoyish etishadi.

Ko'rinadiki, fantastik asarlarni PBL asosida o'qitish o'quvchilarning bilimni kengaytirish, tasavvurini boyitish, kreativ fikrlash va texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali yo'lidir. Bu yondashuv o'quvchining darsda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi va o'z ishinig yakuniy mahsulini ko'rish o'rganishga, yaratishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi.

Adabiyot va IT integratsiyasidagi loyiha ishi o'quvchilar uchun nafaqat o'quv topshirig'i, balki real hayotga mos, zamonaviy ijodiy tajriba bo'lib xizmat qiladi. Ular asarni chuqur tushunish bilan birga, uni raqamli vositalar yordamida keng auditoriyaga taqdim etish imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa ularning kelajakdagi ijodiy va texnologik yutuqlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlarda loyihaviy yondashuv o'quvchini ta'lim subyekti darajasiga olib chiqishi, passiv tinglovchidan faol ishtirokchi, kashfiyotchi va ijodkorga aylanishi ta'kidlanadi [5]. PBL jarayonida adabiyot nazariyasining asosiy tushunchalari, janr xususiyatlari, badiiy tasvir vositalari, syujet tuzilishi, tahliliga oid ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan bevosita amalda qo'llanilib o'rganiladi, shu bois ular uzoq vaqt yodda qoladi. Lirik janrda she'r yozib ko'rgan, epik asarni sahnalashtirgan, fantastik hikoya yaratgan yoki detektiv jumboqni hal etgan bola endi o'sha janr ruhini chin ma'noda his etadi va keyingi darslarda bu bilim ustiga yangilarini qurishga tayyor bo'ladi.

PBL strategiyasi, ayniqsa, zamonaviy raqamli avlod bo'lmish hozirgi o'quvchilarning



2-rasm. Kaedim AI 3D Model Generator, Meshy.ai va Spline AI platformalari interfeysi

ehtiyoj va qiziqishlariga javob beradi. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalarini darsga integratsiya qilish nazariy bilimlarni singdirishda katta yordam beradi. Natijada, nazariy ma'lumotlar quruq ma'ruza shaklida emas, balki jonli interaktiv faoliyat davomida o'zlashtiriladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, PBL asosida o'qitish metodikasi adabiyot fanini o'quvchilar uchun chin ma'noda hayot maktabiga aylantiradi. Badiiy asarlarni o'rganish

jarayoni faqatgina matnni tahlil qilish bilangina cheklanmay, balki o'quvchilarning o'z tajribasi, hissiyoti va tafakkuri bilan uyg'unlashadi. Bunday yondashuv natijasida adabiyot darslari bolalarga nafaqat bilim beradi, balki shaxsiy rivojlanish, ijodiy tafakkur va kompetentlikni ham shakllantiradi. Bu ilmiy-metodik yondashuv bugungi ta'lim standartlariga – tanqidiy fikrlovchi, jodkor va axborotni tahlil qila oluvchi shaxslarni tarbiyalashga – to'la mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Anderson, C. Teaching Fantasy Writing: Lessons That Inspire Student Engagement and Creativity: Grades K-6. Corwin Literacy: Corwin, 2024. – P. 272.
2. Gateway article: The Science Behind Project-Based Learning and Confidence: A Teacher's Guide // Ahead-App blog. <https://ahead-app.com/blog/confidence/the-science-behind-project-based-learning-and-confidence-a-teacher-s-guide>
3. Kangasharju A., Ilomäki L., Lakkala M., Toom A. Lower secondary students' poetry writing with the AI-based Poetry Machine // Computers and Education: Artificial Intelligence. – 2022. – Vol. 3. – Art. 100048 (7 p.). – URL: <https://doi.org/10.1016/j.caeai.2022.100048>
4. Kilpatrick W.H. The project method// Teachers College Record, 1918. Vol. 19, no. 4. - P. 319-335.
5. Sirisrimangkorn L. The Use of Project-Based Learning Focusing on Drama to Promote Speaking Skills of EFL Learners // Advances in Language and Literary Studies. – 2018. – Vol. 9, No. 6. – P. 14–20. – URL: <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1204717.pdf>
6. Смирнова Е. О., Савина Н. В. Индивидуализация и персонализация обучения в цифровой образовательной среде // Цифровая педагогика. – 2021. – № 1. – С. 45–50. – URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=45763091>
7. Voogt J., Fisser P., Pareja Roblin N., Tondeur J., van Braak J. Technological pedagogical content knowledge – a review of the literature // Journal of Computer Assisted Learning. – 2013. – Vol. 29, No. 2. – P. 109–121. – URL: <https://doi.org/10.1111/j.1365-2729.2012.00487.x>
8. Вендт М. Б. Оценка образовательных технологий: аналитический подход. – М.: Наука, 2018. – 242 с.

TABIY FANLARNI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI

Rashidova Sanobar Zokirovna,

*Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti bosh mutaxassisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17183875>

Annotatsiya: Mazkur maqolada STEAM yondashuvining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati, uning mazmun-mohiyati va pedagogik jarayonga integratsiyalashuvi tahlil qilingan. STEM turlari hamda STEAM yondashuvi asosida o'quvchilarda tanqidiy va kreativ fikrlash, fanlararo bog'lanish, texnik ijodkorlik va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari yoritib berilgan. Maqolada STEAM ta'limining xalqaro tajribalari, loyiha asosida ta'lim, muammoga asoslangan o'qitish kabi usullar orqali o'quvchilarda fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish, ularni real hayotga qo'llash jarayonlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: STEM, STEAM, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, integratsiyalashgan ta'lim, loyiha asosida o'qitish, muammoga asoslangan ta'lim, an'anaviy ta'lim, muhandislik, san'at, hayotiy ko'nikmalar.

**Преимущества обучения на основе
steam-подхода в преподавании
естественных наук**

Рашидова Санобар Зокировна,
главный специалист, Национального
института педагогического мастерства
имени Абдуллы Авлони

Аннотация: В статье анализируется значение STEAM-подхода в современной системе образования, его содержание и интеграция в педагогический процесс. Рассматриваются виды STEM-образования и механизмы разви-

тия критического и творческого мышления, междисциплинарных связей, технического творчества и жизненных навыков учащихся на основе STEAM-подхода. В статье раскрывается международный опыт STEAM-образования, процессы формирования междисциплинарных компетенций у учащихся и их применение в реальной жизни посредством таких методов, как проектное и проблемное обучение.

Ключевые слова: STEM, STEAM, творческое мышление, критическое мышление, интегрированное обучение, проектное обучение, проблемное обучение, традиционное образование, инженерия, искусство, жизненные навыки.

**Advantages of applying steam approach
in teaching natural sciences**

Rashidova Sanobar Zakirovna,
Chief Specialist, of the National Institute
of Pedagogical Excellence named after
Abdulla Avloni

Abstract: This article analyzes the importance of the STEAM approach in the modern education system, exploring its essence, content, and integration into the pedagogical process. It highlights the different types of STEM and the mechanisms for developing critical and creative thinking, interdisciplinary connections, technical creativity and life skills in students through the STEAM approach. The article also studies the international experiences in STEAM education, focusing on the formation of

interdisciplinary competencies in students and their application to real-life situations using methods and techniques such as Project-Based Learning and Problem-Based Learning.

Keywords: *STEM, STEAM, creative thinking, critical thinking, integrated learning, Project-Based Learning, Problem-Based Learning, traditional education, engineering, arts, life skills.*

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lgan raqobatbardosh, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi, o'z yurtini sevuvchi, tashabbuskor hamda mahalliy, milliy, global muammolarga befarq bo'lmagan shaxsni tarbiyalash har bir mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim va tadqiqot muassasalari o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning ijodiy salohiyatini, jismoniy sog'lomligini, ruhiy barqarorligini saqlashga qaratilgan ilg'or texnologiyalarni joriy etmoqda. Bu orqali yoshlar mustaqil hayotga tayyorlanadi, o'z kasbini ongli tanlashga va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishga yo'naltiriladi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish sifati va samaradorligini xalqaro andozalarga mos holda bugungi kun talablar asosida tashkil qilish, ularni boshqarish, pedagog kadrlar kompetentligini oshirish, maktab ta'lim tizimida olib borilayotgan bosh islohotlarning samaradorligini ta'minlovchi omillarni aniqlash va jarayonga tatbiq etish bo'yicha keng ko'lamdagi ishlar va vazifalar belgilangan[1].

Biz yoshlarga ta'lim berishda ularni shunchaki bilim oluvchiga emas, balki ijodkor va izlanuvchi shaxsga aylantirishimiz kerak. Ular olimlar singari kuzatish va tajribalar o'tkazishni, texnologlar kabi muammoga modellar asosida yechim topishni, muhandislar kabi yangi qurilmalar va konstruksiyalar yaratishni, rassomlar kabi estetik did bilan ijod qilishni, matematiklar kabi aniqlik va mantiqiy tahlilni o'rganishlari, bolalar kabi esa zavq bilan o'y-

nab, izlanib o'rganishlari zarur. Chunki hozirgi davrda "qaysi mavzuni o'qitish kerak?" degan savoldan ko'ra "qanday o'qitish kerak?" degan savol ko'proq ahamiyat kasb etmoqda.

XXI asrda yangi texnologiyalar, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik kabi sohalarning rivojlanishi ta'limni tubdan yangilashni talab qilmoqda. Bunday sharoitda fanlararo integratsiya, amaliy mashg'ulotlar va ijodiy faoliyatga asoslangan o'quv jarayoni shaxsni kelajak kasblariga tayyorlashning eng samarali vositasiga aylanmoqda. Ushbu jarayonda fanlararo integratsiya va STEAM yondoshuvi ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim vositasi sifatida kirib kelmoqda.

Statistikaga ko'ra, 2011-yildan buyon STEAM – kasblarga bo'lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimiga katta talabni ko'rsatadi.[6]

STEM nima?

STEAM nima?

STEM – tabiiy fanlar (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), matematika (Mathematics)ning o'zaro integratsiyasi bo'lib, mana shu 4ta fan sohasi STEMning negizi hisoblanadi. STEMga Art, Reading + Writing kabi fan sohalari yoki yo'nalishlarini qo'shish orqali o'zgarishlar kiritilgan.

STEM yondashuvi 1990-yilda amerikalik olim Rita Colwell tomonidan taklif qilingan. 2000-yillardan boshlab yuqori texnologiyali kompaniyalarda texnologiyalardan samarali foydalana oladigan, malakali kadrlar yetishmasligi muammosi sababli u ta'lim tizimiga joriy etildi va bugungi kunda hukumat darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. [2]

STEM yondashuvi Amerikada Massachusetts Texnologiyalar Institutida (MIT) ishlab chiqilgan. Bu mashhur institutning shiori “Mind and hand” – “Aql va qo‘l”dir. Massachusetts Texnologiyalar instituti STEM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba’zi o‘quv yurtlarida STEM ta’lim markazlari yaratadi. Avstraliya, Buyuk Britaniya, Isroil, Kanada, Xitoy, Singapur, AQSH ta’lim tizimida keng qo‘llanilmoqda. Yondashuvning maqsadi ta’lim oluvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni loyihalashtirish asosida o‘qitish orqali tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, matematika va san’at fanlaridan samarali foydalanishga o‘rgatishdir[3].

STEAM – STEMga san’at (Art) qo‘shilishi bilan farqlanadi. STEAM yondashuvi bu tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiyalashgan holda o‘qitish bo‘lib, u o‘quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy va analitik fikrlash, muloqot va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda real muammolarga amaliy yechim topishga yo‘naltiradi.

STREM – o‘qish va yozish orqali dunyo qonunlarini tushunish uchun muhim bo‘lgan ta’lim yondashuvidir. O‘quvchilarda ilmiy-texnik tafakkurni rivojlantirish bilan birga o‘qish va matnni anglash ko‘nikmalarini ham kuchaytirishdir. Chunki nafaqat fan va texnologiyani tushunish, balki o‘qish, tahlil qilish va yozma ifodalash ham XXI asr ko‘nikmalarida muhim o‘rin tutadi. Masalan, fizikadagi yangi qonunni o‘rganishda o‘quvchi faqat tajriba qilmaydi, balki ilmiy maqolani o‘qib, undagi fikrni tahlil qiladi. Matematika masalalarida nafaqat hisoblash, balki masala matnini anglab, yechimni tushunarli tarzda yozib berish ham muhim. Global muammolar (iqlim o‘zgarishi, energiya tanqisligi) bo‘yicha ilmiy maqolalarni o‘qish, tushunish va ularga yechim taklif qilish – STREMning asosiy vazifalaridan biridir. Demak, **STREM** – bu ta’limga o‘qish va sav-

donlikni markaziy ko‘nikma sifatida qo‘shadigan kengaytirilgan model hisoblanadi.

STEM PhBL – STEM fanlarini fenomenga asoslangan holda (fenomen bu hayotiy voqelik asosida o‘rganish) tabiiy yoki ijtimoiy hodisani o‘rganishdan boshlanadi. Masalan: global isish, suv tanqisligi, quyosh energiyas va b.

STEM PBL – muammolarni o‘rganishga asoslangan. Ta’lim jarayoni **muammo yoki topshiriq** asosida boshlanadi. Masalan: robot yasash, ekologik bog‘ yaratish va b.

STEAM yondashuvi o‘quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi muhit, atrofimizdagi olam bilan bevosita bog‘laydi, chunki STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) fanlari bir-biriga chambarchas bog‘langan va ular birgalikda ishlash orqali muammolarni hal qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi. STEAM yondashuvi orqali yoshlar global muammolar – iqlim o‘zgarishi, texnologik o‘zgarishlar, ekologik muammolar, sog‘liqni saqlash kabi masalalarda faol ishtirokchi bo‘lib ulg‘ayadilar.

Tabiiy fanlar (Science) – Tabiiy fanlar inson va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi. Biologiya tirik organizmlar hayoti, kimyoviy moddalar xossalari va ularning o‘zgarishi, fizika energiya va harakat qonuniyatlari, geografiya esa Yer va uning resurslarini chuqur o‘rganadi. Shu orqali o‘quvchilar hayotning kelib chiqishi, inson organizmining ishlash mexanizmlari, tabiatdagi energiya aylanishi, atmosfera va iqlim o‘zgarishlari kabi murakkab jarayonlarni tushunib boradilar. Masalan, Orol dengizining qurishi yoki global isish kabi muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish tabiiy fanlarning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu bilimlar o‘quvchilarni tadqiqot olib borishga, tajriba o‘tkazishga va ilmiy kuzatuvlar orqali yangi kashfiyotlar qilishga undaydi.

Texnologiya (Technology) – Texnologiya bugungi kunda muhim fan sohalaridan biri

hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalari, internet, sun'iy intellekt, biotexnologiya va nanotexnologiya kabi sohalar turmushimizning deyarli barcha sohalarini o'zgartirib yubordi. STEAM yondashuvida texnologiya o'quvchilarga nafaqat tayyor qurilmalardan foydalanishni, balki ularni yaratish va takomillashtirishni ham o'rgatadi. Masalan, qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshiruvchi aqlli sensorlar, sog'liqni saqlashda tibbiy robotlar yoki kundalik hayotda ekologik toza transport vositalarini ishlab chiqish texnologiyaning real ko'rinishidir. Bu jarayon o'quvchilarni zamonaviy innovator va ixtirochi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhandislik (Engineering) – Muhandislik insoniyat taraqqiyotining asosiy poydevorlaridan biridir. Qadimiy suv inshootlaridan tortib, kosmik stansiyalargacha bo'lgan barcha yutuqlar muhandislik tafakkuri natijasidir. O'quvchilar muhandislikni o'rganish orqali oddiy hayotiy muammolardan tortib, global masalalargacha bo'lgan vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, energiya tanqisligini bartaraf etishda quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi, ekologik muammolarni kamaytirishda chiqindilarni qayta ishlash zavodlari, shaharsozlikda ekologik toza transport yo'llarini qurish – bularning barchasi muhandislik yechimlari asosida amalga oshiriladi. Bu fan o'quvchilarga ijodkorlik va amaliy tafakkurni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

San'at (Art) – San'at inson tafakkuri va tuyg'ularini boyitadigan, estetik qarashlarni shakllantiradigan sohadir. STEAM ta'limida san'at o'quvchilarning tasavvuri, ijodiy yondashuvi va dizayn ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, milliy naqshlar, hunarmandchilik, musiqa va teatr orqali o'quvchilar o'zini ifoda etishni o'rganadi. Texnologiya muhandislik bilan qo'shilganda esa san'at mahsulot dizayni, arxitektura, moda, grafik dizayn yoki animatsiya kabi sohalarda yangilik yaratish imkonini beradi. Shu bois, san'at STEAM yondashuvi-

ning ruhiy-estetik asosi bo'lib, u o'quvchilarni nafaqat yaratuvchi, balki o'z mahsulotlarida jamiyat qadriyatlarini ifodalovchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.

Matematika (Mathematics) – Matematika barcha fanlarning asosidir. U sonlar, formulalar, grafiklar va modellar orqali tabiat qonuniyatlarini izohlash va real muammolarni hal qilish imkonini beradi. STEAM ta'limida matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, modellashtirish va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, muhandislikda ko'priklarni loyihalashtirish, iqtisodiyotda byudjetni rejalashtirish, tabiiy fanlarda energiya sarfini o'lchash yoki texnologik dasturlashda algoritm tuzish bevosita matematik bilimlarni talab qiladi. Shuningdek, matematika o'quvchilarni kelajakda murakkab muammolarga ilmiy asosda yondashishga tayyorlaydi.

STEAM yondashuvidan farqli o'laroq, an'anaviy ta'lim quyidagi xususiyatlarga ega:

- An'anaviy ta'limda barcha mavzular bo'yicha qat'iy dars turlari tanlanadi;
- Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar shakllantiriladi, mustahkamlanadi;
- Yangi mavzuni tushuntiriladi, mustahkamlanadi, nazorat, topshiriqlar beriladi;
- Ta'lim oluvchilar o'qituvchini tinglash va o'zlashtirish, berilgan topshiriqlarni bajarish bilan cheklanadi;
- Darsning modul va algoritmlaridan har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalanadi;
- An'anaviy ta'lim to'g'ridan to'g'ri diqqatni jalb qilmasdan yoki tanlab olingan ba'zi bir qismlarga chuqurroq kirmasdan, fanlarning umumiy doirasini qamrab oladi;
- An'anaviy o'quv dasturi ma'ruzasida o'qituvchi asosiy o'rinda bo'ladi, bunda sinfda biron bir mavzu haqida gapirishni, ta'lim oluvchilar qaydlarni yozib olishni va keyin olingan bilimlarni test yoki imtihonda qo'llashni o'z ichiga oladi. An'anaviy ta'lim tizimida

sinf tuzilmalari va ma'ruzalar monoton bo'lishi mumkin, bu ta'lim oluvchilar uchun zerikarli hamda diqqatini tezda yo'qotishiga olib kelishi mumkin.

STEAM asosida tashkil etilgan darslarda esa tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani bir butun tizim sifatida integratsiyalash orqali o'quvchini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir. U o'quvchilarga faqat nazariy bilim emas, balki real hayotiy muammolarni tahlil qilish, ularga amaliy yechim topish va bu yechimlarni modellashtirish imkonini beradi. Bu yondashuvda o'quvchi olim sifatida tadqiqot olib boradi, muhandis sifatida quradi, rassom sifatida ifodalaydi, matematik sifatida tahlil qiladi va bola sifatida qiziqish bilan o'rganadi. STEAM yondashuvi motivatsiyani oshiradi, o'quvchini faollikka undaydi, bilimni amaliyot bilan bog'laydi. Loyihaviy ishlarda ishtirok etish orqali o'quvchi o'zining ijtimoiy, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu orqali o'quvchilar o'z g'oyalari asosida real mahsulotlar yaratishga ega shaxs sifatida shakllanadi.

Ta'limda bunday yondashuvni joriy etish o'quvchining kompetensiyalarini shakllantiribgina qolmay, balki kelajak kasbiga bo'lgan tayyorgarligini ham ta'minlaydi. Shu sababdan, STEAM yondashuvi bugungi kunda ta'limni modernizatsiya qilishda muhim va zamonaviy yondashuv sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda[4].

STEAM yondashuvining afzalliklari

1. Atrofdagi haqiqiy dunyo bilan chambarchas bog'liqlik: masalan suvning ifloslanishi mavzusini olsak.

Science (fan) orqali suv namunalarini o'rganadi va ifloslantiruvchi moddalarni aniqlaydi.

Technology (texnologiya) yordamida ma'lumotlarni yig'adi va sensor qurilmalardan foydalanadi.

Engineering (muhandislik) orqali suv tozalash uchun kichik model qurilma yasaydi.

Art (san'at) bilan ekologik xabardorlikni oshirish uchun plakatlar, videoroliklar tayyorlaydi.

Maths (matematika) orqali ifloslik darajasini o'lchaydi va grafiklar chizadi.

Bu jarayon o'quvchilarga nafaqat fanlarni o'rganish, balki ularni real muammolarni hal qilishda qanday ishlatishni ko'rsatadi. Bu – STEAMning asosiy mohiyatidir.[8]

2. O'quvchilar uchun motivatsiyaning mavjudligi: STEAM yondashuvida "o'quvchilar uchun motivatsiyaning mavjudligi" deganda, o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan ichki qiziqishi va faol ishtiroki nazarda tutiladi. Bunda o'quvchilar nima uchun o'qiyotganini tushunadi va o'zlarini jarayonning muhim ishtirokchisi deb biladi. Bu yondashuv ularni passiv tinglovchidan muammoni faol hal etuvchiga aylantiradi. **Aniq misol:**

O'quvchilarga quyosh energiyasi bilan ishlaydigan avtomobil modelini yasash vazifasi beriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun ular turli fanlardan foydalanadi: fizik qonunlarni o'rganadi, quyosh panelining ishlash prinsipi tushunadi, chizmalar yaratadi va yakunda model yasaydi. Bu jarayonda o'quvchi o'z mehnatining natijasini ko'radi, va yanada samarali harakat qilishga undaydi.

3. O'quvchilar hamkorligini rag'batlantirish: STEAM yondashuvida o'quvchilarning birgalikda ishlash, fikr almashish, rollarga bo'linib, umumiy maqsad sari harakat qilish jarayonlari tushuniladi. Bu yondashuv orqali har bir o'quvchi o'z bilim va qobiliyatini jamoadagi vazifasiga muvofiq qo'llaydi. **Aniq misol:**

O'quvchilar jamoalarda maktab bog'i uchun ekologik toza avtomatik sug'orish tizimi loyihasini ishlab chiqishadi. Guruhdagi har bir a'zo turli rolni bajaradi: kimdir suv aylanishi tizimini loyihalaydi, boshqasi *Arduino* dasturi yordamida boshqaruv dasturini yozadi, yana

biri modelni chizadi yoki taqdimot tayyorlaydi. Ular bir-birining fikrini tinglaydi, muammolarga yechim topishda birgalikda harakat qiladi va natijani baham ko'radi. Shu orqali hamkorlik faqat vazifa taqsimoti emas, balki o'zaro mas'uliyat va bir-birini qo'llab-quvvatlash madaniyatini shakllantiradi.

4. STEAM yondashuvida tanqidiy fikrlash: bu o'quvchilarning ma'lumotni faqat qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, savol qo'yish, baholash va turli yechimlarni taqqoslash orqali eng samarali usullarini tanlash qobiliyatidir. STEAM yondashuvida bu jarayon bilim olishdan tashqari, o'quvchilarning mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish, innovatsion yondashuv bilan yechimlar taklif etish va ularni amaliy modellar orqali **real hayotda qo'llash, amaliy mahsulot yoki innovatsion g'oya yaratish**ga xizmat qiladi. Bu faqat bilim olish emas, balki uni real hayotda foydali mahsulot yoki g'oyaga aylantirishni ham anglatadi. **Aniq misol:**

O'quvchilarga elektr energiyasini tejoyvchi "aqlli uy" loyihasini ishlab chiqish topshirig'i beriladi. Ular:

Tanqidiy fikrlash – o'quvchilar tanqidiy fikrlash orqali mavjud muammoni chuqur tahlil qiladi, dalillarni asoslaydi, turli yechimlarni bir-biri bilan taqqoslaydi va amaliy model yordamida sinovdan o'tkazadi. Bu jarayon ularni faqat ijodkor emas, balki mas'uliyatli, ilmiy asoslangan va innovatsion qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalaydi[9].

5. STEAM yondashuvida "mahsulot yaratish" deganda, o'quvchilarning o'z bilim, g'oya va ijodiy yondashuvlari asosida amaliy yechim, loyiha yoki model ko'rinishidagi yakuniy natija – mahsulot yaratishi tushuniladi. Bu jarayon o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashi, muammoni aniqlashi, uni rejalashtirishi va real shaklga keltirishi orqali amalga oshadi. **Aniq misol:**

O'quvchilarga maktabda chiroq yoqilishi-

ni avtomatlashtiruvchi qurilma yasash vazifasi beriladi. Ular sensorlar, mikrokontrollerlar va dasturlash orqali ishchi model yaratadi. Qurilma xonaga kirganda chiroqni yoqadi, chiqqanda o'chiradi. Bu loyiha ularning texnik bilimlari, muhandislik yondashuvi va amaliy fikrlashini birlashtiradi. O'quvchi bu orqali o'ziga tegishli, foydali, ko'zga ko'rinadigan natija – mahsulotga ega bo'ladi. Bu STEAMning eng asosiy natijalaridan biridir.

Bu yaratilgan mahsulot orqali o'quvchilar muammoni nafaqat nazariy, balki amaliy tarzda hal qilishga intiladi. Tayyor model sinovdan o'tkaziladi, real muhitda foydasi baholanadi va maktab bog'chasiga o'rnatiladi. Shu tarzda o'quvchi bilimni foydali, jamiyatga xizmat qiluvchi mahsulotga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

STEAM yondashuvi asosidagi loyiha ishlari, tadqiqot ishlari tadqiqotchilik ko'nikmalari orqali yanada mustahkamlanadi. Tadqiqotchilik ko'nikmalari – bu o'quvchining ilmiy izlanish olib borish, muammoni aniqlash, savol qo'yish, axborotni yig'ish va tahlil qilish, tajriba o'tkazish, xulosa chiqarish hamda natijalarni taqdim etishdagi malaka va qobiliyatlaridir. Tadqiqot – sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratadigan yoki subyektiv yangini yaratish natijasi bo'lgan faoliyat jarayoni hisoblanadi. Bu muayyan savolga javob topish, muammoni o'rganish yoki yangi bilim yaratish maqsadida ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda Tadqiqot – bu biror narsani chuqurroq tushunish uchun "Nega?", "Qanday?", "Nima uchun?" degan savollarga ilmiy asosda javob topishga bo'lgan harakatdir[7].

Masalan, biologiyada maxsus laboratoriya uskunalaridan, fizika tadqiqotlarida yuqori aniqlikdagi o'lchov asboblariidan foydalanish talab etiladi. Muhandislik va texnologiya yo'nalishlarida esa kompyuter simulyatsiyalari, 3D modellashtirish va prototip yaratish

metodlari keng qo'llaniladi. San'at sohasidagi tadqiqotlarda esa ijodiy jarayonlarni kuza-tish va tahlil qilish, foydalanuvchi tajribalarini o'rganish usullari qo'llaniladi. Ma'lumotlarni yig'ish jarayonida zamonaviy texnologiyalar – sensorlar, videokuzatuv, dronlar kabi vositalar yordam beradi, bu esa ma'lumotlarning aniq va tez to'planishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayoni ma'lumotlarni chuqur o'rganishga, ulardan xulosalar chiqarishga imkon beradi. STEAM sohasida statistik tahlillar bilan birga, texnik hisob-kitoblar, fizik va kimyoviy jarayonlar-ning modellari, shuningdek, ijodiy va dizayn jarayonlari natijalari tahlil qilinadi. Misol uchun, muhandislik loyihalarida qurilmaning ishlash samaradorligini aniqlash uchun mate-matik modellardan foydalaniladi, biotexnologi-yada esa eksperiment natijalari statistik metod-lar bilan tahlil qilinadi. Grafiklar, animatsiyalar va interaktiv vizualizatsiyalar esa murakkab ja-rayonlarni tushunishni osonlashtiradi va ilmiy jamoatchilikka taqdimotda yordam beradi.

Natijalarni baholash bosqichida ularning ishonchliligi, amaliy qo'llanilishi va yangi texnologiyalar yoki bilimlarga qo'shgan hissassi o'rganiladi. STEAM tadqiqotlarida nafaqat ilmiy, balki texnologik va dizayn jihatidan ham baholash muhimdir. Misol uchun, yangi quril-ma yoki dasturiy ta'minot sinovdan o'tkazilib, uning samaradorligi va foydalanuvchi talablari-ga qanchalik javob berishi aniqlanadi. Tadqiqo-tning chegaralari va imkoniyatlari ham aniq ko'rsatiladi, bu esa kelgusida yanada rivojlan-gan va mukammal yechimlar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Xulosalash jarayonida tadqiqot natijalari va ularning tabiiy fanlar hamda STEAM so-hasidagi ahamiyati ochib beriladi. Bu yerda ilmiy yangiliklar, amaliy qo'llanilish imkoni-yatlari, muhandislik yechimlari va ijodiy ja-rayonlardagi o'zgarishlar ta'kidlanadi. Bun-dan tashqari, kelajakda ushbu sohalarda yangi

tadqiqot yo'nalishlari, innovatsion texnologi-yalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar be-riladi. STEAM sohasida integratsiyalashgan yondashuvlar – fan, texnologiya, muhandis-lik, san'at va matematikaning birlashuvi orqali yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Shu bois, tadqiqotchilar faqat o'z sohasida emas, balki boshqa yo'nalishlar bilan ham yaqindan ham-korlik qilishi zarur.

Umuman olganda, tabiiy fanlar va STEAM sohasida tadqiqot o'tkazish nafaqat yangi bilimlarni kashf etish, balki innovatsiyalarni yaratish, amaliy muammolarni hal qilish va insoniyat hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Har bir bosqichda qat'iyat, sabr-toqat, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikning uyg'unligi muhim hisoblanadi. Shuningdek, ilmiy etikaga qat'iy rioya qilish ham har qanday tadqiqotda asosiy prinsip sifatida e'tiborga olinadi[5].

Demak, o'quvchilar bunday darslar na-tijasida:

- Bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llaydilar;
- tajriba va tadqiqotlar o'tkazadilar;
- ijodiy fikrlash va mas'uliyatli bo'ladilar;
- hamkorlikda tadqiqot o'tkazishning turli usullarini taklif etadilar;
- dalillarni o'rganish va ilmiy izlanishga kirishadilar;
- fanni chuqur o'rganishga yordam beradi;
- muammoni hal qilish orqali o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi;
- o'quvchining ijodkorlik qobiliyatini namoyon qiladi;
- nazariy olgan bilimni real hayotda qo'l-lashga o'rgatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, STEAM yondashuvi – bu zamonaviy ta'limning muhim yondoshuvlaridan biridir, chunki u o'quvchini oddiy bilim oluvchidan faol ijodkor va izlanuv-chi shaxsga aylantiradi. Bunday yondashuvda fanlararo integratsiya orqali o'quv jarayoni real hayotga yanada yaqinlashadi, bilim esa amaliy faoliyat bilan uyg'unlashadi. O'quvchi nafaqat

nazariy tushunchalarni egallaydi, balki ularni sinab ko‘radi, yangi g‘oyalarni yaratadi, o‘z natijalarini boshqalar bilan baham ko‘radi. Natijada, ta‘lim jarayoni faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, kasbiy tayyorgarlikka zamin yaratadi va mustaqil fikrlashni shakllantiradi.

STEAMning eng katta afzalligi shundaki, u o‘quvchini kelajak kasblariga tayyorlaydi, unda mas‘uliyat, ijodkorlik, hamkorlik va innovatsion tafakkurni shakllantiradi. Shuning uchun ham, STEAM nafaqat bugungi ta‘limning eng dolzarb yondashuvi, balki kelajak ta‘limining samarali va ishonchli yechimi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4312785>.
2. Z.B. Sangirova va boshqalar., Umumta‘lim maktablari uchun STEAM ta‘limini joriy etish. – Toshkent: 2022.
3. Rashidova S.Z. O‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda STEAM yondashuvi ahamiyati // “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman konferensiyasi materiallar to‘plami, 2025-yil 30-may. – T.: Science and Innovation. (181-184-sahifa)
4. Rashidova S.Z. “Tabiiy fanlarni STEAM yondoshuvi asosida o‘qitishining o‘ziga xos jihatlari” // Xalq ta‘limi. №2/1-son, 2024. (74-79-sahifa)
5. Ta‘limga STEAM yondashuv tatbiqi. – T.: “Qamar media”, 2021.
6. Shernazarov I.E., Akbarova S.R. “Xalqaro baholash asoslari”// qo‘llanma – Toshkent: 2022.
7. <https://www.arduino.cc/education/how-steam-education-develops-life-skills> How STEAM Education Develops Life Skills
8. <https://intboard.ua/ru/press-sluzhba/blog-intboard/stem-obrazovanie-spetsifika-i-preimushchestva/> STEM – образование. Специфика и преимущества.
9. <https://www.utep.edu/extendeduniversity/utepconnect/blog/april-2023/6-benefits-of-stem-education.html> 6 benefits of stem education, by utep connect career and professional development, online education, stem education

ALFA AVLOD UCHUN JISMONIY TARBIYA FANINI O'QITISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Yaxyayev Dilmurod Karimovich,

Uchtepa tumani 238-son umum o'rta ta'lim

maktabi jismoniy tarbiya o'qituvchisi

dkya-83@mail.ru +998 (94) 614-80-31

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17183511>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alfa avlod o'quvchilarida jismoniy tarbiya fanini o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar keng tarqalgan davrda maktab o'quvchilari orasida jismoniy faollikning kamayishi kuzatilmoqda. Shu bois, jismoniy tarbiya darslari nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirish, balki o'quvchilarda motivatsiya, ijtimoiy ko'nikmalar va harakat madaniyatini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Maqolada interaktiv mashg'ulotlar, raqamli vositalardan foydalanish, sport o'yinlarining kombinatsiyalangan usullari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ijobiy jihatlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy mahorati, o'quvchilarning qiziqishini oshirish usullari hamda jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari Alfa avlod uchun jismoniy tarbiya ta'limida uchraydigan asosiy muammolar – passiv turmush tarzi, texnologiyaga ortiqcha qaramlik va yetarli jismoniy faollik yetishmovchiligini aniqlash bilan birga, istiqbolli yechimlarni ham taklif qiladi. Xususan, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'quvchilarning sog'lom hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda samarali vosita sifatida taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Alfa avlod, jismoniy tarbiya, maktab ta'limi, sog'lom turmush tarzi, pedagogik yondashuv, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, interaktiv mashg'ulotlar, harakat mada-

niyati, motivatsiya, sog'liqni mustahkamlash, ta'lim strategiyalari.

Современные подходы к преподаванию физической культуры для поколения альфа культуры для поколения альфа

Аннотация: В статье рассматриваются современные педагогические подходы к преподаванию физической культуры учащимся поколения Альфа и их значение для формирования здорового образа жизни. Поколение Альфа характеризуется высоким уровнем вовлеченности в цифровые технологии, что приводит к снижению физической активности и увеличению риска пассивного образа жизни. В этих условиях физическая культура в школе приобретает особую роль: она способствует не только укреплению здоровья, но и развитию социальных навыков, коммуникативных умений, командного взаимодействия и культуры движения. В работе анализируются инновационные методы обучения, включая использование интерактивных занятий, цифровых инструментов, игровых технологий и индивидуализированных программ. Особое внимание уделяется профессиональной подготовке педагогов, их способности мотивировать школьников и создавать позитивное отношение к занятиям физической культурой. Результаты исследования показывают, что применение современных образовательных стратегий позволяет более эффективно вовле-

кать учащихся поколения Альфа в физическую активность, компенсировать негативное влияние цифровой среды и формировать устойчивую мотивацию к здоровому образу жизни. Таким образом, физическая культура выступает важным фактором гармоничного развития личности детей поколения Альфа в условиях быстро меняющегося общества.

Ключевые слова: поколение Альфа, физическая культура, школьное образование, здоровый образ жизни, педагогические подходы, инновационные методы, цифровые технологии, интерактивные занятия, культура движения, мотивация, укрепление здоровья, образовательные стратегии.

Modern approaches to teaching physical education to generation alpha

Abstract: This article explores the importance and effectiveness of modern pedagogical approaches in teaching Physical Education to Generation Alpha students. It notes a decline in physical activity among schoolchildren in an era dominated by

digital technologies. Therefore, Physical Education classes play a crucial role not only in promoting a healthy lifestyle, but also in fostering students' motivation, social interaction, and a culture of movement. The article highlights the benefits of innovative teaching technologies, including the integration of digital tools and interactive activities combined with sports games. Special emphasis is placed on teachers' professional competence, motivational techniques, and opportunities for individualizing the physical education process. The findings identify the key challenges faced in teaching Physical Education to Generation Alpha – such as a sedentary lifestyle, excessive reliance on technology, and insufficient physical activity, and propose promising solutions. Specifically, lessons organized around modern approaches serve as effective tool for instilling healthy lifestyle habits in students.

Keywords: Generation Alpha, physical education, school education, healthy lifestyle, pedagogical approaches, innovative methods, digital technologies, interactive activities, movement culture, motivation, health promotion, educational strategies.

XXI asr ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda maktab o'quvchilarining katta qismini tashkil etayotgan **Alfa avlod** vakillari texnologiyaga yuqori darajada moslashgan, virtual olam bilan chambarchas bog'langan holda ulg'aymoqda. Ushbu jarayon ularning bilim olish uslublari, muloqot madaniyati va turmush tarzida yangi xususiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Biroq texnologiyalarning haddan tashqari keng qo'llanilishi, jismoniy faollikning kamayishi va passiv turmush tarzining kuchayishi sog'lom rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, **jismoniy tarbiya fanining maktab ta'limidagi o'rni** yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jismoniy tarbiya nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllan-

tirish, balki o'quvchilarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish, jamoada ishlash ko'nikmalarini kuchaytirish, stressga bardoshlilikni oshirish va harakat madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Alfa avlod o'quvchilari uchun an'anaviy yondashuvlar yetarli samara bermasligi mumkin. Shu bois, zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish, raqamli vositalarni integratsiya qilish, interaktiv mashg'ulotlardan foydalanish hamda o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda individual yondashuvlarni shakllantirish zarur. Mazkur maqolada Alfa avlod ta'limida jismoniy tarbiyani o'qitishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinib, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar yoritib beriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSHda jismoniy tarbiya fanining rivojlanishi,

o'qitish metodlari, darsni tashkil qilish usullari va boshqa xususiyatlari haqida Bielski J., Broer N. A., Van der Walt J., Mampane K., Mollo N., Wolhuter C., Drygas W., Gajewska M. & Zdrojewski T. Fijałkowska A., Oblacinska, A., Korzycka M., Hardman K., Jezierski R., Rybicka A., Kalina R.M., Baginska J., Klimczak J., Kurzeja P., Gaśienica-Walczak B., Ogrodzka-Ciechanowicz K., Piepiora P., Rogacka A., Witkowski K., Zembura P., Korcz A., Ciesla E. kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Ushbu tadqiqot nazariy-tahlil tadqiqot hisoblanib, matreal sifatida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishida meta-tahlil, bibliometrik tahlil, analogiya va umumlashtirish, statistik metodlardan foydalanildi.

Zamonaviy xorijiy ta'lim amaliyotida Alfa avlod o'quvchilarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida sezilarli muammolar kuzatilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bunday mashg'ulotlardan ozod etilayotgan bolalar va o'smirlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. O'qituvchilar jismoniy tarbiya darslarini jozibador qilish maqsadida ularni sportga yo'naltirishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, bir tomondan, o'quvchilarni turli jismoniy faoliyat turlari bilan tanishtirish imkoniyatini yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jismoniy tarbiyaning fundamental vazifalarini buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Aslida, jismoniy tarbiya fanining asosiy maqsadi bilimlarni egallash, ko'nikmalarni shakllantirish va sog'lom turmush tarziga yo'naltirilgan qarashlarni rivojlantirishdan iboratdir. Biroq sport musobaqalariga qaratilgan haddan tashqari e'tibor natijasida faqat tor doiradagi ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u berilib, jismoniy faoliyatning sog'liq uchun keng qamrovli foydalari soyada qolmoqda. Ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilish esa muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda olimlar va o'qituvchilar jismoniy tarbiya dasturiga **INNOAGON (innovatsion agonologiya)** konsepsiyasini kiritishni tavsiya etmoqdalar. Ushbu yondashuv o'quvchilarning tana, ong va ruhini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, asrlar davomida shakllangan amaliy insoniy qadriyatlarga asoslanadi. INNOAGON konsepsiyasi kurash sportlari, individual sport turlari va jamoaviy sportlarda ilmiy, profilaktik hamda komplementar tibbiyot yondashuvlarini integratsiya qilish orqali jismoniy tarbiyaning maqsadlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Alfa avlod o'quvchilarida motor ko'nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirish va ularning jismoniy hamda ruhiy salomatligini ta'minlash zamonaviy ta'lim jarayonida INNOAGON yondashuvini joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Pandemiya davrida barcha yosh guruhlar orasida jismoniy faollikning sezilarli darajada pasayishi kuzatildi [10]. Masalan, Polshada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, karantin choralari tugatilgach, bolalar va o'smirlarning jismoniy holati baholandi hamda natijalarda Z va Alfa avlodlari orasida motor faolligi va jismoniy tayyorgarlikning sezilarli darajada pasaygani aniqlandi [20]. Biroq tadqiqotchilar bu pasayish kutilmagan holat emasligini, balki mavjud tendensiyaning davomiyligi ekanini ta'kidlamoqdalar. Chunki yoshlar orasida jismoniy faollikka qiziqish texnologik rivojlanish va ularning kundalik hayotda keng qo'llanilishi bilan birga asta-sekin susayib bormoqda [14].

Mazkur qiziqishning pasayishi maktablardagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ham kuzatilmoqda [5]. Bundan tashqari, darslarda ishtirok etayotgan o'quvchilar ham pandemiayagacha bo'lgan davrga nisbatan mashqlarga kamroq jalb etilmoqda. Bu holat ayniqsa Alfa avlodida yaqqol sezilib, ular orasida jismoniy tarbiya darslaridan ozod etilayotgan o'quvchilar soni muntazam oshib bormoqda [12]. Natijada,

zamonaviy ta'lim tizimi Alfa avlod uchun jismoniy tarbiya darslarida jiddiy inqirozga duch kelmoqda. Bu esa maktab jismoniy tarbiyasining hozirgi ahvoli yuzasidan hal qilinmagan bir qator savollarni yuzaga keltirmoqda.

Ba'zi rivojlangan mamlakatlar ta'lim vazirligi tomonidan ta'lim dasturlariga kiritilgan yondashuv jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga ajratiladigan vaqtni ikki soat majburiy dars va ikki soat ixtiyoriy mashg'ulot sifatida belgilashni nazarda tutadi. Bunday tizim boshlang'ich ta'lim darajasida o'quvchilarning haftalik ikki soatlik majburiy mashg'ulotlarda ishtirok etishini, qo'shimcha ikki soatni esa sport, raqs, turizm, fitnes yoki sog'lomlashtirish mashg'ulotlari kabi tanlov asosidagi faoliyatlarga yo'naltirish imkonini berdi [17]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu model joriy etilgandan keyin maktablarning aksariyati o'quvchilarga sportga yo'naltirilgan darsdan tashqari mashg'ulotlarda qatnashish imkonini yaratgan [17].

Bunday yondashuv o'qituvchilarga Alfa avlodining sportga qiziqishlarini hisobga olish orqali jismoniy tarbiyaning jozibadorligini oshirish imkonini bergan. Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotchilar uni tanqid qilib, mazkur yondashuv barcha o'quvchilar uchun samarali emasligini ta'kidlashgan. Chunki bu tizim, bir tomondan, iqtidorli o'quvchilarning sport bo'yicha yuqori natijalarga erishishini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, boshqa tomondan, jismoniy tarbiyani qiyinchilik deb biladigan o'quvchilar orasida faollikning pasayishiga olib kelgan.

Mazkur tashabbus yoshlarni jismoniy faoliyatning turli shakllari bilan tanishtirishda ijobiy natija bergan bo'lsa-da, jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadlarini noto'g'ri muvofiqlashtirishga ham sabab bo'lgan. Aslida, jismoniy tarbiya o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, salomatlikka ongli munosabatni rivojlantirish va butun umr davomida jismoniy faollikka intilish ko'nikmalarini tarbiyalashga

xizmat qilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, jismoniy tarbiyaning asosiy vazifasi bilim, ko'nikma va ijtimoiy-sog'lomlashtiruvchi munosabatlarni rivojlantirishdir.

Binobarin, sport jismoniy tarbiya maqsadlariga erishishning vositasi sifatida qaralishi kerak. Shu sababli o'quvchilarning sportdagi yutuqlarini jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblash ilmiy jihatdan xato hisoblanadi [1].

Hozirda ba'zi mamlakatlarda boshlang'ich maktablarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ishtirok etayotgan Alfa avlodi ko'pincha faqat bitta sport turi bilan shug'ullanadi, natijada ularning e'tibori bitta musobaqaviy intizomning o'ziga xos xususiyatlariga torayib qolmoqda [4]. Biroq, bu yoshlar bajarilayotgan jismoniy mashqlar ularning jismoniy va ruhiy farovonligi uchun kengroq foydalarini ko'pincha e'tiborsiz qoldirishmoqda [3]. Bu muammo o'qitish jarayoniga yangi texnologiyalarning uzluksiz joriy etilishi bilan yanada kuchaymoqda. Ayrim davlatlardagi maktablarning ta'lim tizimi hali to'liq ravishda aqlli texnologiyalarga moslashib ulgurmagan bir paytda, ta'lim jarayoniga allaqachon yangi sun'iy intellekt yechimlari kiritilmoqda [11]. Mazkur choratadbirlar jismoniy tarbiya darslari inqirozini yanada chuqurlashtirmoqda.

Zamonaviy ilmiy kashfiyotlarni inobatga olgan holda, sog'liq bilan bog'liq muammolarni hal qilishda **INNOAGON** yondashuvini o'rganish tavsiya etiladi. INNOAGON, ya'ni *"innovative agonology"* (innovatsion agoniologiya) atamasidan olingan akronim bo'lib, uni Roman Maciej Kalina ilmiy intizom sifatida asos solgan [16]. INNOAGON nazariyasiga ko'ra, sog'liq va hayotni yo'qotish xavfini aniqlash hamda bu tahdidlarni amalda yengib o'tishda asosiy hodisa doimo "kurash"dir. U kurash tushunchasini insonlar, jamiyatlar va butun dunyo hayotining to'liq ijtimoiy spektri sifatida talqin etadi. Bu jarayon zo'ravonlik va tajovuz-

ni aniqlash hamda ularni bartaraf etish borasida ongni shakllantirishni ham qamrab oladi [18]. Shu sababli, INNOAGON yondashuvi ilm-fan, profilaktik tibbiyot va komplementar tibbiyotning interdissiplinar uyg'unligini ta'kidlaydi [7].

INNOAGON – bu sog'liqning barcha o'lchamlarini targ'ib qilish, profilaktika va terapiyani qamrab oluvchi kompleks konsepsiya bo'lib, u insonlarning turli sharoitlarda omon qolishga tayyorgarligini optimallashtirishga qaratilgan [18]. Mazkur yondashuv mikro darajadan makro darajagacha integratsiyani nazarda tutadi. INNOAGON, shuningdek, inson tanasi, ongi va ruhining uzluksiz rivojlanishiga asrlar davomida shakllangan utilitar insoniy qadriyatlarini amaliyotda qo'llash orqali g'amxo'rlik qiladi [8]. Bu avlodlararo yondashuv bo'lib, u barcha zamonaviy avlod vakillarining dalillarini o'zaro mehr va hurmat asosida tan oladi. Bunday kelishuvga texnologik taraqqiyot ham interdissiplinar yondashuvlar orqali qo'shimcha ravishda yordam beradi [11].

Zamonaviy Polshada jismoniy tarbiya asosan sport faoliyatlari orqali amalga oshiriladi [19]. Bu jarayon ommabop sport turlarini, jumladan, jamoaviy o'yinlarni va ma'lum darajada yengil atletika musobaqalarini qamrab oladi. Biroq, oz sonli ta'lim muassasalari suzish havzalarida suzish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyatiga ega. Aksincha, gimnastika mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada pasaygan [11]. Shunga qaramay, Shvetsiya va Germaniya tizimlariga asoslangan gimnastikaning utilitar qadriyatlari bebaho hisoblanadi.

Shvetsiya tizimidagi gimnastikaning maqsadi ishtirokchilarning tanasini uyg'un rivojlantirish, ularning jismoniy holatini yaxshilash va sog'lom turmush tarzini saqlashga yordam berishdan iborat edi. Aksincha, Germaniya tizimi yosh avlodga intizomni shakllantirish, jismoniy chidamliligini oshirish hamda motorik qobiliyatlarini rivojlantirishni ustuvor va-

zifa deb belgilagan bo'lib, bu ko'pincha turli jihozlar va vositalar yordamida amalga oshirilgan [6].

Bugungi kunda jismoniy tarbiya dasturlaridan gimnastikaning chiqarib tashlanishi natijasida yoshlarning motorik va jismoniy tayyorgarligi yetarli darajada shakllanmayapti [20]. Bundan tashqari, ilgari gimnastikada qo'llangan ta'limiy metodlar intizomni shakllantirishda samarali bo'lsa-da, zamonaviy pedagogik kontekstdagi qarashlarda ular zo'ravonlik deb talqin etilmoqda [2]. Shu bois, Polshadagi jismoniy tarbiya sohasidagi inqiroz, asrlar davomida shakllangan jismoniy madaniyat qadriyatlarining ayrimlaridan voz kechilganligi bilan izohlanadi [15].

Maktablarda jismoniy tarbiya inqirozi yoshlarning jismoniy ko'p qirraliligining torayib borishi sababli yanada chuqurlashmoqda. Shu bilan birga, bu darslarni sportga yo'naltirish orqali ularning jozibadorligini saqlab qolish bo'yicha harakatlar qilinmoqda. Shu sababli, ushbu muammoning yechimi sifatida jismoniy tarbiya asosiy o'quv dasturiga **INNOAGON** konsepsiyasini kiritish taklif etilmoqda [11].

Jismoniy tarbiyaning umumiy maqsadlari – shaxsiy munosabat va motivatsiyani shakllantirish, bilim va tushunchani egallash, tana harakatlarini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda jismoniy tayyorgarlik va holatni mustahkamlash – fan, profilaktik tibbiyot va qo'shimcha tibbiyot yondashuvlarini birlashtiruvchi **fanlararo metod** orqali kuchaytiriladi [7]. Ushbu yondashuv kurash sportlari, individual sport turlari va jamoaviy sportlarni qamrab oladi.

Yoshlar egallagan bilim va ko'nikmalar profilaktik tibbiyotda amaliy natijalar beradi. Masalan, jarohatlarga qarshi – to'g'ri yiqilish (kurash sportlarida, masalan, dzyudoda), to'g'ri sakrash (gimnastika mashg'ulotlarida), to'g'ri ushlash (jamoaviy sport turlarida, masalan, gandbolda).

Shuningdek, bu qo'shimcha tibbiyotga ham ta'sir qiladi va hayot sifatini yaxshilashda yordam beruvchi bir qancha qobiliyatlarni shakllantiradi. Jumladan, karate to'liq nafas olish qobiliyatini yaxshilashda, yengil atletika mashg'ulotlari yugurishda nafas olishni to'g'ri muvofiqlashtirish qobiliyatini, voleybol mashg'ulotlari jamoada hamkorlikda ishlash qobiliyatini yaxshilashda yordam beradi.

Shu ma'noda, zamonaviy maktablardagi jismoniy tarbiyaning maqsadi faqatgina sport orqali darslar orasida o'quvchilarning stressini kamaytirish emas, balki ularning qilayotgan harakatlari mohiyatini anglash, olgan bilimini tushunish va amalda qo'llash usullarini o'rgatishdir. Shu sababli, INNOAGON konsepsiyasi haqidagi bilimlar zamonaviy va mas'uliyatli jismoniy tarbiya ta'limida ustuvor bo'lishi lozim. Bu yondashuv asrlar davomida shakllangan insoniyatning **umuminsoniy qadriyatlariga** tayanadi [11].

Mazkur metod intergeneratsion (avlodlararo) tushunishni mustahkamlash, ommaviy madaniyat orqali qo'llab-quvvatlash hamda tajovuz va zo'ravonliksiz amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, texnologik qo'llab-quvvatlashdan foydalanish ham tavsiya etiladi [11,12]. Natijada, jismoniy jihatdan yetuk shaxslar insoniyat sivilizatsiyasining oliy qadriyat mezonini – odamlar va tabiatning asl shaklda saqlanib qolishi hamda kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyat tamoyiliga moslasha boshlaydilar [13].

O'zbekistonda jismoniy tarbiya tizimida ham so'nggi yillarda yoshlarning jismoniy faolligi pasayib borayotgani, darslarning mazmunida esa asosan sport turlari ustunlik qilayotgani kuzatilmoqda. Biroq bu yondashuv yoshlarning har tomonlama rivojlanishini, sog'lom turmush tarzini shakllantirishni to'liq ta'minlab bera olmaydi. Shu sababli, **INNOAGON konsepsiyasini jismoniy tarbiya o'quv dasturiga qo'shish** O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

INNOAGON yondashuvi yosh avlodda nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki intellektual va ma'naviy salohiyatni, shuningdek, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu orqali o'quvchilar to'g'ri yiqilish, nafasni boshqarish, jamoada ishlash kabi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lib, sog'lom turmush tarzini qaror toptirishlari mumkin. Mazkur konsepsiya profilaktik tibbiyot, qo'shimcha tibbiyot hamda fanlararo integratsiyani qo'llab-quvvatlaydi.

Shunday qilib, O'zbekistonda jismoniy tarbiyani faqat darslar orasidagi dam olish vositasi sifatida emas, balki sog'lom avlodni tarbiyalash, ularning salomatligini mustahkamlash va kelajak uchun mas'uliyatli qarashlarni shakllantirish vositasi sifatida tashkil etish lozim. INNOAGON konsepsiyasi shu maqsadlarga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuv sifatida mamlakatimiz ta'lim tizimida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bielski J. Podstawowe problemy teorii wychowania fizycznego. Kraków: Impuls. 2012.
2. Broer N.A., Van der Walt J., Mampane K., Mollo, N., Wolhuter C. Parental views of learner discipline at home and school. Journal of Educational Research on Children, Parents & Teachers, 2025. 6(1), 30-48.
3. Drygas W., Gajewska M., Zdrojewski T. Niedostateczny poziom aktywnosci fizycznej w Polsce jako zagro'zenie i wyzwanie dla zdrowia 'publicznego. Raport Komitetu Zdrowia Publicznego Polskiej Akademii Nauk. Warszawa: Panstwowy Instytut Zdrowia Publicznego – Pa'nstwowy Zaklad 'Higieny. 2021.
4. Fijałkowska A., Oblacinska A., Korzycka M. 'Zdrowie i styl zycia 'polskich uczniow. Raport z badan'. Warszawa: Instytut Matki i Dziecka. 2019.
5. Hardman, K. . Physical education in schools: A global perspective. Kinesiology, 2008. 40(1), 5-28.

6. Jezierski R., Rybicka A. *Gimnastyka. Teoria i metodyka*. Wrocław: AWF, 2002.
7. Kalina R. M. Innovative Agonology – Its Definition, Detailed Theories, General Rule of Struggle, and Laws. In: J. Kalra, N. Lightner (eds.), *Healthcare and Medical Devices. AHFE (2023) International Conference. AHFE Open Access*, vol. 79(pp. 272-279). USA: AHFE International, 2023. <http://doi.org/10.54941/ahfe1003497>
8. Kalina R.M., Baginska J. Language of Innovative Agonology: A Guide in Combining Micro and Macro Scales of Preventive, Therapeutic and Defensive Actions. In: J. Kalra, N. Lightner (eds.), *Healthcare and Medical Devices. AHFE (2023) International Conference. AHFE Open Access*, 2023),vol. 79 (pp. 307-315). USA: AHFE International. <http://doi.org/10.54941/ahfe1003501>
9. Kalina R.M., Kruszewski A. INNOAGON is an acronym for 'innovative agonology' but is not synonymous with 'science of martial arts'. *Archives of Budo*, 2023. 19, 193-204.
10. Klimczak J., Kurzeja P., Gałsienica-Walczak B., Ogródzka-Ciechanowicz K. Coronavirus COVID-19 transmission level among employees and students of the Podhale State College of Applied Sciences in Nowy Targ. *Archives of Budo Science of Martial Arts and Extreme Sports*, 2021. 17, 1-7.
11. Piepiora P. INNOAGON generation born after 2025 – alternative recommended by science. In: J. Kalra (ed.), *Human Factors in Sports, Performance and Wellness. AHFE (2024) International Conference. AHFE Open Access*, vol. 150 (pp.84-92). USA: AHFE International. <http://doi.org/10.54941/ahfe1005293>
12. Piepiora P. A. The Alpha Generation theoretical model of developmental disorders. *Archives of Budo Journal of Innovative Agonology*, 20, 2024a. 140-148.
13. Piepiora P.A., Kalina R.M. Hypothesis on the supreme value criteria of the global civilization. In: J.Kalra N.Lightner (eds.), *Healthcare and Medical Devices. AHFE (2023) International Conference. AHFE Open Access*, vol. 79 (pp. 280-289). USA: AHFE International, 2023.<http://doi.org/10.54941/ahfe1003498>
14. Piepiora P.A., Baginska J., Piepiora Z.N. Perspective on solving the 'problem of declining interest in physical activity in Poland.Frontiers in Sports and Active Living, 2024a. 6, 1416154. <https://doi.org/10.3389/fspor.2024.1416154>
15. Piepiora P.A., Baginska J., Piepiora Z.N., Vveinhardt J. Development 'or decline of physical culture? Physical activity of the Alpha generation from a Polish perspective. *Health Problems of Civilization*, on-line first, 2024b. <https://doi.org/10.5114/hpc.2024.145535>
16. Piepiora Z., Pietrzak K., Baginska J., Piepiora P. For the sake of personal 'security in the mountains – from the perspective of innovative agonology. *Archives of Budo*, 2022. 18, 259-268.
17. Rogacka A. *Wychowanie fizyczne w szkole. Informator dla dyrektorów szkół i nauczycieli*. Warszawa: Ośrodek Rozwoju Edukacji. ' Warchoł, K. (2017). *Program nauczania wychowania fizycznego dla osmioletniej ' szkoły podstawowej*. Rzeszów: Fosze, 2017.
18. Witkowski K., Kalina R.M. Struggle: The Most Frequently Used Word in the Public Sphere Since the Beginning of the COVID-19 Pandemic. In: J. Kalra, N. Lightner (eds.), *Healthcare and Medical Devices. AHFE (2023) International Conference. AHFE Open Access*, vol. 79 (pp. 299-306). USA: AHFE International. <http://doi.org/10.54941/ahfe1003500>
19. Yildirim M. Investigation of Sports Participation Motivations of Physical Education and Sports School Students. *International Education Studies*, 2021. 14(8), 43-50. <https://doi.org/10.5539/ies.v14n8p43>
20. Zembura P., Korcz A., Ciesła E., Nałęcz, H. *Raport o stanie aktywności ' fizycznej dzieci i młodzieży w Polsce w ramach projektu Global Matrix 4.0*. Warszawa: Fundacja V4Sport, 2022.

MAKTAB TA'LIMI TIZIMIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI

Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi,

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat

milliy instituti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17291973>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi bosqichida ingliz tilini o'qitish jarayonining bugungi holati tahlil etilgan. Xususan, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilangan o'quv dasturlari, darsliklar va metodik qo'llanmalar; o'qituvchilarning kasbiy malakasi hamda o'quvchilarning til kompetensiyalarini egalash darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, umumta'lim maktablarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kommunikativ yondashuvlarning joriy etilishi til o'rganish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatayotgani ko'rib chiqilgan. Maqolada, shuningdek, ingliz tilini o'qitishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ yondashuv, USAID, CEFR, ESN, STEM, metodik qo'llanmalar.

**Современное состояние преподавания
английского языка в системе школьного
образования**

Шоисаева Дилхумора Шожалил кизи,
докторант Национального института
педагогического мастерства
имени Абдуллы Авлони

Аннотация: В данной статье проанализировано текущее состояние процесса преподавания английского языка на этапе школьного образования в Республике Узбекистан. В частности, рассмотрены проводимые реформы в данной сфере, обновлённые учебные программы, учебники и методические пособия, профессиональная квалификация преподавателей, а так-

же уровень освоения языковых компетенций учащихся. Также проанализировано влияние внедрения современных информационно-коммуникационных технологий и коммуникативного подхода в общеобразовательных школах на процесс изучения иностранного языка. В статье освещаются существующие проблемы в преподавании английского языка и предпринимаемые меры по их устранению.

Ключевые слова: коммуникативный подход, USAID, CEFR, ESN, STEM, методические пособия.

**The current state of english language teaching
in the school education system**

Shoisayeva Dilxumora Shojalil qizi,

*Basic doctorate student at National institute of
pedagogical skills named after Abdulla Avloni*

Abstract: This article analyzes the current state of English language teaching at the school education level in the Republic of Uzbekistan. In particular, it examines the ongoing reforms in the field, updated curricula, textbooks and methodological materials, the professional skills of teachers, as well as students' acquisition of language competencies. The article also explores the impact of introducing modern information and communication technologies and communicative approaches to language learning in general secondary schools. Furthermore, it highlights existing challenges in English language teaching and the measures being taken to address them.

Keywords: communicative approach, USAID, CEFR, ESN, STEM, methodological manuals.

Globalizatsiya va axborot asri davrida xorijiy tillarni xususan, ingliz tilini o'rganish har bir shaxsning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida, ilm-fan, ta'lim va biznes kabi sohalarda asosiy vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Dunyo bitimlarining 90%i ingliz tilida tuziladi. Jahon moliyaviy fondlari va birjalari ingliz tilida faoliyat yuritadi. Yirik korporatsiyalar dunyoning har bir chekkasida ingliz tilidan foydalanadi. Garchi ingliz tilida so'zlashmasa ham, xorijiy sarmoyadorlar uchun shu tilda takliflarni ifoda etish ancha qulay va soddaroq. Maktablarda chet tili sifatida, asosan, ingliz tili o'rgatiladi. Bugungi kunda ingliz tilida ko'plab ilmiy ma'ruzalar, maqolalar, hisobotlar chop etiladi. Internet resurslarining ham 90 foizi ingliz tilida. Barcha sohalardagi ma'lumotlarning asosiy qismi birinchi bo'lib ingliz tilida paydo bo'ladi. Dunyoning eng nufuzli oliygohlari qatorida turgan birinchi 10 ta universitet ham aynan ingliz tilida faoliyat yuritadi. Shu bois, ingliz tilini egallash yuqori sifatli ta'lim olish, ilmiy izlanishlarda ishtirok etish va global mehnat bozorida raqobatbardosh kasb egasi bo'lish uchun muhim omil hisoblanadi. Natijada, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab jahon miqyosida ortib bormoqda.

Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitish davlat siyosatining eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham ingliz tilini o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur sohada bir qator hukumat qarorlari va Prezident farmonlari qabul qilingan bo'lib, ular ingliz tilini o'qitish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi 5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish sifatini

oshirishga qaratilgan muhim hujjatdir[1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2024-yil 27-iyundagi 239-sonli qarori ham muhim ahamiyatga ega[2]. Ushbu qarorlar asosida umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni va metodikasi yangilanmoqda, yangi darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda, o'qituvchilarning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning hozirgi holati so'nggi yillarda sezilarli darajada yaxshilandi. Davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, xalqaro hamkorlik va innovatsion metodlarning joriy etilishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu islohotlar ingliz tilini o'qitish tizimi mamlakatda ingliz tilini o'qitishda grammatik tarjima metodikasini zamonaviy interfaol metodikalarga almashtirish jarayoniga oid tadqiqotlar olib borildi. 2018-yilda ingliz tili o'qituvchilari darslarni "interfaol metodlar", jumladan, "chigil yozdi" mashqlari, sahna ko'rinishlari hamda tezkor javob kabi usullardan foydalangan holda o'tishga harakat qildilar. Biroq, o'quvchilarning bilim darajasidagi tafovut ushbu usullarni amalda qo'llashni murakkablashtirar edi. Adabiyotlarda ham chet tili bilim darajasidagi tafovut interfaol metodlardan foydalanishni murakkablashtirishi ko'p bora uchraydi[10]. Ushbu islohotlar ingliz tilini o'qitish tizimiga oid quyidagi 4 ta yo'nalish asosida olib borilganini ko'rishimiz mumkin:

Moddiy-texnik: lingafon xonalari, axborot texnologiyalarini jalb etish, ingliz tilini o'qitishda televideniye hamda internet orqali masofaviy ta'limdan foydalanish

Metodik: interfaol metodlarga asoslangan yangi metodik majmualar va ta'lim standart-

larini ishlab chiqish, til aspektlaridan ko'ra til ko'nikmalariga ko'proq e'tibor berish.

Moliyaviy: Davlat byudjetidan chekka hududlarda dars beruvchi yoki C1 sertifikatiga ega o'qituvchilarga ustama to'lanishi va hokazo.

Quyida bu jarayonning asosiy jihatlarini keltirib o'tiladi.

Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy va ma'rifatli yoshlarni kamol toptirish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, xorijiy tillarga o'qitishni yanada ommalashtirish, shuningdek, bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish, yoshlarni xorijiy tillarga o'qitishni takomillashtirish jarayonida, talab yuqori bo'lgan chet tillarini mukammal o'zlashtirish uchun sharoitlar kengaytirilmoqda. Yoshlarni rag'batlantirish xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida imtihon topshirish xarajati qoplanadigan xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha ingliz, nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillaridan kamida C1 yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi sertifikat olgan yoshlarni imtihon topshirish xarajatlarini kompensatsiya qilishga qo'shimcha ravishda Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar doirasida o'qish xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etildi.

Hozirgi kunga qadar xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan o'quvchilar soni 37.1 ming nafarga yetdi. O'zbekistonda 2021-yil 1-maydan boshlab IELTS, TOEFL, GMAT, GRE va SAT imtihonlaridan yuqori ball to'plagan yoshlarga imtihon xarajatlari to'liq qoplab berilyapti.

Bundan tashqari, ingliz tili va boshqa xorijiy tillar va zamonaviy kasblarni o'rgatish bo'yicha dunyoning yetakchi markazlari, oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, ularning xalqaro ta'lim standartla-

riga mos ta'lim dasturlarini "Ibrat farzandlari" va "Ustoz" loyihalariga tatbiq etish choralari ko'rilyapti. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi 2024-2025-o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarining chet tili fani bo'yicha darslarida videomahsulotlardan, shu jumladan, "Ibrat farzandlari" platformasidan keng foydalanishi yo'lga qo'yildi.

Metodik yondashuvlar va darsliklar. Ingliz tilini o'qitish metodikasi – bu til o'rganish jarayonini tizimli va samarali tashkil etishga qaratilgan nazariy va amaliy prinsiplar majmuasi hisoblanadi. Metodika til o'rgatishning mazmuni, usullari, vositalari va ta'lim jarayonini boshqarish tamoyillarini o'z ichiga oladi. Umumta'lim maktablari sharoitida metodikaning roli o'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik imkoniyatlari hamda ijtimoiy-madaniy muhitni hisobga olib, til o'rganish jarayonini optimallashtirishdan iboratdir[4].

Ingliz tilini o'qitish metodikasida qo'llaniladigan yondashuvlar til o'rganish jarayonining nazariy asoslarini tashkil etadi va pedagogik amaliyotda yo'nalish beradi. Asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Grammatik-tarjimaviy yondashuv: An'anaviy usul bo'lib, tilni o'rgatishda grammatika qoidalarining o'zlashtirilishi va matnlarni tarjima qilish asosiy vazifaga ega. Biroq, bu yondashuvning amaliy nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda samaradorligi pastligi qayd etilgan[5].

Kommunikativ yondashuv: Zamonaviy ta'limda keng qo'llaniladigan yondashuv bo'lib, asosiy e'tibor tilni amaliy muloqot vositasi sifatida o'rganishga qaratiladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashi, ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qilishi uchun sharoit yaratadi[6].

Kognitiv yondashuv: Til o'rganishni insonning kognitiv jarayonlari, xususan, e'tibor,

xotira va fikrlash faoliyati bilan bog'liq deb hisoblaydi. Bu yondashuv til o'rganishni psixologik jihatdan chuqurroq tahlil qilishga imkon beradi[7].

Bu borada O'zbekiston ta'lim tizimida ham yangi darsliklar yaratildi. USAID tomonidan moliyalashtirilgan "O'zbekiston – Barqarorlik uchun ta'lim" dasturi doirasida, Cambridge University Press tomonidan ishlab chiqilgan ingliz tili darsliklari 2021-2022-o'quv yilida 200 ta maktabda sinovdan o'tkazildi. 2022-2023-o'quv yilidan boshlab, bu darsliklar 6,5 milliondan ortiq o'quvchiga taqdim etildi[4]. Bu darsliklar kommunikativ yondashuvga asoslangan bo'lib, o'quvchilarda amaliy til ko'nikmalarini – o'qish, yozish, tinglash, gapirishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'qituvchilar uchun "Teacher's Book" qo'llanmalari, test banklari va metodik tavsiyalar mavjud bo'lib, ular darslarni samarali rejalashtirish va baholashda yordam beradi.

Axborot texnologiyalari: Interaktiv doskalar yordamida video va audio materiallar taqdim etish va QR-kodli topshiriqlar orqali o'quvchilar mustaqil ravishda matnlarni tinglab tushunish, lug'at boyligini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

Mobil ilovalar va onlayn platformalar: Duolingo, Quizlet, Wordwall va British Council Learn English kabi vositalar o'quv jarayoniga kiritilgan.

O'qituvchilar malakasini oshirish va sertifikatlash, xalqaro hamkorlik va tajriba almashish: O'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy ta'lim tizimida malakali o'qituvchilar nafaqat fan bilimiga ega bo'lishi, balki pedagogik mahorat, kommunikatsiya va zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llashda ham yuqori darajada bo'lishi talab etiladi. Sertifikatlash esa o'qituvchining malakasini rasmiy tasdiqlash vositasi bo'lib, u nafaqat o'qituvchi uchun professional rivoj-

lanish va motivatsiya manbai, balki ish beruvchilar uchun ham ta'lim sifatini baholash mezonidir.

Hozirgi kunga qadar umumta'lim maktablari faoliyat yuritayotgan ingliz tili o'qituvchilarining 59,1% (29 001 nafar) B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatlarga ega bo'ldi[5].

Malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar orqali o'qituvchilar yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydi, o'z darslarini yanada samarali tashkil eta oladi. Xalqaro hamkorlik doirasida tashkil etilgan kurslar, masalan, TESOL (Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish sertifikati), o'qituvchilarga xalqaro standartlarga mos malaka beradi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-2025-o'quv yilidan boshlab: Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarida ingliz tilidan tashqari boshqa xorijiy tillar bo'yicha ham bosqichma-bosqich pedagoglarni qayta tayyorlash kurslari tashkil qilindi;

Bugungi globallashuv davrida ta'lim sohasida xalqaro hamkorlik va tajriba almashish muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlantirishida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan dasturlar muhim ahamiyatga ega. Shunday dasturlardan biri – **English Speaking Nation (ESN)** dasturi bo'lib, u AQShning Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika kengashlari, AQSh elchixonasi va O'zbekiston Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida amalga oshirildi. Dastur doirasida O'zbekiston bo'ylab 18000 dan ortiq ingliz tili o'qituvchisi o'qitilib, bu orqali mamlakatning o'rta maktab o'quvchilarining ingliz tili ko'nikmalari kuchaytirildi hamda yuqori sifatli ta'lim ta'minlandi. 2019-yil noyabr oyida AQShning Toshkentdagi elchixonasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda

ishga tushirilib, Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika kengashlari tomonidan amalga oshirilgan ushbu qo'shma tashabbus O'zbekistondagi ingliz tili o'qituvchilariga o'z o'quvchilarining til bilish malakasini oshirish uchun eng samarali o'qitish metodologiyasi bilan ta'minlashga qaratilgan. Ushbu metodlar o'quvchilarda ingliz tilida og'zaki va yozma nutq, eshitish va o'qish kabi asosiy til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularni real hayotda til bilan erkin muloqot qilishga tayyorlaydi. Dastur shuningdek, o'qituvchilarga kasbiy o'sish, mentorlik, hamkorlikda o'rganish va o'z darslarini tanqidiy tahlil qilish imkonini yaratdi. Bu orqali ular nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, balki butun ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Mazkur kompleks dastur O'zbekiston bo'ylab o'rta maktablarning 18 000 dan ortiq ingliz tili o'qituvchisiga intensiv malaka oshirish imkoniyatlarini taqdim etdi. 452 nafar o'qituvchi TESOL dasturi bo'yicha yuzma-yuz o'tkazilgan 140 soatlik kurs orqali xalqaro miqyosda tan olingan sertifikatlariga ega bo'ldi. 66 nafar o'qituvchidan iborat guruh esa 2024-yil 16-mart kuni TESOL kurslarini muvaffaqiyatli tamomladi.

Bundan tashqari, 693 nafar ingliz tili o'qituvchisi o'z hamkasblarini qo'llab-quvvatlash maqsadida butun mamlakat bo'ylab ekspert o'qituvchilar tarmog'ini shakllantirib, trener va murabbiy bo'lish uchun 60 soatlik ixtisoslashtirilgan kursda qatnashdi. Bu yuqori malakali o'qituvchilar ESN dasturi doirasida O'zbekistonning har bir mintaqasidan 18 000 dan ortiq o'qituvchini o'qitdi. O'qituvchilarning yakuniy guruhi 2024-yil mart oyida ushbu treninglarda qatnashdi, natijada, dasturda o'qitilganlarning umumiy soni 18 000 nafardan oshdi[6].

So'nggi yillarda AQSh va boshqa davlatlardan ingliz tili mutaxassislari jalb qilinib, mahalliy o'qituvchilarga ko'maklashmoqda. Bu tajriba almashish jarayonini tezlashtir-

moqda. Statistika ma'lumotlariga qaraganda, 2024-2025-o'quv yilida AQShdan 20 nafar ingliz tili o'qituvchisi O'zbekistonga kelib, 10 ta hududdagi maktab va universitetlarda ingliz tilini o'qitishda faoliyat yuritmoqda. 2019-yildan buyon 98 nafar amerikalik o'qituvchi 21 ta davlat maktabi va 30 dan ortiq universitetda ishlamoqda[7].

STEM fanlarini ingliz tilida o'qitish: Xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktablar soni ko'paymoqda. Ayrim maktablarda STEM fanlari ingliz tilida o'qitilmoqda, bu esa o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirmoqda. 2024-2025-o'quv yilidan boshlab, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) fanlari ingliz tilida o'qitilmoqda. Kelgusida 2025-2026-yillarda 8 ta yangi ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilishi rejalashtirilgan[8].

Olib borilayotgan shunday islohotlarga qaramay ingliz tilini o'qitish tizimida ayrim muammolar hali hamon mavjud. Quyida ayrimlarini keltirib o'tilgan.

Hududlararo tafovut: Qishloq va chekka hududlardagi maktablarda malakali o'qituvchilar yetishmaydi, infratuzilma zaif.

Amaliy ko'nikmalar yetishmasligi: Darslarda ko'proq grammatikaga urg'u beriladi, og'zaki nutqni rivojlantirish esa orqada qolmoqda.

Texnik vositalar ta'minoti: Ba'zi maktablarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, internet yoki interaktiv doskalar yetarli emas.

Hozirga qadar bu muammolar bosqichma-bosqich o'z yechimini topib kelyapti. Masalan, har bir hududda raqamli ta'lim vositalarini joriy etish uchun davlat grantlari ajratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019-yildagi PF-5712-sonli Farmoni mavjud muammolarga yechimlar berilgan[3]. Qarorda respublikaning chekka hududlari maktab muassasalarini qaytadan ta'mirlab, yangi

zamonaviy raqamli ta'lim vositalarini joriy etish chora-tadbirlari keltirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilishi ko'zda tutilgan.

Ingliz tilini o'qitish sohasida so'nggi yillarda katta yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali bu jarayonni yanada sifatli darajaga olib chiqish mumkin.

Buning uchun o'qituvchilarni muntazam malaka oshirish, o'quv metodik bazani mustahkamlash va barcha hududlarda teng sharoitlar yaratish muhim hisoblanadi. Amaldagi islohotlar istiqbolida O'zbekistonda ingliz tili bo'yicha til kompetensiyasining umumiy darajasi oshishi kutilmoqda, bu esa xorijiy til ta'limining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori: 2021-yil 19-may 5117-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori: 2024-yil 27-iyun PQ-239-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. Ingliz tili o'qitish metodikasi bo'yicha qo'llanma, 2023.
5. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson, 2015.
6. Ellis R. Understanding Second Language Acquisition. Oxford University Press. 2015.
7. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/25/usaid/>
8. <https://uzedu.uz/y3/lists/4/284>.
9. <https://m.kun.uz/news/2024/04/22/aqshning-esn-dasturi-ozbekistonda-18-ming-nafar-ingliz-tili-oqituvchisini-tayyorlad>.
10. <https://uzedu.uz/uz/lists/4/278>.
11. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/03/28/quality-of-education>.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR – YANGI USULLAR, INNOVATSIYALAR VA ULARNI TATBIQ ETISH

Xasanova Nigora Nizomovna,

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

musiqi madaniyati metodisti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17199123>

Annotatsiya: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va interfaol metodlar orqali o'quv jarayonini olib borish, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish – o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Hozirgi tezkor ilm-fan taraqqiyoti davrida ta'lim sifatini oshirish hamda intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda darsni to'g'ri rejalashtirish, o'qitish jarayonini mazmunli tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlarni amaliyotga keng joriy etish bolaga kayfiyat berish, o'zini-o'zi rivojlantirish va baholashga qaratilgan didaktik o'yinlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, mazkur maqolada darsni samarali tashkil etish, interfaol metodlar orqali o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijodkorligini rivojlantirish, jamoada hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda o'quvchilarning bilimni mustahkamlashda fanlararo integratsiya asosida ishlash, ayniqsa, kompyuter savodxonligining ahamiyati, Kahoot onlayn platformasidan foydalanishning afzalliklari misolida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Darsni rejalashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, mavzu, metod, musiqi uslubi, ta'lim sifati, tarqatma kartochkalar, o'qitish jarayoni.

**Современные педагогические технологии –
новые методы, инновации и их применение**

Хасанова Нигора Низомовна,

методист музыкальной культуры при центре

Джизакского областного центра

педагогического мастерства

Email: nigorax@554gmail.com

Телефон: +99897 436-06-27

Аннотация: Организация образовательного процесса с использованием современных педагогических технологий, инновационных подходов и интерактивных методов, а также эффективное использование современных технологий в образовательном процессе являются важными факторами всестороннего развития личности учащегося, формирования самостоятельного мышления, творческих способностей и практических навыков. В современную эпоху бурного развития науки важно повышать качество образования и воспитывать интеллектуально одаренную молодёжь посредством грамотно-го планирования урока, содержательной организации образовательного процесса, широкого внедрения в практику современных педагогических технологий и интерактивных методов, создания у ребёнка настроения, эффективного использования дидактических игр, направленных на саморазвитие и оценку.

Поэтому в данной статье на примере преимуществ использования онлайн-платформы Kahoot показаны преимущества использования онлайн-платформы Kahoot для эффективной организации урока, повышения интереса учащихся к науке посредством интерактивных методов, развития творческих способностей, формирования навыков командной работы и укрепления знаний учащихся, особенно компьютерной грамотности.

Ключевые слова: Планирование урока, современные педагогические технологии, тема, метод, музыкальный стиль, качество образования, раздаточные материалы, учебный процесс.

Modern pedagogical technologies – new methods, innovations, and their implementation

Xasanova Nigora Nizomovna,

Methodologist of Music Culture Jizzakh Regional Center for Pedagogical Excellence

Email: nigorax@554gmail.com

Phone: +99897 436-06-27

Abstract: *Conducting the educational process through modern pedagogical technologies, innova-*

tive approaches, and interactive methods, and using modern technologies effectively in education plays a crucial role in the comprehensive development of students, fostering independent thinking, creativity, and practical skills. In today's era of rapid scientific and technological progress, improving the quality of education and educating intellectually capable youth requires suitable lesson planning and meaningful organization of the teaching process. The broad implementation of modern pedagogical technologies and interactive methods, as well as the effective use of didactic games aimed at enhancing student motivation, self-development, and self-assessment is very important.

Therefore, this article discusses the benefits of organization effective lesson, increasing pupil interest in the subject through interactive methods, developing creativity, fostering teamwork skills, and reinforcing students' knowledge through interdisciplinary integration. In particular, it highlights the importance of computer literacy and the advantages of using the online platform Kahoot.

Keywords: *Lesson planning, modern pedagogical technologies, topic, method, musical style, quality of education, handouts, teaching process.*

Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi.

Shavkat Mirziyoyev

Ilm-fan jadal rivojlanib jamiyat talablariga mos ravishda yangilanib borayotgan bir davrda yo'lga qo'yilgan sifatli ta'lim vatanparvar, shijoatli, tashabbuskor, ilmga chanqoq yoshlarni kamolotga yetkazish barobarida yurtning porloq istiqbolini yaratishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb qilishga xizmat qiladigan usul va vositalar majmuasi bo'lib, o'quvchi-

larni bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga imkoniyat yaratish bilan birga o'qituvchining professional o'sishi va ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

An'anaviy o'qitish uslublari emas, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovation yondashuvlar va interfaol metodlar orqali o'quv jarayonini olib borish, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish – o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya bu – ta'lim jarayonini samarali, interaktiv va shaxsga yo'naltirilishda qo'llaniladigan tizimli

yondashuvdir. Ular faqatgina dars uslublarini emas, balki:

darsni rejalashtirish

o'qitish jarayoni

baholash

motivatsiya

o'quvchi bilan hamkorlik kabi bosqichlarni qamrab oladi.

1. Darsni rejalashtirish bu muhim jarayon, darsning 50 foiz muvaffaqiyati natijasi demakdir. Darsni rejalashtirish – o'qituvchining dars jarayonini samarali tashkil etishi uchun tuza-digan puxta rejasi bo'lib, unda maqsad, vazifa, metod va vositalar, hamda natijalar aniq ko'rsatiladi.

Darsni rejalashtirish bosqichlari:

- Darsning umumiy maqsadini aniqlash

Ta'limiy: o'quvchilarga yangi bilim berish.

Tarbiyaviy: dars orqali axloqiy, estetik yoki ma'naviy qadriyatlarni singdirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning tafakkuri, mustaqil ishlash qobiliyati, ijodkorligini rivojlantirish.

- O'quv materialini tanlash va tahlil qilish

Dars mavzusiga mos asosiy tushuncha, qoidalar, misol va dalillarni ajratib olish.

Darsda qo'llaniladigan ko'rgazmalar, tarqatma materiallarni belgilash.

- Darsning tuzilishini belgilash

Kirish (motivatsiya, mavzuga qiziqtirish).

Asosiy qism (yangi bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash).

Yakun (xulosa chiqarish, baholash, uyga vazifa berish).

- Metod va usullarni tanlash

Suhbat, savol-javob, interfaol metodlar, guruhli ish, loyiha, didaktik o'yinlar.

- Vaqt taqsimoti

Har bir bosqichga qancha vaqt ajratilishini aniqlash.

- Natijalarni baholash mezonlarini belgilash

Og'zaki so'rov, yozma topshiriq, Kahoot platformasi orqali test, guruh taqdimoti yoki amaliy ish orqali baholash.

Namunaviy qisqa dars rejasi (Musika madaniyati – 7-sinf):

1-jadval

Mavzu:	Buxoro – Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha.
Maqsad:	Buxoro – Samarqand musiqa uslubining o'ziga xos jihatlarini o'rgatish, ularni amaliy misollarda qo'llashga o'rgatish.
Darsning jihozlari:	7-sinf musiqa darsligi, rubob musiqa cholg'usi, doska, ko'rgazmalar, tarqatma kartochkalar, slaydlar, videolavhalar, audioyozuvlar.
Darsning borishi:	Kirish (5 daqiqa) – O'tilgan mavzuni so'rash, ovoz sozlash mashqlari. Asosiy qism (25 daqiqa) – Buxoro-Samarqand musiqa uslubi haqida ma'lumot berish, "Baljuvon" xalq kuyini tinglash, "Tinchlik bo'lsin" qo'shig'ini o'rganish. Yakun (10 daqiqa) – Xulosa, savol-javob, baholash. Uyga vazifa – Buxoro-Samarqand musiqa uslubi haqida ma'lumot tayyorlash. "Tinchlik bo'lsin" qo'shig'ini o'rganish.
Kutiladigan natija	O'quvchilarning musiqa faniga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'rganilgan bilimni hayotda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish, ijodkorligini rivojlantirish.
Kelgusida rejalar tahlil va o'zgarishlar	O'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish, ijrochilik (kuy ijro etish, qo'shiq kuylash) qobiliyatlarini shakllantirish.

2. O'qitish jarayoni bu – o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida maqsadli, tashkil etilgan ta'limiy faoliyat bo'lib, unda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi, shaxs tarbiyalanadi va rivojlanadi. O'qitish jarayoni – o'quvchini mustaqil fikrlashga, hayotiy muammolarni hal qilishga, jamiyatda faol shaxs bo'lib shakllanishiga yo'naltirilgan jarayondir.

O'qitish jarayonining asosiy jihatlari:

- Maqsadga yo'naltirilganlik-o'qitish jarayoni aniq maqsadga ega bo'ladi: bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirish.

- Ikki tomonlama xarakterga ega

O'qituvchi – bilimni tashkil etadi, yo'naltiradi, nazorat qiladi.

O'quvchi – faol ishtirok etib, bilimni o'zlashtiradi, mustaqil fikr yuritadi.

- Tizimlilik va uzluksizlik

O'qitish jarayoni sinf davomida izchil tashkil etiladi.

O'qitish jarayonining tarkibiy qismlari:

Maqsad – nimaga erishish kerakligi (bilim, ko'nikma, tarbiya).

Vazifalar – maqsadni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llari.

Mazmun – o'quv material (fakt, tushuncha, qonuniyatlar).

Metod va usullar – bilimni berish va o'zlashtirish yo'llari (suhbat, ko'rgazmali, amaliy).

Vositalar – darslik, ko'rgazma, texnik vositalar.

O'qituvchi faoliyati – tushuntirish, yo'naltirish, nazorat qilish.

O'quvchi faoliyati – tinglash, fikrlash, yozish, amalda bajarish.

Natija – bilim, ko'nikma va malaka shakllanishi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'sir kabilarni o'z ichiga oladi.

Pedagoglar ta'lim-tarbiyaning mazmuni o'qituvchining dars mashg'ulotiga yondashuviga asoslanishini ta'kidlashadi. "Komenskiyning fikricha, bolaga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun yosh xususiyatini hisobga

olish lozim" [7]. Shuningdek, Kim o'qitiladi? Nima o'qitiladi? Natija qanday bo'ladi? degan savollarga javob bera olsak, oldimizga qo'ygan maqsadimizga albatta erishamiz.

Fikrlarimizni asoslash nuqtayi nazaridan 7-sinf, musiqa madaniyati fanidan bir soatlik darsni tashkil etish tavsiyasini keltirib o'tamiz.

Mavzu: Buxoro – Samarqand musiqa uslubi haqida tushuncha.

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi.

O'qituvchi: Assalomu – alaykum, ilmga chanqoq yoshlar,

Ustozingiz sinfda mashg'ulotini boshlar.

O'quvchi: Assalomu – alaykum, mehridar-yo ustozim,

Darsga tayyormiz bu dam, ilm olmoqqa shaymiz.

O'quvchilar bilan kayfiyatni ko'taruvchi, dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan ovoz mashqi o'tkaziladi.

Ovoz sozlash mashqi: Dazmolu – gazmolu, archayu – parchayu, anjiru – zanjiru, shinniyo – chinniyo, ko'zayu – g'o'za qo'limda, Yallali bobo yalla.

Bilamizki, 5-,6-,7-sinflarda musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda musiqa savodi, musiqa tinglash va jamoa bo'lib kuylash kabi 3 ta faoliyat turidan foydalaniladi. Shu nuqtayi nazardan o'tilgan mavzuni so'rashda musiqa savodi faoliyatini qo'llash, bunda, "Kundalik" yoki "7 ta muhim fakt" metodlaridan foydalanish samarali bo'ladi.

Kundalik metodi



“Kundalik” metodi – o‘quvchilarning ma’lum fan doirasidagi bilimini oshirish, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, mavzuni o‘quvchi yaxshi o‘zlashtirishini ko‘zda tutilgan holda qo‘llaniladigan samarali metod.

“7 muhim ma’lumot” metodi – O‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, xotirasini mustahkamlash, aniq ma’lumot berish, tahlil qilish va munosabat bildira olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan metod.

Musika savodi faoliyatida o‘quvchilar birin-ketin “Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchiligi an‘analari yuzasidan daftarida qayd etgan ma’lumotlarini aytib o‘tadi.

1-ma’lumot: She’riy qismlarini qo‘shiq shaklida maxsus ichki bo‘g‘iq ovoz bilan kuy-lashgan.

2-ma’lumot: Baxshilarning jo‘rnavor cholg‘usi – do‘mbira.

3-ma’lumot: Dostonchilik ijrolari kuzda mavsum ishlari tugagandan keyin boshlanib, bahor fasli kelgunicha davom etgan.

4-ma’lumot: Baxshilar doston ijrolarini mehmonga chaqirilgan xonadonda ijro etishgan va bu jarayonda mahalla aholisi yig‘ilib ijroni tinglagan.

5-ma’lumot: Dostonlarni kuylash tartib qoidalariga ko‘ra avvalo aytimlar aytiladi.

6-ma’lumot: Terma-biror bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim.

7-ma’lumot: Baxshilar oilaviy bayram, to‘y marosimlari va boshqa tantanalarni o‘tkazishga ham taklif etilgan.


Ushbu metodni amaliyotda qo‘llash davrida o‘qituvchi tomonidan uy vazifasi yuzasidan o‘quvchilarning bilimni baholashda ma’lumotlarning takrorlanmasligi, muhimligi va to‘g‘riligi inobatga olinadi. Bu tartibda baholash o‘quvchini darslikdan tashqari mustaqil izlanish, ma’lumot o‘rganish va taqdim etishga o‘rgatadi.

Musika tinglash faoliyatida ushbu QR codda berilgan “Buxorocha raqs” videolavhasi ko‘rsatiladi. Kuyda ijro etilgan milliy cholg‘ularning nomini ayting, raqs ijro qilgan raqqosalarning liboslari haqida ma’lumot bering kabi topshiriqlarni berish o‘quvchiga musiqani diqqat bilan tinglash, milliy cholg‘ular hamda mahalliy uslublarga xos milliy liboslarni farqlay olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yangi mavzuni tushuntirishda “Sehrli qo‘ngan kapalak” metodidan foydalanishingiz mumkin.



QR cod, Buxorocha raqs



Sehrli kapalak metodi

“Sehrli kapalak” metodi – o‘quvchilarda tabiatga muhabbat, vatanga sadoqat hissini uyg‘otishga, vatanparvarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi, shuningdek, o‘quvchilarning diqqatini jamlash, qiziqishlarini o‘rganish, fanga doir bilimlarini oshirish, dunyoqarashlarini boyitish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorligini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shuningdek, metodni guruhlarda qo‘llash, guruh jamoalarining bir-birini baholash ko‘nikmasini shakllantirish, munosabat bildira olish qobiliyatini rivojlantiradi. Metodni amaliyotga

tatbiq etish jarayonida o'quvchilarning ijodkorligi asosida tayyorlangan ko'rgazmalardan foydalanish ham mumkin. Ushbu metodni 2 xil shaklda qo'llashimiz mumkin. Avvalo, o'quvchilar guruhga bo'linadi.

I shakli: 1 – guruh gulzor va parvoz etayotgan kapalaklarni chizishadi. O'qituvchi ranglar asosida 2 – guruhga tarqatma ma'lumotlarni tarqatadi, guruh a'zolari esa tarqatma ma'lumotlarni ketma-ket o'qib beradi. Bunda o'quvchilar ma'lumotni mustaqil o'rganishiga erishiladi.

II shakli: 1-guruh doskaga o'qituvchi tayyorlagan gulzor tasvirli ko'rgazmaga rangli kapalak stikerlarini yopishtiradi. 2-guruh kapalak stikerini olish orqali kapalak ortiga yashirilgan ma'lumotni sinfda o'qib beradi. Ushbu metod orqali o'quvchilar ma'lumotni mustaqil o'rganish, diqqatni jamlash va erkin ma'lumot berish ko'nikmalarini egallashadi.

Metod amaliyotda quyidagi ketma-ketlikda qo'llanadi. Qadrlı o'quvchilar, tasavvur qiling, siz gulzorda sayr qilmoqdasiz. Turfa gullar orasida turli rangdagi kapalaklar raqsga tushmoqda. Kapalak guldan sizga qo'ndi. Kapalaklar o'zi bilan qiziqarli ma'lumotlarni sizga tuhfa qilmoqda. O'zingiz tanlagan kapalak stikeri orqali muhim ma'lumotlarni o'qib eshittiring. Ko'rdingizmi, siz ma'lumot bilan tanishish va yetkazish imkoniyatiga ega bo'ldingiz.

O'quvchilar Kapalak stikerlari orqali o'zlashtirgan muhim ma'lumotlar:

1. (Sariq rangli kapalak) Buxoro va Samarqand – O'zbekistonning qadimiy madaniyat markazlari bo'lib, ularning musiqa uslublari ham o'ziga xosdir.

2. (Qizil rangli kapalak) Buxoro musiqa uslubi og'irroq, salobatliroq, tantanavor va chuqur falsafiy ohanglarga boy. Buxoro shashmaqom maktabi ijro uslubining qo'shiq va ashulalarida sokinlik, bosiqlik, murakkab ohanglar ustunlik qiladi.

3. (Havo rangli kapalak) Buxoro musiqa uslubida asosan, tanbur, dutor, g'ijjak, nay va doira cholg'ularida musiqa ijro etiladi.

4. (Yashil rangli kapalak) Yunus Rajabiy, Shorahim Shoumarov, Ota Jalol kabi hofizlar Buxoro musiqa uslubida ijro qilishgan.

5. (Jigar rangli kapalak) Buxoro musiqa uslubi ko'proq mumtoz, diniy-ma'rifiy va falsafiy mazmundagi ashulalar ijro etilishi bilan ajralib turadi.

6. (Qora rangli kapalak) Samarqand musiqa uslubi yengilroq, ravon, lirika va romantik ruhda ijro etilishi bilan ajralib turadi.

7. (Havo rangli kapalak) Ijro uslubida ko'proq keng ovoz diapazoni, jozibali ohang, xalqona yengillik seziladi.

8. (Jigar rangli kapalak) Samarqand musiqa uslubida asosan, dutor, rubob, nay va g'ijjak cholg'ularida musiqa ijro etiladi.

9. (Qizil rangli kapalak) Mashhur ijrochilar Abduqodir Ismoilov va Sherali Jo'rayev ijodida Samarqand musiqa uslubi seziladi.

10. (Qora rangli kapalak) Samarqand musiqa uslubida lirik-muhabbat ashulalari, xalqona ruhdagi kuy va qo'shiqlar ustunlik qiladi.

11. (Sariq rangli kapalak) Buxoro va Samarqand musiqa uslubining o'xshashligi mumtoz musiqaga tayanganidir.

12. (Yashil rangli kapalak) Ikki hudud musiqa uslubidagi farqlar: Buxoro musiqa uslubi jiddiyroq, falsafiy ohanglarga boy, Samarqand musiqa uslubi lirika va yengillikka moyilroq.

Dars jarayonida o'qituvchi 80/20 tamoyiliga asosan topshiriqni tushuntirish, o'quvchilarni yo'naltirish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Ya'ni, o'quvchilarning faolligi 80 foiz bo'lishi hisobiga darsning mazmunli va samarali bo'lishiga erishiladi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyatida darslikda Halima Ahmedova she'ri, Xurshida Hasanova musiqasi bilan berilgan "Tinchlik bo'lsin" qo'shig'ini bandlarga bo'lib, sinf o'quvchilarini 3 guruhga bo'lgan holda o'rgatishimiz asarni qisqa muddatda tez o'rganishga yordam beradi.

“Bulut ko‘kni qoplamasin,
 Quyosh kulsin, Quyosh kulsin,
 Biz istaymiz bu dunyoda,
 Tinchlik bo‘lsin, tinchlik bo‘lsin” [3].

Yangicha tashabbuslar, innovatsion g‘oyalar bilan ta’lim jarayonlari, sifatini oshirish, farzandlarimizning fanlarni mukammal o‘zlashtirishlari yo‘lida samaradorlikka erishishda bor bilim, salohiyatimiz va kuch qudratimizni safarbar etishimiz lozim.

Dunyo olimlari tomonidan “XXI asr – axborot texnologiyalari asri” deb atalishi, dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimi yuksak darajada rivoj topayotgani, aynan ta’lim sohasiga ham jadal kirib borgani va ish sifatining rivojida namoyon bo‘ladi. Masalan, kundalik com. platformasi orqali elektron jurnalning joriy etilishi ortiqcha sarf-xarajatlar, xususan, qog‘ozbozlikning oldini olish, qolaversa, ota-onalar uchun istalgan vaqtda, istalgan joyda shaxsiy login va paroli orqali farzandining o‘zlashtirish darajasini o‘rganish imkonini beradi. Demak, bugungi kun o‘qituvchisi darsni qiziqarli va mazmunli tashkil etishda zamonaviy AKT va multimedia vositalaridan samarali foydalanishi bilan bir qatorda farzandining bilim olishini nazoratga olish va qo‘llab-quvvatlashda ota-onalarning ham AKT savodxonligiga ega bo‘lishi kerakligini davr taqozo qiladi. Zero, kompyuter savodxonligini mukammal egallash barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham o‘zining ijobiy samarasini beradi.

2. Ma’lumki, hozirgi ilm-fan taraqqiyoti davrida o‘quvchilar bilimini baholashning bir qancha samarali yo‘llari va vositalari mavjud. Shulardan biri bugungi kunda ta’lim jarayonida ommalashib borayotgan onlayn platformalardan hisoblangan Kahoot platformasidir. Shu o‘rinda, sizga ushbu platformadan foydalanish haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Dastlab google brauzeri orqali Kahoot.com Kahoot! Quiz games platformasining yuqori qismida joylashgan sign up free – bepul ro‘yxatdan o‘tish oynasiga kiriladi. Ushbu oynadan teacher

– o‘qituvchi maqomi hamda ish joyiga school – maktab bo‘limi tanlanadi. Tezkor akkaunt yaratishda continue with google orqali shaxsiy elektron pochtagizdan foydalanishingiz mumkin. (Agar elektron pochtagiz bo‘lmasa, play market orqali yangi ochishingiz lozim bo‘ladi.) Ekranda ko‘ringan oynadan *create* – yaratish tugmasi bosiladi va Kahoot bo‘limi tanlanganda ekranda test yaratish oynasi ochiladi. Ushbu oynada test yaratishda foydalanadigan imkoniyatlar ham ko‘rsatilgan. Masalan, oyna markazida *find and insert media* sizga rasmlar tanlash imkonini bersa, upload media kompyuterinizda mavjud rasm va ma’lumotlardan testda foydalanish imkonini beradi. Ekraning *yuqori* qismiga savolni, *pastki* qismiga javoblarni kiritishingiz va to‘g‘ri javobni maxsus belgi orqali ajratib qo‘yishingiz, testlaringiz javobini 5-6 ta variantda berishingiz ham mumkin.

Shuningdek, oynaning chap burchagida *add question* bo‘limida savol qo‘shishning quiz, slayd, oddiy, murakkab ko‘rinishlaridan foydalanish imkoniyati berilgan bo‘lsa, oynaning o‘ng burchagida savol turi, vaqt chegarasi va baholash mezonlari keltirilgan. Test tuzishni yakunlagach, test to‘plamini nomlashingiz, *share* bo‘limi orqali linkni boshqalarga ulashishingiz, *host live – continue with no island-start* buyrug‘ini berish orqali testni onlayn shaklda ishga tushirish uchun boshlash, ya’ni, start tugmasini bosishingiz mumkin. Testni ishlash 2 xil shaklda amalga oshadi: 1-shakli: O‘qituvchi tomonidan testni tayyorlash jarayonida materiallari xavfsizligini saqlash uchun *pin cod* kiritiladi. Foydalanuvchi ushbu pin codni kiritganda, o‘qituvchi jarayonga *start* buyrug‘ini bergach, test boshlanadi. 2-shakli: *Quare codni* (KR) skanerlash orqali test jarayonida ishtirok etish mumkin. O‘quvchi to‘g‘ridan to‘g‘ri test savollarini yechishi mumkin. Har bir test yakunida g‘oliblar ko‘rinib turadi, bu esa ishtirokchilarni ruhlantiradi. Kahoot platformasi orqali tayyorlangan testni dars jarayonlarida qo‘llash o‘quvchilarda bilimni mustahkamlash,

to'g'ri qaror qilish, hozirjavoblik, zukkolik va tezkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Demak, siz testni ushbu link orqali joyladingiz (<https://create.kahoot.it/share/enter-kahoot-title/5ed76c8d-4ae0-456c-91a4-9119386d40d8>) [8].

O'quvchilarga test topshiriqlari berildi. Bir vaqtning o'zida hamma o'quvchilar mazkur platformaga shaxsiy telefoni yoki kompyuter orqali kirib javobni belgilab borishadi va jarayon yakunida natijalar platformada ko'rinadi. Agar dars jarayonida ushbu test sinovini o'tkazish imkoni bo'lmasa (sizda kompyuterga ehtiyoj yoki vaqt taqsimoti muammosi bo'lsa), testni uyda bajarish ko'rsatmasini berishingiz mumkin.

3. Darsning 40 daqiqa davom etishi o'quvchini toliqtiradi, shuning uchun didaktik o'yinlardan foydalanish lozim. Bu zamonaviy til bilan aytganda, "gamifikatsiya" ya'ni, o'qitishda o'yin elementlari orqali "motivatsiyani kuchaytirish" deyiladi. Qanday ishni amalga oshirishimiz, kundalik yumushlar yoki dars mashg'ulotlaridan qat'iy nazar bizga motivatsiya kerak bo'ladi. Hozirgi kunda ommalashib borayotgan ushbu atamaning izohiga to'xtaladigan bo'lsak, motivatsiya bu – shaxsni biror faoliyatga undovchi ichki ehtiyoj va tashqi omillar majmuasi. O'qitish jarayonida motivatsiya o'quvchilarning bilim olishga qiziqishi, faol ishtiroki va natijaga intilishida asosiy omil hisoblanadi. O'qituvchi har bir darsda motivatsion usullardan foydalanib, o'quvchilarda qiziqish va ishtiyoqni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlaydi, darsda ijobiy natijaga erishishni ta'minlaydi. Fikrimiz isboti tariqasida darsimizda bolalarga rag'bat va kayfiyat beruvchi "Kim zukko?" o'yinini qo'llaymiz. O'quvchilarni umumiy 2 guruhga bo'lamiz. Milliy musiqa cholg'ulari rasmi tasvirlangan tarqatma kartochkalarni stol ustiga teramiz va guruh a'zolaridan bittadan vakilni bir vaqtning o'zida stol oldiga stulga o'tirgan holda joylashtiramiz. Bunda o'quvchilar rasmi kartochkaga teskari

holatda o'tiradi va o'qituvchi aytgan cholg'u asbobini stolga qarab topishi kerak bo'ladi. O'quvchiga kayfiyat berish, diqqatini jamlash va faolligini oshirish uchun audioyozuvlar orqali musiqa qo'yiladi. So'ralayotgan cholg'u asbobi ijrosidagi kuy bo'lsa, o'quvchining bilimni mustahkamlashga ham erishish mumkin. Jarayon 3-4 daqiqa davom etadi. Albatta, bu o'yin so'ngida ham bellashuvda g'olib bo'lgan guruh baholash yo'li bilan rag'batlantiriladi.

5. Bugungi kunda inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishni rivojlanib borayotgan texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. "Shaxs kamoloti yo'lida zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talab – ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir" [5]. Shu ma'noda, sifatli ta'lim berishdagi eng muhim jihatlardan biri o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikdir. O'quvchi bilan hamkorlik – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bilim olish jarayonida tenglik, o'zaro hurmat va faol muloqot asosida tashkil etiladigan pedagogik munosabatdir.

O'quvchi bilan hamkorlikning mazmuni:

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonch – o'quvchi o'z fikrini erkin ayta olishi, savol berishdan qo'rqmasligi, har bir o'tilgan mavzuni erkin bayon qilishi.

Sheriklik asosida ta'lim – o'qituvchi bilimni "tayyor" bermaydi, balki o'quvchi bilan birgalikda izlaydi.

O'quvchini faol subyekt sifatida ko'rish – o'quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki yaratuvchi.

O'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash – o'qituvchi o'quvchining fikrini qadrlaydi, xatolarini to'g'rilashda uni kamsitmaydi.

Hamkorlikning asosiy tamoyillari:

Hamjihatlik – darsni birga tashkil etish.

Faollik – o'quvchi faol ishtirok etishi.

Erkinlik – fikr bildirish, savol berish huquqi.

Mas'uliyat – o'quvchi ham o'z bilimiga javobgar ekanini his qiladi.

O'qituvchi-o'quvchi hamkorligining shakllari:

Suhbat va muhokama – biror muammoni birgalikda hal qilish.

Guruhli ish – kichik jamoalarda ishlash, natijani birgalikda himoya qilish.

Loyiha usuli – o'quvchi va o'qituvchi bir mavzuda tadqiqot olib boradi.

Didaktik o'yinlar – rolli o'yinlar, musobaqalar orqali hamkorlik.

Refleksiya – dars oxirida birga xulosa chiqarish, baholash.

O'quvchi bilan hamkorlik ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanishga, mustaqil fikrlashga, mas'uliyatni his qilishga, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi – yo'l-boshchi, o'quvchi esa faol ishtirokchi bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishda muhim omildir. Ularning samarali qo'llanilishi o'quvchilarning bilim darajasini chuqurlashtirish, ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, eng asosiysi – ta'lim jarayonini zamon talablariga moslashtirish imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda o'rganilgan bilimni kelgusi hayotda qo'llay olish, tanlagan kasbiga bog'lash, o'quvchilarda ijodkorlik, jamoa

bilan ishlash, muammoli vaziyatlarda tanqidiy yondashgan holda munosib yechim topa olish ko'nikmalarini shakllantirishda xalqaro tajribalardan andoza olgan holda milliylikka uyg'unlashritish va amaliyotda qo'llash dolzarb sanaladi. O'quv jarayonini amalga oshirishda o'qituvchidan kasbini sevish, o'z ustida tinimsiz ishlash, har bir darsni san'at darajasida tashkil etish to'laqonli muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Shu bois, 7-sinf musiqa madaniyati fanidan bir soatlik dars ishlanma misolida darsni qiziqarli va sifatli tashkil etishga yordam beradigan tavsiyalarni berishni lozim topdik. Ta'kidlash o'rinliki, fan o'qituvchilarining dars ishlanmadan foydalanmayotgani darsda ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, darsni rejalashtirgan holda olib borish va darsdan so'ng ushbu o'tkazilgan darsi yuzasidan shaxsiy xulosasi asosida keyingi dars mashg'ulotlarini mazmunli tashkil etishga puxta tayyorgarlik ko'rish, darsni oldindan rejalashtirish davr talablaridan kelib chiqqan holda xalqaro talablarga javob beradigan, amaliyotda ijobiy natijaga erishilgan interfaol zamonaviy metodlardan unumli foydalanish mahoratli o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi va muvaffaqiyati omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Omonov N.T., Xo'jayev N.X. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: 2009.
2. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: 2011.
3. Ibrohimov O., Sadirov J. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017. – 15-16 b.
4. Xasanova N.N. O'zbek milliy musiqasi tarixidan. Umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda bolalar musiqa va san'at maktablari uchun uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2020.
5. Xasanova N. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish. Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati o'qituvchilari uchun o'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: 2018 – B. 25.
6. Mavlonova R.A. va boshqalar. Umumiy pedagogika. – Toshkent: 2018.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yan_Amos_Komenskiy.
8. <https://create.kahoot.it/share/enter-kahoot-title/5ed76c8d-4ae0-456c-91a4-9119386d40d8>

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TIMSS TALABLARIGA MOS TOPSHIRIQLARNI YARATISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

*Urazova Nasiba Urazbayevna,
Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik
mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
E-mail: urazovanasiba2@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17197736>*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) topshiriqlaridan namunalar asosida boshlang'ich sinf darslarida tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotda hayot fanlari, fizik fanlar va yer haqidagi fanlar sohalariga oid misollar keltirilgan bo'lib, bu orqali quyidagi "Bilish", "Qo'llash" va "Mantiqiy fikrlash" kognitiv domenlarida topshiriqlarni yechish metodikasi tahlil qilinadi. Maqolada keltirilgan topshiriqlar orqali o'quvchilarning nafaqat faktik bilimlarni egallab borishi, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish, tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'lim tizimida metodik tayyorgarlikni TIMSS mezonlari asosida rivojlantirish bo'yicha aniq misollar asosida ilmiy-nazariy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *TIMSS, boshlang'ich ta'lim, tabiiy fanlar, kognitiv ko'nikmalar, pedagogik texnologiya, bilish domeni, qo'llash domeni, mantiqiy fikrlash, topshiriq namunalari, o'quv jarayoni.*

**Технология создания и эффективного
использования заданий,
соответствующих требованиям
TIMSS в начальном образовании**

Уразова Насиба Уразбаевна,
Докторант Национального института
педагогического мастерства
имени Абдуллы Авлони
E-mail: urazovanasiba2@gmail.com

Аннотация: *В данной статье представлена информация о педагогических технологиях развития когнитивных навыков учащихся начальных классов по естественным наукам на основе образцов заданий TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study). В исследовании приведены примеры из областей наук о жизни, физических наук и наук о Земле, посредством которых анализируется методика решения заданий в когнитивных доменах "Знание", "Применение" и "Логическое рассуждение". Через представленные в статье задания описаны методы, направленные не только на усвоение учащимися фактологических знаний, но и на развитие их способности применять эти знания в практических ситуациях, анализировать и делать логические выводы. Наряду с этим, на основе конкретных примеров даны научно-теоретические рекомендации по развитию методической подготовки в системе начального образования на основе критериев TIMSS.*

Ключевые слова: *TIMSS, начальное образование, естественные науки, когнитивные навыки, педагогическая технология, домен знаний, домен применения, логическое мышление, образцы заданий, учебный процесс.*

Technology of developing and effective use of assignments aligned with TIMSS requirements in primary education

Urazova Nasiba Urazbayevna,

Doctoral student of the National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni
E-mail: urazovanasiba2@gmail.com

Abstract: This article provides information on pedagogical technologies for developing primary school students' cognitive skills in science subjects, based on sample tasks from TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study). The study provides examples from the fields of life sciences, physical sciences, and Earth sciences, through which the methodology for solving tasks in the cognitive domains of "Knowing," "Applying," and "Reasoning" is analyzed. The tasks presented in the article describe methods aimed not only at helping students acquire factual knowledge but also at developing their ability to apply this knowledge in practical situations, analyze, and draw logical conclusions. Furthermore, based on specific examples, scientific-theoretical recommendations are provided for developing methodological preparedness in the primary education system based on TIMSS criteria.

rough which the methodology for solving tasks in the cognitive domains of "Knowing," "Applying," and "Reasoning" is analyzed. The tasks presented in the article describe methods aimed not only at helping students acquire factual knowledge but also at developing their ability to apply this knowledge in practical situations, analyze, and draw logical conclusions. Furthermore, based on specific examples, scientific-theoretical recommendations are provided for developing methodological preparedness in the primary education system based on TIMSS criteria.

Keywords: TIMSS, primary education, science subjects, cognitive skills, pedagogical technology, knowledge domain, application domain, logical reasoning, task samples, learning process.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – bu Xalqaro ta'lim yutuqlarini baholash assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan 1995-yildan buyon har to'rt yilda bir marta o'tkazib kelinayotgan xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, u butun dunyo bo'yicha to'rtinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholaydi [1, 2, 5, 8].

TIMSS natijalari shuni aniq ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi, bilim darajasi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metakognitiv yondashuvlar, hamda STEM va TPACK modellarini egallashi va ulardan amaliyotda samarali foydalanish qobiliyati TIMSS dasturi doirasidagi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Shu asosda, boshlang'ich to'lim o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida o'rtaga chiqmoqda [3, 4, 9].


TIMSS tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Mazmun domenlari (Hayot fanlari, Fizik fanlar, Yer haqidagi fanlar) orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoning turlali sohalaridagi tushunchalarni qamrab olish darajasi aniqlandi bo'lsa, kognitiv domenlar (Bilish, Qo'llash, Mantiqiy Fikrlash) esa ularning o'zlashtirilgan bilimlarini amaliyotda qo'llash darajasini – oddiy eslab qolishdan tortib, murakkab muammolarni yechish qobiliyatigacha bo'lgan imkoniyatlarini baholaydi va bu yo'nalishda bir qator tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan [7, 8, 10].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlar bo'yicha kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu ko'nikmalar bilimni eslab qolishdan tashqari, uni tahlil qilish, qo'llash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Quydagi keltirilgan misollar orqali 4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan, har bir kognitiv domenga oid topshiriqlar va ularni yechishdagi fikrlash jarayonlari tahlil qilinadi. Bunda tabiiy fanlarga oid har bir mazmun domeni ichidagi kognitiv domenlarga oid 4-sinf

o'quvchilari uchun mo'ljallangan topshiriq rasm, topshiriqning mazmuni, o'quvchining namunalari va ularni yechish texnologiyalari fikrlash jarayoni va uning kognitiv domenga keltirilgan. Har bir misolda tasavvur qilingan mansubligi tahlil qilib boriladi.

1. HAYOT FANLARI

1.1. Bilish Domeni



Topshiriq tahlili: Tiriklik dunyosi misoli (4-sinf)

O'simlik qismlari

Topshiriq tavsifi: Rasmda berilgan o'simlik qismlarini to'g'ri nomlang (ildiz, poya, barg, gul, meva).

Mazmun sohasi: Tiriklik dunyosi (o'simliklar).

Bilish faoliyati: Bilish (faktlarni eslash, atamalarni aniqlash).



Yuqoridagi rasmda 2-raqam bilan belgilangan qism nima deb ataladi?


A) Ildiz B) Poya C) Barg D) Gul

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Tiriklik dunyosi (o'simliklar)
Mavzu	O'simlik qismlari
Maqsad	Rasmdagi berilgan o'simlik qismlarini (ildiz, poya, barg, gul, meva) to'g'ri aniqlash.
Kognitiv soha	Bilish (Faktlarni eslab qolish, atamalarni bog'lash)
Topshiriq darajasi	Oson (Asosiy daraja)
Baholash	Yuqoridagi rasmda 3-raqam bilan belgilangan qismni to'g'ri aniqlay olsa. Yechish texnologiyasi 1. Vizual tanishuv – O'quvchi o'simlik rasmini ko'radi va uning turli qismlarini, shu jumladan 2-raqam bilan belgilangan qismni diqqat bilan kuzatadi. 2. Faktik bilimlarni eslab qolish – O'quvchi o'simlikning asosiy qismlari (ildiz, poya, barg, gul) haqidagi bilimlarini eslaydi. U 2-raqamning o'simlikning yashil, yassi qismiga ishora qilganini tanib oladi. 3. To'g'ri javobni tanlash – Taklif qilingan variantlar orasidan (B) "Barg" variantini belgilaydi.
Ball	1
	0 Boshqa javoblar yoki javob yo'q

Tushuntirish: Bu topshiriq o'quvchining o'simliklarning asosiy qismlari haqidagi fundamental, eslab qolingani baholaydi. Bu yerda murakkab tahlil talab qilinmaydi, faqatgina mo'lumotni tanib olish va nomlash muhim.

1.2. Qo'llash Domeni



Yuqoridagi rasmdagi hayvonlarni ularning yashash joyiga qarab guruhlang.

- A) Ayiq va quyon suvda yashaydi. B) Tulki va kit o'rmonda yashaydi.
C) Baliq va meduza suvda yashaydi. D) Barcha hayvonlar bitta joyda yashaydi.

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Tirik tabiat
Mavzu	Hayvonlar va ularning yashash muhiti (klassifikatsiya)
Maqsad	Rasmdagi hayvonlarni ularning yashash joylariga (quruqlik, suv) qarab guruhlash.
Kognitiv soha	Qo'llash (Mo'lumotlarni qo'llash, tasniflash)
Topshiriq darajasi	O'rta (Oddiy muammolarni yechish)
Baholash	Yechish texnologiyasi 1. Vizual mo'lumotni tahlil qilish – O'quvchi rasmlarni diqqat bilan ko'rib chiqadi va har bir hayvonning qaysi muhitda tasvirlanganini aniqlaydi (o'rmon yoki dengiz). 2. Hayvonlarning yashash joyi haqidagi bilimlarni qo'llash – Har bir hayvonning tabiiy yashash joyi haqidagi o'z bilimlarini eslaydi (masalan, ayiq va quyon quruqlikda, baliq va meduza suvda yashaydi). 3. Guruhlash mezonini tushunish – Topshiriqdagi “yashash joyiga qarab guruhlang” ko'rsatmasiga amal qiladi. 4. Variantlarni baholash – Har bir A, B, C, D variantini tekshiradi va ularning hayvonlarning yashash joyiga mos kelishini baholaydi. C variantining to'g'ri ekanligini, chunki baliq va meduza haqiqatan ham suvda yashaydigan hayvonlar ekanligini aniqlaydi. 5. To'g'ri javobni tanlash – C variantini belgilaydi. Quruqlikda yashovchilar: Ayiq, Quyon, Tulki, Kiyik. Suvda yashovchilar: Baliq, Delfin, Meduza, Akula.
Ball	1
	0 Boshqa javoblar yoki javob yo'q

Tushuntirish: Bu topshiriq o'quvchining hayvonlar va ularning yashash joylari haqidagi bilimni berilgan vizual mo'lumot asosida guruhlash (tasniflash) vazifasida qo'llash qobiliyatini baholaydi. Bu tanish vaziyatda bilimni qo'llashni talab qiladi.

1.3. Mantiqiy fikrlash domeni



1-gultuvak: Derazaga qo'yilgan, quyosh nuri tushmoqda, o'simlik yashil va sog'lom.

2-gultuvak: Qorong'i shkafga qo'yilgan, hech qanday yorug'lik tushmayapti, o'simlik sarg'aygan va so'ligan.

Yuqoridagi ikki o'simlikka qarang. Nima uchun 2-gultuvakdagi o'simlik sarg'aygan va so'ligan? Javobingizni tushuntiring.

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Tirik tabiat
Mavzu	O'simliklarning o'sishi uchun zarur sharoitlar (yorug'lik)
Maqsad	Rasmdagi ikki o'simlikni taqqoslash orqali yorug'likning o'simlik hayotidagi muhimligini tushuntirish.
Kognitiv soha	Fikr yuritish/Tahlil qilish (Sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash)
Topshiriq darajasi	Qiyin (Murakkab muammolarni yechish / Tushuntirish)
Baholash	Ikkinchi gultuvakdagi o'simlikning sarg'ayishi va so'lishining sababini (yorug'lik yetishmasligini) to'g'ri tushuntira olsa. Yechish texnologiyasi 2-gultuvakdagi o'simlikning sarg'aygan va so'ligan bo'lishining sababi shundaki, u qorong'i shkafga qo'yilgan va unga hech qanday yorug'lik tushmayapti. O'simliklar yashashi va fotosintez jarayonini amalga oshirishi uchun quyosh nuri (yorug'lik) juda muhimdir. 1. Kuzatish va mo'lumotlarni taqqoslash – O'quvchi ikkala rasm orasidagi farqni diqqat bilan kuzatadi. Birinchi o'simlikning yashil va sog'lom, ikkinchisining esa sarg'aygan va so'ligan ekanligini, shuningdek, birinchi o'simlik quyosh nuri ostida, ikkinchisining esa qorong'ida ekanligini payqaydi. 2. Sabab-oqibat munosabatini aniqlash – O'simliklarning yashashi uchun quyosh nuri muhim ekanligi haqidagi o'z bilimini eslaydi (fotosintezning asosiy shartlaridan biri). 3. Xulosa chiqarish – Ikkinchi o'simlikning qorong'ida bo'lishi uning so'lishiga sabab bo'lgan degan mantiqiy xulosaga keladi. 4. Tushuntirishni shakllantirish – Javobni "O'simliklar yashashi va o'sishi uchun quyosh nuri (yorug'lik)ga muhtoj. Ikkinchi o'simlik qorong'ida bo'lgani uchun yetarli quyosh nuri olmagan va shuning uchun so'ligan" tarzida tushuntiradi.
Ball	1
	0 Boshqa javoblar yoki javob yo'q

Tushuntirish: Bu topshiriq o'quvchining ikkita kuzatishdan (o'simlikning holati va yorug'lik sharoiti) mantiqiy sabab-oqibat munosabatini aniqlash va oddiy ilmiy tushuntirish berish qobiliyatini baholaydi. Bu tanqidiy fikrlashning boshlang'ich bosqichidir.

2. FIZIK FANLAR

2.1. Bilish domeni



Yuqoridagi rasmda suvning qaysi holatlari ko'rsatilgan?

- A) Faqat suyuq B) Faqat qattiq va suyuq
C) Qattiq, suyuq va gaz D) Faqat gaz

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Jonsiz tabiat
Mavzu	Suvning agregat holatlari
Maqsad	Rasmdagi obyektlarga qarab suvning turli agregat holatlarini (qattiq, suyuq, gazsimon) aniqlash.
Kognitiv soha	Bilish/Qo'llash (Faktlarni eslab qolish, vizual mo'lumotni tahlil qilish)
Topshiriq darajasi	Oson (Asosiy daraja)
Baholash	Yuqoridagi rasmda suvning qaysi holatlari ko'rsatilganligini to'g'ri aniqlay olsa. Yechish texnologiyasi Vizual tanishuv – O'quvchi uchta stakandagi narsalarni (muz, suv, bug') ko'radi. Faktik bilimlarni eslab qolish – Suvning uchta asosiy holati: qattiq (muz), suyuq (suv) va gaz (bug') haqidagi bilimlarini eslaydi. Holatlarni aniqlash – Rasmdagi har bir shaklga mos keladigan holatni aniqlaydi. To'g'ri javobni tanlash – Uchala holat ham ko'rsatilganligini bilib, C variantini belgilaydi.
Ball	1
	0 Boshqa javoblar yoki javob yo'q

Tushuntirish: Bu topshiriq o'quvchining moddalarning holatlari (xususan, suvning) haqidagi asosiy faktik bilimlarni eslab qolish va tanib olish qobiliyatini baholaydi.

2.2. Qo'llash domeni



Agar siz stol ustidagi qutini sursangiz, kuchni qaysi yo'nalishda qo'llaysiz?


- A) Faqat yuqoriga
- B) Faqat pastga
- C) Surilayotgan yo'nalishda
- D) Faqat yon tomonga

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar (Fizika elementlari)
Mavzu sohasi	Harakat va kuch
Mavzu	Kuchning yo'nalishi
Maqsad	Berilgan vaziyatda obyektga ta'sir etuvchi kuchning yo'nalishini to'g'ri aniqlash.
Kognitiv soha	Qo'llash (Kundalik tajribani tahlil qilish)
Topshiriq darajasi	Oson (Asosiy daraja)
Baholash	Stol ustidagi qutini surish uchun kuch qaysi yo'nalishda qo'llanilishini to'g'ri aniqlay olsa. Yechish texnologiyasi Vaziyatni tushunish – O'quvchi rasmdagi vaziyatni (qutini surish) ko'z oldiga keltiradi. Kuch tushunchasini qo'llash – Kuchning obyektga harakatga keltirishini biladi va "surish" harakatining qanday yo'nalishda bo'lishini o'ylaydi. Kundalik tajribadan foydalanish – Kundalik hayotdagi shunga o'xshash vaziyatlarni eslaydi. Masalan, eshikni itarganda yoki o'yinchoq mashinani surganida kuch qaysi yo'nalishda qo'llanganini eslaydi. Xulosa chiqarish – Obyektga qaysi tomonga surmoqchi bo'lsa, kuchni o'sha yo'nalishda qo'llash kerakligini anglaydi. To'g'ri javobni tanlash – C variantini belgilaydi.
Ball	1
	Boshqa javoblar yoki javob yo'q

Tushuntirish: Bu topshiriq o'quvchining kundalik hayotdagi tanish vaziyatda kuchning yo'nalishi haqidagi tushunchasini qo'llash qobiliyatini baholaydi.

2.3. Mantiqiy fikrlash domeni



Nima uchun yozda quyoshli kunlarda hovli issiq bo‘ladi, bulutli kunlarda esa salqinroq? Javobingizni tushuntiring.

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Jonsiz tabiat / Ob-havo
Mavzu	Quyosh nuri va bulutlarning haroratga ta’siri
Maqsad	Quyosh nuri va bulutlarning havo haroratiga ta’sirini tushuntirish.
Kognitiv soha	Fikr yuritish/Tahlil qilish (Sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash)
Topshiriq darajasi	Qiyin (Murakkab tushunchalarni tushuntirish)
Baholash	Yozda quyoshli kunlarning issiq, bulutli kunlarning esa salqinroq bo‘lish sababini to‘g‘ri tushuntira olsa. Yechish texnologiyasi Kuzatish va ma’lumotlarni tahlil qilish – O‘quvchi rasmlardagi farqlarni (quyosh bor/yo‘q, ob-havo holati, termometr ko‘rsatkichlari) payqaydi. Sabab-oqibat munosabatini izlash – Quyosh nuri va issiqlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni eslaydi. Yo‘ni, quyoshning nurlari issiqlik olib kelishini biladi. Mantiqiy xulosa chiqarish – Bulutlar quyosh nurlarini Yerga yetib kelishiga to‘sqinlik qilishini, shu sababli Yerning kamroq issiqlik olishini tushunadi. Tushuntirishni shakllantirish – Javobni “Quyosh bizga yorug‘lik va issiqlik beradi. Quyoshli kunlarda quyosh nurlari bevosita yerga tushib, uni isitadi. Bulutli kunlarda esa bulutlar quyosh nurlarini to‘sib qo‘yadi, shuning uchun yerga kamroq issiqlik yetib boradi va havo salqinroq bo‘ladi.” tarzida tushuntiradi.
Ball	1
	0 Boshqa javoblar yoki javob yo‘q

Tushuntirish: Bu topshiriq o‘quvchining ob-havo hodisalari va issiqlik manbalari o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, oddiy ilmiy tushuntirish berish va real hayot hodisasini izohlash qobiliyatini baholaydi.

3. YER HAQIDAGI FANLAR

3.1. Bilish domeni



Yuqoridagi rasmda qaysi tabiiy jarayon ko'rsatilgan?


- A) Shamolning esishi B) Suvning tabiatda aylanishi
 C) Tuproqning hosil bo'lishi D) Vulqon otilishi

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Jonsiz tabiat / Atrof-muhit
Mavzu	Suv aylanishi (Tabiatda suvning harakati)
Maqsad	Rasmda tasvirlangan suvning tabiatdagi aylanish jarayonini aniqlash.
Kognitiv soha	Bilish (Terminologiyani eslab qolish, jarayonlarni tanib olish)
Topshiriq darajasi	Oson (Asosiy daraja)
Baholash	Yuqoridagi rasmda qaysi tabiiy jarayon ko'rsatilganligini to'g'ri aniqlay olsa. Yechish texnologiyasi Vizual tanishuv – O'quvchi rasmdagi suvning harakatini (bug'lanish, bulutga aylanish, yomg'ir yog'ishi) ko'radi. Faktik bilimlarni eslab qolish – Suvning Yerda va havoda uzluksiz harakatlanishi – bu “suv sikli” yoki “suvning tabiatda aylanishi” deb atalishini biladi. To'g'ri terminologiyani aniqlash – Rasmdagi jarayonning ilmiy nomini eslaydi. To'g'ri javobni tanlash – B variantini belgilaydi.
Ball	1
	0 Boshqa javoblar yoki javob yo'q

Tushuntirish: Bu topshiriq o'quvchining suv sikli haqidagi asosiy faktik bilimini tanib olish va uning nomini bilish qobiliyatini baholaydi.

3.2. Qo'llash domeni



Agar siz daraxt ekmoqchi bo'lsangiz, yuqoridagi qaysi tuproq turini tanlagan bo'lardingiz va nima uchun?

- A) Birinchi tuproq, chunki u quruq.
- B) Ikkinchi tuproq, chunki u toshli.
- C) Birinchi tuproq, chunki u nam va unumdor.
- D) Ikkinchi tuproq, chunki u ochiq rangda.

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Tirik tabiat / Tuproq va uning xossalari
Mavzu	Tuproq turlari va o'simliklar uchun ahamiyati
Maqsad	Turli tuproq turlarini farqlash va ularning o'simliklarning o'sishiga ta'sirini tushuntirish.
Kognitiv soha	Fikr yuritish/Tahlil qilish (Sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash, tanlovni asoslash)
Topshiriq darajasi	Qiyin (Murakkab tushunchalarni tushuntirish va asoslash)
Baholash	Daraxt ekish uchun qaysi tuproq turini tanlash kerakligini va nima uchunligini to'g'ri tushuntira olsa. Yechish texnologiyasi Vaziyatni tushunish – O'quvchi daraxt ekish vaziyatini va tuproqning ahamiyatini tushunadi. Tuproq xususiyatlari haqidagi bilimlarni qo'llash – O'simliklar yaxshi o'sishi uchun qanday tuproq kerakligi haqidagi bilimlarni (nam, unumdor, ozuqaga boy) eslaydi. Rasmdagi ikki tuproqning xususiyatlarini (birinchisi nam, qora; ikkinchisi quruq, och rangda) taqqoslaydi. Tanish vaziyatda tanlov qilish – Birinchi tuproq o'simliklarning o'sishi uchun qulayroq ekanligini anglaydi. Tanlovni asoslash – Birinchi tuproqning nam va unumdor ekanligini, bu o'simliklar uchun yaxshi ekanligini tushuntiradi. To'g'ri javobni tanlash – C variantini belgilaydi.
Ball	1
	0 Boshqa javoblar yoki javob yo'q

Tushuntirish: Bu topshiriq o'quvchining tuproqning unumdorligi va o'simliklarning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik haqidagi bilimni amaliy (tanish) vaziyatda qo'llashini baholaydi.

3.3. Mantiqiy fikrlash(mulohaza) domeni



Yuqoridagi ikki daryo rasmini ko'ring. Ikkinchi daryo nima uchun ifloslangan va bu narsa odamlarga va hayvonlarga qanday to'sir qilishi mumkin? Javobingizni tushuntiring.

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Atrof-muhit / Ekologiya
Mavzu	Suvning ifloslanishi va uning oqibatlari
Maqsad	Rasmlarni solishtirish orqali suvning ifloslanishi sabablarini aniqlash va uning tirik organizmlarga (odamlar va hayvonlarga) ta'sirini tushuntirish.
Kognitiv soha	Fikr yuritish/Tahlil qilish (Sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash, muammoli vaziyatni tushuntirish)
Topshiriq darajasi	Qiyin (Murakkab tushunchalarni tushuntirish va asoslash)
Baholash	Ikkinchi daryoning ifloslanish sababini va bu ifloslanishning odamlarga hamda hayvonlarga qanday ta'sir qilishini to'g'ri tushuntira olsa. Yechish texnologiyasi Kuzatish va muammoni aniqlash – O'quvchi ikkala daryo rasmini taqqoslaydi va ikkinchi daryoning ifloslanganligini (chiqindilar, o'lik baliqlar) va bu holatning salbiy oqibatlarini (hayvonlar ichmaydi, odamlar foydalana olmaydi) aniqlaydi. 1. Sabab-oqibat munosabatlarini izlash – Daryoning ifloslanishi sabablari haqida fikr yuritadi. Boshlang'ich sinf darajasida bu ko'pincha inson faoliyati (axlat tashlash, zavod chiqindilari) bilan bog'liq bo'ladi. 2. Oqibatlarini bashorat qilish va izohlash – Hayvonlarga to'siri – Ifloslangan suvda baliqlar yashay olmasligini, boshqa hayvonlar uni icha olmasligini tushunadi. Odamlarga to'siri – Ifloslangan suv kasalliklarga olib kelishini, undan foydalanib bo'lmasligini biladi. 3. Tushuntirishni shakllantirish – Javobni "Ikkinchi daryo odamlar tashlagan axlatlar va bo'zi zavodlardan oqib chiqqan zararli narsalar tufayli ifloslangan. Bu juda yomon, chunki daryodagi baliqlar va boshqa hayvonlar bu suvda yashay olmaydi yoki uni ichsa kasal bo'ladi. Odamlar ham bu suvdan icha olmaydi yoki undan foydalana olmaydi, chunki u kasallik tarqatishi mumkin. Suvni toza saqlashimiz kerak." tarzida izohlaydi.
Ball	1
	0 Boshqa javoblar yoki javob yo'q

Tushuntirish: Bu topshiriq o'quvchining ekologik muammoni (suv ifloslanishi) tahlil qilish, uning sabablarini taxmin qilish, odamlarga va tabiatga to'sirini bashorat qilish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyati haqida mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini baholaydi. Bu boshlang'ich sinf darajasidagi murakkabroq fikrlashni talab qiladi.

Tabiiy fanlar "Bilish" darajasidagi topshiriqlarga (umumiy namunalar)

Topshiriq-1: Anvar bir idishga no'xat ekdi. U idishni qorong'i, sovuq joyga qo'ydi va unga suv bermadi. Sizningcha, no'xat o'sadimi? Nima uchun

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Jonsiz tabiat
Mavzu	Havo va uning xossalari
Maqsad	Havoning mavjudligini va uning ba'zi xossalari (rangsiz, hidsiz, joy egallaydi) oddiy tajribalar orqali tushunish.
Kognitiv soha	Bilish
Topshiriq darajasi	Oson (Asosiy daraja)
Baholash	Oddiy tajribada havoning mavjudligini yoki xossasini ko'rsata olsa. To'g'ri javob: Chunki idish "bo'sh" emas, uning ichida havo bor edi. Suv kirganda havo tashqariga pufakchalar shaklida chiqadi. Bu havoning joy egallashini ko'rsatadi.
Ball	1

Tabiiy fanlar "Qo'llash" darajasidagi topshiriqlar(umumiy namunalar)

Topshiriq-2: Quyidagi hayvonlardan qaysi biri asosan o't-o'lanlar bilan oziqlanadi?

A) Arslon B) Sigir C) Ayiq D) Bo'ri

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Tirik tabiat
Mavzu	Hayvonlarning ovqatlanishi (o'txo'r, yirtqich, hammaxo'r)
Maqsad	Hayvonlarni ovqatlanish turiga ko'ra tasniflash va ularga misollar keltirish.
Kognitiv soha	Qo'llash
Topshiriq darajasi	O'rta (Oddiy muammolarni yechish)
Baholash	Berilgan hayvonni uning ovqatlanish turiga ko'ra to'g'ri tasniflay olsa. To'g'ri javob: B) Sigir.
Ball	1

Tabiiy fanlar “Mulohaza yuritish” darajasidagi topshiriqlar (umumiy namunalar)

Topshiriq-3: Anvar bir idishga no‘xat ekdi. U idishni qorong‘i, sovuq joyga qo‘ydi va unga suv bermadi. Sizningcha, no‘xat o‘sadimi? Nima uchun?

TOPSHIRIQ TASNIFI

Mazmun sohasi	Tabiiy fanlar
Mavzu sohasi	Tirik tabiat
Mavzu	O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi
Maqsad	O‘simlikning o‘sishi uchun zarur sharoitlarni (suv, yorug‘lik, issiqlik) aniqlash va ularning ahamiyatini tushuntirish.
Kognitiv soha	Qo‘llash/Fikr yuritish
Topshiriq darajasi	O‘rta (Oddiy muammolarni yechish)
Baholash	Berilgan vaziyatda o‘simlikning sog‘lom o‘sishi uchun qanday sharoitlar muhimligini aniqlay olsa. To‘g‘ri javob: Yo‘q, o‘smaydi. Chunki o‘simliklarning o‘sishi uchun yorug‘lik, issiqlik va suv kerak. Anvar no‘xatni qorong‘i va sovuq joyga qo‘ygan, hamda suv bermagan.
Ball	1

Yuqorida keltirilgan misollar TIMSS tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlari va ko‘nikmalarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Mazmun domenlari (Hayot fanlari, Fizik fanlar, Yer haqidagi fanlar) o‘quvchilarning ilmiy dunyoning qaysi sohalarida tushunchalarni egallaganligini ko‘rsatsa, kognitiv domenlar (Bilish, Qo‘llash, Mantiqiy Fikrlash) ularning bu bilimlarni qanday darajada qo‘llay olishini (yo‘ni, shunchaki eslab qolishdan tortib, murakkabroq masalalarni hal qilishgacha) baholaydi.

TIMSS topshiriqlari asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali

vositasidir. Ushbu texnologiyalar “Bilish”, “Qo‘llash” va “Mantiqiy fikrlash” kognitiv domenlariga mo‘ljallangan tizimli topshiriqlar orqali nafaqat faktik bilimlarni mustahkamlaydi, balki o‘quvchilarda analitik fikrlash, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish, bilimlarni amaliy hayot vaziyatlarida qo‘llash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazmun domenlari (hayot, fizik, yer fanlari) bilan kognitiv domenlarni integratsiya qilgan holda tuzilgan topshiriqlar bolalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularni atrof-muhit bilan faol o‘zaro munosabatda bo‘lishiga yo‘naltiradi va kelajakda murakkabroq fanlarni o‘zlashtirish uchun puxta asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ergasheva M. Monitoring of functional literacy formation: main directions and preliminary results. For Publication of Paper Yentitled. In Volume 3, Issue 11 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Nov., 2022. Nov., 2022. – P. 148-152. (Journal Impact Factor 7.565).
2. Ergasheva M. Preliminary Results of Natural Literacy Assessment in TIMSS International Research through STesting Electronic Platform. Published in Spanish Journal of Innovation and Integrity (ISSN: 2792-8268) (Journal Impact Factor 7.545) 2023. – P. 92-94.
3. Ergasheva M. va boshqalar. PISA, PIRLS TIMSS xalqaro baholash dasturlariga maktab o'quvchilarini tayyorlash mexanizmlari. Metodik qo'llanma, – Toshkent, 2022-yil. – 212 b.
4. Ergasheva M. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablar uchun treninglar o'quv dasturi. Metodik tavsiya. To'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Tabiiy savodxonlik bo'yicha. – Toshkent, 2021 y. – 245 b.
5. Ismailov A.A., Xodjanizayov S.U., Nafasov D.Sh., Matyakubova N.A. Xalqaro baholash tizimi: Darslik. – Toshkent: "Dimal" nashriyoti, 2024. – 316 b.
6. Ismailov A.A., Tog'ayeva G., Akbarova S., Asqarova D. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2019.
7. Ismailov A.A., Daminov X.J., Kosimova Z.A., Pirimov G.A., Djusupov N.M., Abduganiyeva J.R., Omonova Sh.A., Qodirova M.N. Kreativ fikrlashni baholash "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish.
8. Ismailov A.A., Norboyeva D., Ahmedov H., Manapova D., Uralova M., Baybayeva M., Erkinova N., Kovalyova G., Sidorova G. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2019.
9. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., & Arora, A. (2012). TIMSS 2011 Assessment Frameworks. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
10. TIMSS 2019. Baholash qamrov doirasi. To'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) TIMSS 2019 baholash qamrov doirasi. Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar. Publishers: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College and International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). Toshkent – 2021-y. – B. 6-10.

MAKTAB TA'LIMI VA UZLUKSIZ TA'LIM: MILLIY ISLOHOTLAR VA XALQARO TAJRIBALAR

*Daminova Go'zal Vaydulla qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17192130>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'limi va uzluksiz ta'lim tizimining mohiyati, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar hamda xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Maktab ta'limi shaxs kamolotining asosiy bosqichi bo'lib, u uzluksiz ta'lim tizimining poydevorini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar umumiy o'rta ta'limni rivojlantirishga, zamonaviy maktablar faoliyatini yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda tan olingan Finlyandiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi davlatlarning ta'lim tajribalari o'rganilib, ularning uzluksiz ta'lim konsepsiyasidagi yondashuvlari tahlil qilinadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, uzluksiz ta'lim inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarni raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada milliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'llari, xalqaro tajribadan samarali foydalanishning afzalliklari hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Maktab ta'limi, uzluksiz ta'lim, islohotlar, xalqaro tajriba, milliy dastur, ta'lim tizimi, innovatsiya, malaka oshirish.

Школьное образование и непрерывное образование: национальные реформы и международный опыт

Даминова Гузал Вайдулла кызы,
Студентка 3 курса педагогического
направления Шахрисабзского государственного
педагогического института

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность школьного образования и системы непрерывного образования, проводимые в нашей стране реформы, а также анализируется международный опыт. Школьное образование является основным этапом формирования личности и служит фундаментом системы непрерывного образования. В годы независимости в Узбекистане были приняты "Национальная программа подготовки кадров" и последующие реформы, направленные на развитие общего среднего образования и организацию деятельности современных школ. Наряду с этим изучается образовательный опыт таких стран, как Финляндия, Южная Корея и Германия, и анализируются их подходы в концепции непрерывного образования. Мировая практика показывает, что непрерывное образование является важным фактором в развитии человеческого капитала и формировании конкурентоспособных специалистов среди молодежи. В статье научно обоснованы пути дальнейшего совершенствования национальной системы образования, преимущества эффективного использования международного опыта и приоритетные задачи на будущее.

Ключевые слова: Школьное образование, непрерывное образование, реформы, международный опыт, национальная программа, образовательная система, инновации, повышение квалификации.

**School education and continuous education:
national reforms and international experiences**

Daminova Guzal,

3rd year student of the pedagogical direction of the Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: *This article examines the essence of school education and the continuous education system, along with the reforms implemented in Uzbekistan and reviews international experiences. School education is the primary stage of personal development and serves as the foundation of the continuous education system. The “National Program for Personnel Training” adopted during the years of independence aims to enhance general secondary education and establish modern schools. Additionally, the recognized educational experien-*

ces of countries such as Finland, South Korea, and Germany are studied to analyze their approaches within the concept of continuous education. Global practice demonstrate that continuous education is a key factor in developing human capital and preparing youth to become competitive professionals. The article provides a scientific discussion on ways to further improve the national education system, highlights the benefits of effectively utilizing international experience, and outlines priority tasks for the future.

Keywords: *School education, continuous education, reforms, international experience, national program, education system, innovation, professional development.*

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi har bir davlat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki sifatli ta'lim – inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarni intellektual salohiyatli va raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, maktab ta'limi va uzluksiz ta'lim konsepsiyasi zamonaviy jamiyatda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilmogda.

Maktab ta'limi shaxsning dunyoqarashini shakllantiruvchi, bilim va ko'nikmalarni beruvchi, mustaqil hayotga tayyorlovchi muhim bosqichdir. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan boshlab maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari va islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 1997-yilda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mamlakat ta'lim tizimida tub burilish yasab, ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashga asos bo'ldi. So'nggi yillarda ham Prezidentimiz tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'limni modernizatsiya qilish, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, o'quv

dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi esa insonning hayot davomida bilim va ko'nikmalarini yangilab borishini ta'minlaydigan tizimdir. Bugungi kunda bu konsepsiya nafaqat maktab va oliy ta'limni, balki maktabgacha ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash va norasmiy ta'lim shakllarini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, uzluksiz ta'limning samarali ishlashi mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, yoshlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Finlyandiya ta'lim tizimida maktab ta'limining yuqori samaradorligi, Janubiy Koreyada ta'lim jarayonining innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, Germaniyada esa dual ta'lim tizimi (nazariya va amaliyot uyg'unligi) uzluksiz ta'limni rivojlantirishda muvaffaqiyatli modellardan hisoblanadi. YUNESKO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar ham “umr bo'yi ta'lim” konsepsiyasini zamonaviy jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etmoqda.

Shunday qilib, mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar va xalqaro tajribalar asosida maktab ta'limi hamda uzluksiz ta'limning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi, shuningdek, milliy modelni yanada takomillashtirishga doir takliflar beriladi.

Maktab ta'limi va uzluksiz ta'limning mohiyati. Maktab ta'limi – shaxs kamolotining poydevori bo'lib, insonning bilim olish, mustaqil fikrlash, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonini ta'minlaydi. Zamonaviy maktab nafaqat o'quvchilarga bilim beruvchi maskan, balki ularning ijtimoiylashuvi, kasbiy yo'nalishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, maktab ta'limi inson hayotidagi uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi sifatida qaraladi. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan [7]. Maktab, ta'lim va tarbiya masalalari davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonunida belgilangan bo'lib, bu ta'lim sohasining milliy taraqqiyotdagi ustuvor o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi. Zero, davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan qonunlar, davlat dasturlari, ta'lim standartlari bilan bir qatorda, jamiyatning faol ishtiroki ham ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilaydi. Ota-onalar, mahalla va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi natijasidagina maktab ta'limi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq ado etishi mumkin. Bu esa, bir tomondan, ta'lim muassasalarida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlasa, ikkinchi tomondan, ta'lim jarayonida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ularning mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishga zamin yaratadi.

Uzluksiz ta'lim esa – shaxsning butun umri davomida ta'lim olish jarayonini o'z ichiga oluvchi tizimdir. Bu tushuncha maktabgacha ta'limdan boshlanib, maktab, o'rta maxsus ta'lim, oliy ta'lim, malaka oshirish va kasbiy qayta tayyorlash jarayonlarini qamrab oladi. YUNESKO ta'rifiga ko'ra, uzluksiz ta'lim – bu “umr bo'yi o'qish” konsepsiyasidir. U zamonaviy jamiyatda inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. YUNESKO 1988-yili o'zining mashhur qarori bilan XX asr pedagogik konsepsiyalarining shakllanishiga jiddiy hissa qo'shgan to'rt pedagogni alohida e'tirof etgan. Bular Djon Dyu, Georg Kershenshteyner, Maria Montessori va Anton Makarenkolar. Ular tomonidan ilgari surilgan ta'limning maqsad va vazifalari o'z davri uchun hamda aksariyat g'oyalar bugungi kun ta'limi uchun ham g'oyat dolzarbdir [3]. Ushbu pedagoglar tomonidan ilgari surilgan ta'limning maqsad va vazifalari o'z davri uchun yuksak ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgan bo'lsa, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Masalan, Djon Dyu ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, Georg Kershenshteyner ta'limni ishlab chiqarish va kasbiy tayyorgarlik bilan bog'lash g'oyasini ilgari surgan. Maria Montessori bolalarning shaxsiy qiziqishi va tabiiy rivojlanishiga asoslangan pedagogik metodni joriy etgan, Anton Makarenko esa jamoada tarbiya berish orqali shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga alohida urg'u bergan. Ushbu g'oyalar nafaqat o'z davrida, balki hozirgi kunda ham ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni mehnat bozoriga tayyorlash va ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, uzluksiz ta'lim konsepsiyasini ishlab chiqishda va uni amaliyotga tatbiq etishda ush-

bu pedagoglarning ilmiy merosi bugungi kunda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, maktab ta'limi va uzluksiz ta'lim bir-biridan ajralmas, bir-birini to'ldiruvchi ikki tizim bo'lib, mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhitni, jamoa a'zolari-ning qanchalik darajada dunyo ta'lim bozoridagi yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur. Pedagogika – ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimi: obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo'lmashlik uning asosiy xarakteristikalaridir [4].

O'zbekistonda maktab ta'limi va uzluksiz ta'limdagi islohotlar. O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi davrda ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. 1997-yilda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun milliy ta'lim tizimining konseptual asoslarini belgilab berdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir [7]. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi [5]. Ushbu hujjatlar

ta'limning uzluksizligi, bosqichma-bosqichligi va sifatini oshirishni nazarda tutadi. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida talab etilganidek ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligiga erishishimiz, yoshlarda “Boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat” ruhida tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun esa tariximizning har bir davrini obyektiv o'rganishimiz, unga haqqoniy baho berishimiz va har bir davrdagi ilg'or qarashlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga olib kirishga harakat qilishimiz kerak. Yurtboshimiz bu masalaga o'z asarlarida alohida e'tibor berib kelmoqdalar [1]. So'nggi yillarda maktab ta'limini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda:

- umumiy o'rta ta'lim tizimi 11 yillik shaklda qayta joriy etildi;
- xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlari ishlab chiqildi;
- maktablarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda;
- raqamli ta'lim texnologiyalari va elektron darsliklar joriy qilinmoqda;

mo'qituvchilarning malakasini oshirish, ularning kasbiy faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, “O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi” asosida maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'lim va kattalar ta'limigacha bo'lgan barcha bo'g'inlar o'zaro uzviy bog'langan holda qayta tashkil etilmoqda. Natijada, mamlakatda ta'limning butun hayot davomida davom etishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Boshlang'ich sinfda olingan bilim keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o'taganligi sababli ta'lim sifatini oshirish pedagoglar oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar, xususan, boshlang'ich sinf o'qituvchi-

lari darslarda yangi zamon ruhini, yangi nafasni olib kirish orqali o'quvchilar bilimni rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'stirishga katta e'tibor qaratishlari talab etiladi [2].

Xalqaro tajribalar va O'zbekiston bilan taqqoslash. Jahonning ilg'or mamlakatlari-da maktab ta'limi va uzluksiz ta'limning turli modellari mavjud:

- Finlyandiya – dunyodagi eng samarali maktab ta'limi tizimlaridan biri. O'quv jarayoni o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan, baholash tizimi raqobat emas, balki rivojlanishga asoslangan. Maktablar yuqori mustaqillikka ega.

- Janubiy Koreya – innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta'lim modeli bilan ajralib turadi. Maktablarda IT-texnologiyalari keng qo'llaniladi, o'quvchilarda ijodkorlik va mustaqil fikrlash rivojlantiriladi.

- Germaniya – “dual ta'lim tizimi” bilan mashhur bo'lib, bunda nazariy ta'lim va amaliy ishlab chiqarish jarayonlari uyg'unlashtirilgan. Bu tizim o'quvchilarning mehnat bozoriga tez moslashishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirishda bir nechta omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: o'qituvchilarning malakasi, zamonaviy o'quv dasturlari, innovatsion texnologiyalar, ta'limning insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi.

O'zbekiston ta'lim tizimi ham ushbu ilg'or tajribalarni o'zlashtirib bormoqda. Jumladan, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, xalqaro dasturlar asosida darsliklar tayyorlash kabi yo'nalishlarda sezilarli yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Shu bilan birga, o'zbek modeli milliy qadriyatlarga, davlatning ta'lim siyosatiga

asoslangan holda o'ziga xos xususiyatlarni saqlab qolmoqda.

Maktab ta'limi va uzluksiz ta'lim jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zero, maktab shaxs kamolotining poydevorini qo'ysa, uzluksiz ta'lim uning butun hayoti davomida bilim va ko'nikmalarini yangilashini ta'minlaydi. O'zbekistonda mustaqillikdan buyon ta'lim sohasida olib borilgan islohotlar, xususan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va keyingi yillarda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari ta'limning zamonaviy talablarga moslashishiga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda ta'limning uzluksizligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Xalqaro tajribaga murojaat qilish shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining muvaffaqiyati o'quv dasturlarining moslashuvchanligi, o'qituvchilarning yuqori malakasi, o'quvchilarning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va innovatsion yondashuvlarni qo'llashga bog'liq. Finlyandiya, Janubiy Koreya va Germaniya tajribalari O'zbekiston ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunday ekan, kelgusida mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, xalqaro tajribadan samarali foydalanish, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ta'limning uzluksizligini ta'minlash ustuvor vazifalar bo'lib qolaveradi. Bu esa, o'z navbatida, yuksak intellektual salohiyatga ega, raqobatbardosh mutaxassislar-ni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayeva B.S., Tursunova M.B., Xaydarova M.X. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani: Darslik (60110500 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun). – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2022.
2. Karimova, N. R. . Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – Toshkent: 2020.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Mavlonova R., Raxmankulova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Voris nashriyoti, 2013.
5. Xodjaboyev A.R., Xusanov I.A., Nishonaliyev U.N. Kasbiy ta'lim metodologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2006.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 11-12-son, 1997. 295-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 15-son, 150-modda; 2013-y., 41-son, 543-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son. LEX.UZ.
7. Zamilova R.R. Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim. Darslik. –Namangan: USMON NOSIR MEDIA, 2023.

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINI O'QITISHDA SOKRATIK METODDAN FOYDALANISH

*Isaqova Muhayyo Abduvayitovna,
Namangan viloyati Pedagogik mahorat markazi
tarix va huquq fani metodisti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17233989>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Davlat va huquq asoslari” fanini o'qitishda Sokratik metodidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sokratik metod o'quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'z fikrlarini asoslash va bahs-munozaralar orqali bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Maqolada ushbu metodning mohiyati, kelib chiqishi, qo'llash bosqichlari va afzalliklari batafsil ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, huquqiy masalalarni muhokama qilishda Sokratik metoddan samarali foydalanish bo'yicha misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sokratik metod, tanqidiy fikrlash, huquqiy savodxonlik, interaktiv ta'lim, huquqiy ta'lim, huquqiy ong, mustaqil fikrlash, mantiqiy fikrlash.

Использование сократического метода в преподавании предмета “Основы государства и права”

Исакова Мухайё Абдуваитовна,
Методист по истории и праву,
Центр педагогического мастерства
Наманганской области
Тел.: +998 99 397 13 55
Эл. почта: isaqova1983@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования сократического метода в преподавании предмета “Основы государства и права”. Сократический метод способствует развитию критического и логического мышления учащихся, помогает им аргументировать свои точки зрения и углублять знания через дискуссии. В статье подробно анализируются сущность данного метода, его происхождение, этапы применения и преимущества. Также приведены примеры эффективного использования сократического метода при обсуждении правовых вопросов.

блять знания через дискуссии. В статье подробно анализируются сущность данного метода, его происхождение, этапы применения и преимущества. Также приведены примеры эффективного использования сократического метода при обсуждении правовых вопросов.

Ключевые слова: сократический метод, критическое мышление, правовая грамотность, интерактивное обучение, правовое образование, правовое сознание, самостоятельное мышление, логическое мышление


**Using the socratic method in teaching
“Fundamentals of state and law”**

Isaqova Muhayyo Abduvayitovna,
Methodologist in History and Law,
Namangan Regional Center for Pedagogical Skills
Tel.: +998 99 397 13 55
Email: isaqova1983@gmail.com

Abstract: This article examines the effectiveness of using the Socratic method in teaching “Fundamentals of State and Law.” By fostering critical and logical thinking skills, this method enables students to give evidence for the views and deepen their understanding through discussions. The article analyzes the essence, origins, stages of application, and advantages of the Socratic method. Additionally, it provides examples of its effective use in discussing legal issues.

Keywords: Socratic method, critical thinking, legal literacy, interactive education, legal education, legal consciousness, independent thinking, logical thinking.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir[4]. Ayniqsa, huquqiy savodxonlikni oshirishda faqat ma'lumot berish yetarli emas, balki huquqiy masalalar bo'yicha mustaqil fikrlashga undash zarur. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida (2023-yil, 50-modda) har bir fuqaroning sifatli ta'lim olish huquqi mustahkamlangan, 54-moddasida esa yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish davlat kafolati sifatida belgilangan[1]. Ushbu huquqiy asosdan kelib chiqib, ta'lim tizimida nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning erkin va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladigan metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, Sokratik metod samarali vosita sifatida o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkin. Ushbu maqolada Sokratik metodning mohiyati, kelib chiqishi, qo'llash bosqichlari va afzalliklari ko'rib chiqiladi. Ta'lim tizimida qo'llaniladigan metodlar nafaqat zamonaviy, balki o'quvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga, o'z fikrlarini ochiq-oydin ifodalashga o'rgatadigan samarali yondashuvlarni o'z ichiga olishi kerak[4]. Ta'lim jarayonida shaxsiy rivojlanishni ta'minlash va o'quvchilarni hayotiy muammolarga tayyorlashda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, qadimiy, ammo o'z ahamiyatini yo'qotmagan "Sokratik (Suqrot) metodi" bugungi ta'lim uchun dolzarbdir. Ushbu metod o'quvchilar bilan dialog asosida ishlashni, ularga turli savollar orqali fikrlash imkoniyatini yaratadi. Bu metod bilim olish jarayonini chuqurlashtirib, mustaqil qaror qabul qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqola davomida biz Sokratik metodning mohiyatini, uni ta'limda qanday qo'llash mumkinligini va uning afzalliklarini tahlil qilamiz.



Self (Shaxs) – avvalo odam o'z fikrini tanqidiy ko'rib chiqadi, o'zini anglaydi.
Community (Hamjamiyat) – keyin boshqalar bilan suhbat, muloqot va munozara qilib, fikrini kengaytiradi.
Society (Jamiyat) – oxirida butun jamiyat miqyosidagi masalalarni anglaydi va ularga ongli yondashadi.

Asosiy qismi: Sokratik metod [3] – bu o'qitish va fikrlash usuli bo'lib, asosan yunon faylasufi Sokrat tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metod fikrlarni va tushunchalarni so'rash, muloqot qilish orqali aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Sokratik metodning asosiy maqsadi o'rgatish emas, balki o'rganuvchining o'z fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ular o'zlarining bilimlarini sinchiklab ko'rib chiqishlariga yordam berishdir[8].

Sokratik metodning tarixi qadimiy Gretsiyaga borib taqaladi va bu Sokrat (469-399) tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metod, fikr almashish va o'zaro muhokama orqali haqiqatni aniqlashga qaratilgan. Keling, Sokratik metodning tarixi haqida batafsil ma'lumotni ko'rib chiqamiz.

Sokratik metod dialektik jarayon orqali amalga oshiriladi[9]. Sokrat savollar berish orqali o'quvchilarning fikrlarini aniqlashga harakat qilgan. Bu jarayonda o'quvchilarning fikrlari va e'tiqodlari sinovdan o'tishi, ularning haqiqiy bilimga erishishiga yordam beradi. Sokratning g'oyalari Platon tomonidan "Sokratik dialoglar" asarida ifodalangan[6]. Platon Sokratning savol-javob jarayonlarini o'z asar-

larida aks ettirgan va bu orqali Sokratik metodning mohiyatini yanada ravshan ko'rsatgan[5]. Ushbu dialoglarda Sokrat o'quvchilarga mantiqiy savollar berib, ularni o'z bilimlarini sinab ko'rishga undaydi.

Sokratik metodning ta'siri

Sokratik metod ta'limda muhim o'rin egallaydi. Sokrat insonlar orasida mantiqiy fikrlash va axloqiy muhokama qilishni rag'batlantirgan. Bu metod keyinchalik Aristotel va boshqa faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan.

Zamonaviy ta'limda Sokratik metod

Sokratik metod hozirgi kunda ta'lim jarayonida keng qo'llaniladi. O'qituvchilar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashga va o'zaro muhokamalarga jalb qilish uchun foydalanadilar. Bu usul o'quvchilarda bilim olish va o'z fikrlarini ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Sokratik metodda qo'llanilgan savollar orqali bir qator muhim natijalarga erishish mumkin. Ushbu savollar o'quvchilarni faollashtirib, ularning fikrlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Keling bu natijalarni batafsil ko'rib chiqaylik.

1. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

O'quvchilar o'z fikrlarini tahlil qilish va boshqalar bilan baham ko'rish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshiradilar. Bu ularning mantiqiy va analitik fikrlashini kuchaytiradi.

2. O'zaro tushunishni oshirish

Savollar yordamida o'quvchilar bir-birlari-

ning fikrlarini yaxshiroq tushunadilar. Bu jarayon muloqot va bahs-munozaralarda ochiqlik va samimiylilikni rivojlantiradi.

3. Axloqiy va huquqiy bilimlarni chuqurlashtirish

O'quvchilar axloqiy va huquqiy tushunchalar haqida chuqurroq fikrlashadi. Masalan, Axloq va huquq kabi mavzularni o'rganish orqali, ularning haqiqiy mazmunini anglashadi[2].

4. Yangi g'oyalarni kashf etish

Savollar orqali, o'quvchilar yangi g'oyalar va fikrlarni kashf etishlari mumkin. Bu, ularni yangicha yondashuvlar bilan tanishtiradi.

5. Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish

Muammolarni tahlil qilish va hal etishga yordam beradigan savollar, o'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

6. Muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish

O'quvchilar savollar orqali o'z fikrlarini ifoda etishni va boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o'rganadilar. Bu ularning kommunikatsiya qobiliyatlarini oshiradi.

7. O'zini-o'zi anglash

Savollar yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini yaxshiroq tushunadilar. Bu o'zini-o'zi anglash va shaxsiy rivojlanishga yordam beradi.

Sokratik metodni qo'llash bosqichlari:

Metodni qo'llash bosqichlarini jadval asosida ko'rib chiqamiz[8].

Bosqich	Tavsifi	Muammolar	Amaliyotda qo'llanish
Maqsadni aniqlash	O'rganish jarayonining asosiy maqsadini belgilash. Maqsadlar aniq, o'lchovli (SMART) va erishiladigan bo'lishi kerak. O'quvchilarni qiziqitiruvchi va ularning ehtiyojlariga mos keladigan maqsadlar belgilash.	Maqsad aniq bo'lmasa, o'qitish jarayoni samarali bo'lmaydi. O'quvchilar motivatsiyasini oshirish qiyinlashadi.	Misol: "Bugun biz ijtimoiy masalalar bo'yicha o'z fikrlarimizni qanday ifodalashni o'rganamiz".
Savollarni tayyorlash	O'rganiladigan mavzu bo'yicha savollar tayyorlash. Savollar o'zaro bog'liq va o'quvchilarning fikr yuritishiga yordam beradigan bo'lishi kerak. Savollarni turli darajada (oddiy, murakkab, ochiq) tayyorlash.	Yomon tayyorlangan savollar o'quvchilarni chalg'itishi yoki fikrlarini cheklashi mumkin. O'zaro bog'liq savollar tayyorlash muhim.	Masalan, savollar: "Bu masalani qanday hal etish mumkin?" yoki "Sizning fikringizcha, bu hodisa qanday oqibatlariga olib keladi?"

Mavzuni o'rganish	Mavzuni chuqur o'rganish uchun manbalardan foydalanish. Kitoblar, maqolalar, video darslar va internet resurslaridan foydalanish. O'quvchilarga mavzuni osonroq tushunishlari uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim etish.	O'rganilayotgan mavzu bo'yicha yetarli ma'lumot bo'lmasa, savollarni muhokama qilish qiyinlashadi. O'quvchilarga kerakli resurslarni taqdim etmaslik.	O'quvchilar uchun manbalarni oldindan tayyorlash: "Mavzuga oid qiziqarli maqolalarni o'qib chiqing".
Muhokama jarayoni	O'quvchilar o'rtasida savollar orqali muhokama olib borish. Bu bosqichda fikr almashish, turli nuqtayi nazarlarni o'rganish va dialog o'rnatish muhim. Har bir ishtirokchini o'z fikrini bildirishga undash.	Faol ishtirok etmaydigan o'quvchilar bo'lishi mumkin. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda eta olmasliklari mumkin.	Muhokama jarayonida barcha ishtirokchilarni jalb qilish: "Har kim o'z fikrini aytishi kerak".
Natijalarni tahlil qilish	Olingan javoblar va fikrlarni tahlil qilish. Natijalarni guruhlash, asosiy g'oyalarni ajratib ko'rsatish. Tahlil natijalarini o'quvchilar bilan baham ko'rish.	Xulosa va tahlil qilish jarayoni noaniq bo'lishi mumkin. O'quvchilar fikrlarini ifoda etishda qiyinchiliklar sezishi mumkin.	Tahlil natijalarini yozma ravishda taqdim etish: "Bizning muhokama natijalarimiz qanday?"
Xulosa chiqarish	O'rganilgan material va muhokama natijalari asosida xulosalar chiqarish. Asosiy g'oyalarni, tushunchalarni aniqlash va ularni taqdim etish. Xulosalar aniq va tushunarli bo'lishi kerak.	Xulosalar noaniq yoki mantiqsiz bo'lishi mumkin. Agar tahlil jarayoni yomon o'tgan bo'lsa, xulosalar ishonchli bo'lmasligi mumkin.	O'quvchilar bilan birgalikda xulosalarni ishlab chiqish: "Nima o'rgandik?"
Takrorlash va qo'llash	Olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash. O'quvchilarni olgan bilimlarini mustahkamlashga undash. Amaliy mashg'ulotlar yoki loyiha asosida ishlash.	O'quvchilar olgan bilimlarini unutishi yoki amaliyotda qo'llashda qiynalishi mumkin. Bunda takrorlash jarayonini rejalashtirish va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish foydali.	Amaliy mashg'ulotlar o'tkazish: "Olingan bilimlarimizni qanday qo'llashimiz mumkin?"


Sokrat metodining afzalliklari:

Fikrni rivojlantirish: Savollar orqali o'ylashni rag'batlantirib, bilimni yanada chuqurlashtirish mumkin.

O'rganishning faolligi: Bu metodda o'quvchi yoki ishtirokchi passiv emas, balki faol ishtirok etadi.

Muloqotning sifatini oshirish: O'zaro savollar orqali fikr almashish muloqotni samarali va qiziqarli qiladi.

O'zini-o'zi tahlil qilish: bu shaxsning o'z fikrlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlari va qarorlarini ongli ravishda baholashi, ularni tahlil qilib, saboq chiqarishi jarayonidir.



Sokrat metodini qo'llash nafaqat o'qitishda, balki kundalik muloqotda ham samarali bo'lishi mumkin, chunki u ishtirokchilarni o'ylashga undaydi va yangi fikrlarni kashf etishga imkon yaratadi. Hatto, bevosita ishtirok etmasdan, faqat tinglashning o'zi ham foydali bo'lishi

mumkin. O'qituvchi o'quvchi diqqatini darsga jamlashga undash uchun ushbu metoddan foydalanadi, chunki har doim savol berilishi ehtimoli o'quvchilarni dars va muhokamani sinchiklab kuzatishga majbur qiladi. Darsni boshlashdan avval, ishtirokchilarni mavzuga qiziqtirish va ularning esda qoladigan fikrlarini olish muhim.

“Issiq o'rindiqda” o'tir

O'quvchilar uchun yaxshi tomoni shuki, bu jarayon har biringizga navbat bilan yetib keldi. O'qituvchilar odatda qo'l ko'tarishingizni kutmay, tasodifiy tarzda biringizni tanlaydilar. Birinchi marta bu jarayon qiyin tuyulishi mumkin, ammo vaqt o'tishi bilan qiziqarli bo'lib qoladi. O'qituvchi sizning fikrlaringizni eshitib, muhokamani to'g'ri yo'nalishga olib borishingizni qadrlaydi. Agar birinchi javobingiz muvaffaqiyatsiz chiqsa ham, bu sizni kelgusi darsga yaxshiroq tayyorlanishingiz uchun turtki bo'ladi. O'quvchilar uchun Sokrat metodini

muvaffaqiyatli qo'llagan ilk lahzalar unutilmas bo'lishi mumkin. Ko'pchilik ushbu jarayondagi muvaffaqiyatli lahzalarini eslab qoladi, chunki bu jarayon savol berish, tahlil qilish va o'z fikrlarini soddalashtirib tushuntirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar esa bu metod orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini shakllantiradilar[2]. Natijada, dars qiziqarli va samarali bo'lib o'tadi.

Sokratik metod orqali o'rgatilgan bilimlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu metod nafaqat huquqiy bilimlarni chuqurlashtirish, balki hayotiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishni o'rgatadi. Jamiyatda yuzaga keldigan muammolarni tahlil qilish, ularni huquqiy va adolatli yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar[10]. Shu tariqa, bu metod nafaqat ta'lim jarayonida, balki jamiyatning barqarorligi va fuqarolik ongini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Davlat va huquq asoslari. 8-sinf darsligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
3. Tillabaeva, N. (2022). Tanqidiy fikrlash va ko'nikmalarni shakllantirish. O'zbekistonda xorijiy tillar ilmiy-metodik elektron jurnal, №1.
4. Traver R. W. (2008). The Effective Use of Socratic Questioning in Teaching. Journal of Teacher Education, 59(5), 56-65.
5. Davlat va huquq asoslari o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. X.Tuychiyeva va boshqalar. Respublika ta'lim markazi, Toshkent – 2023.
6. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Ijtimoiy fanlar o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Baktaria Press, 2021.
7. Berdaliyeva T.K., Umatbekov K. M. (2023). “Метод Сократа как интерактивный прием в обучении говорению на занятиях русского языка. Научное обозрение. Педагогические науки”, №2, 33-37.
8. Maktabda o'qitish va baholash metodologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
9. Burgess L. (2023, April 5). How Hard Is Law School? ThoughtCo. Available at: <https://www.thoughtco.com/how-hard-is-law-school-2154823> (Accessed: 16 September 2025).
10. Hlinak, M. (2014). The Socratic Method 2.0. Journal of Legal Studies Education, 31(2), 123-135.

TA'LIM ISLOHOTI AMALDA



**A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnali**

**Научно-теоретический и учебно-методический журнал
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони**

**Scientific-theoretical and educational-methodological journal
of the National Institute of Pedagogical Skills named after A.Avloni**

МАКТАВ ТА'ЛИМИ:
MUAMMOLAR, IZLANISHLAR, YECHIMLAR
ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ:
ПРОБЛЕМЫ, ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕШЕНИЯ
SCHOOL EDUCATION:
PROBLEMS, RESEARCH, SOLUTIONS

**2025-yil,
4-son**

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar, Olmazor tumani,
Ziyo ko'chasi, 6-uy. Pochta indeksi – 100095.

Jurnal 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligining
2024-yil 11-sentyabrdagi 392864-raqamli guvohnoma berilgan.

Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-oktyabrdagi 363/5-son qaroriga asosan
“Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar” ro'yxatiga kiritilgan

Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$. Nashr bosma tabog'i 11,75.
Adadi: 100 nusxa. Chop etishga ruxsat etildi 16.10.2025.
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti bosmaxonasi
Bahosi kelishilgan narxda.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan
olingan matnlar “Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” ilmiy-nazariy
va o'quv-uslubiy jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

© “Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” jurnali, 2025.

